**Kirish.** Dunyo ta'lim makoniga oliy ta'lim tizimining integratsiya jarayonini kiritish maqsadida 1997 yilda ta'lim tizimining Lissabon konvensiyasi va 1999 yilda Bolonya deklaratsiyasi qabul qilindi. Bolonya deklaratsiyasining asosiy maqsadi Oliy ta'limda Yevropa kredit tizimi (ECTS- European Credit Transfer system) sinov birligini qo'llash hamda bu ta'limning chet ellarda tan olinishiga erishishdan iborat. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro andazalarga mos ravishda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi omillaridan biri sifatida belgilandi.

Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayoni nafaqat ta'limning asosiy mazmuni va kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarlik bo'yicha ma'ruzalar, seminarlar va laboratoriya mashg'ulotlarini, balki mustaqil ishlarni ham o'z ichiga oladi. Kasbiy tayyorgarlik, albatta, muntazam ravishda mustaqil ishlashni nazarda tutadi. Shuning uchun, Davlat ta'lim standartlarida mustaqil ishlash asosiy, fundamental ta'lim olishning asosiy shartlaridan biri ekanligi ta'kidlangan.

Boloniya Deklaratsiyaning eng muhim jihatlaridan biri oliy ta'lim muassasalarining «kredit tizimi»dan foydalanish. ECTS European Credit Transfer System, ya'ni «Yevropa baholash kreditlari tizimi»ni anglatadi. Oliy ta'lim tizimida kredit tizimidan foydalanish ko'pgina qulayliklarni yaratadi. Masalan: oliy ta'limga moliyaviy mablag'larini ajratishda, o'quv-shartnoma baholarini aniqlashda, o'quv dasturlari va rejalarini, darslar jadvalini tuzishda, talabalar bilimini baholash va stipendiyalar belgilashda afzalliklarga ega. Ta'limning Kredit tizimiga o'tish bozor iqtisodiyoti davri talabi bo'lgan ta'limning erkinligini ta'minlashda muhim bo'lgan o'qituvchi va talaba faoliyatini baholash, ularni o'quv yuklamalari hajmini aniqlashda foydalanish imkoniyatlari katta[3].

ECTS – talabalarga ham katta afzalliklar beradi. Talabalarning xorijda olgan akademik bilimlarini dunyoning turli mamlakatlarida tan olinishini kafolatlaydi, boshqa oliy ta'lim muassasalarida ma'lum fanlar bo'yicha o'qishni davom ettirish imkoniyatini, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish va tugatish imkoniyatini beradi.

ECTS – oliy ta'lim muassasalariga ham katta afzalliklar beradi. Masalan, ma'lum bir mutaxassislik olish uchun zarur o'quv jarayoni haqidagi axborotlarni aniq aks ettiruvchi o'quv rejalarni o'xshashligi – yagonaligini ta'minlaydi, mutaxassislik darajasini tan olinishini ta'minlash maqsadida talabani qabul qiluvchi va jo'natuvchi oliy o'quv yurtlaridagi dasturlarning mazmunini oldindan kelishib olish imkonini beradi, ta'lim natijalari, talabani o'quv yuklamalarini va fanlarning rejalari tarkibini aniq aks ettiradi, talabani ta'lim olishi bilan bog'liq hamma masalalarini hal etishdagi javobgarligini va mustaqilligini saqlash imkoniyatini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mustaqil o'qish didaktika kategoriyasi sifatida o'nlab va hatto yuzlab yillar davomida didaktiklar tomonidan ko'rib chiqilgan va ko'rib chiqilmoqda. Mustaqil o'qishni samarali tashkil etish va uning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni M. Monten, T. Mor, T. Campanella, Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalotsi, A.Desterverglar boshlagan bo'lsa, so'ngi yillar ichida M.G.Garunov, B.N.Esipov, V.A. Kozakov, I.Y.Lerner, M.I. Maxmutov, N.A. Polovnikova, P.I.Pidkasiy, A.A. Abduqodirov, M.M. Aripov, U.Sh. Begimqulov, F.M. Zokirova, Q.T. Olimov, N.I. Tayloqov, U.Y. Yo'ldoshev, A. Sattorov, M.A.Aripov va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi. Mamlakatimiz pedagog olimlaridan N.Sayidahmedov, P.T.Magzumov, A.R.Xodjaboyev, R.Mavlonova, U.N.Nishonaliyev, E.T.Choriyev, N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov va boshqalar o'z tadqiqotlarida o'quvchilar mustaqil o'qishning tashkiliy va metodik asoslari borasida fikr yuritganlar. Mustaqil o'qishni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida T.R.Niyazmetova, R.Saidova, A.I.Axmedov, B.M.Turdiyeva, N.A.Muslimov, O.Q.Tolipov, S.Sh.Sharipov, Z.Nishonova, J.Tolipova, N.Xalilov, S.Matchanov, T.Niyazmetovalarning ilmiy ishlarida tadqiqot qilingan. Biroq ushbu muammoga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Mustaqil ish" tushunchasining mohiyati to'g'risida hanzugacha bir fikrga kelinmagan va uning mohiyati to'g'risida hozirgacha yakdil fikr mavjud emas. Mustaqil o'qish tushunchasini mohiyatini ochib berishda turli yondoshuvlar mavjud. Jumladan, Mustaqil o'qish o'qitish metodi (A.G.Kovalev, A.I.Bushliy, I.V.Kuzmin, I.Y.Lerner) [5], o'qitishni qabul qilish (R.B.Sroda, T.P.Gerosimova, V.A.Korenskaya, A.V.Usova), talabalar faoliyatini tashkil etish shakli (B.P.Esipov, V.A.Shchenev) [6], o'quv vositasi va o'quv va ilmiy bilish shakli sifatida belgilangan (P.I.Pidkasiy, E.L.Belkin) [7], L.V.Golish va D.M.Fayzullayevlar o'zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko'rsatilgan har bir elementlarni muvaffaqiyatli rejalashtirish, tashkillashtirish, monitoring va baholash zarur ekanligini asoslab berishgan. [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oliy ta'lim muassasalarida Kredit modul tizimida auditoriya hamda mustaqil ta'lim olish soatlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Sababi, avvalgi ta'lim tizimida auditoriya soati 60% ni, mustaqil ta'lim soati esa 40% ni tashkil etar edi. Ammo Kredit modul tizimi joriy etilishi natijasi auditoriya soatlari avvalgidan ancha qisqardi. Ushbu holat teskarisiga tus oldi. Auditoriya soatlari 40%, Mustaqil ta'lim soatlari esa o'quv yuklamasidagi soatlarning 60%ni tashkil etadi. Bu ham ta'lim sifatini oshirish uchun qaratilgan asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda Respublikamiz olimlari tomonidan mustaqil o'qish hamda uni tashkil etish yuzasidan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va natijada quyidagi fikrlarga kelinmoqda. Jumladan, U.Sh.Begimqulov, R.X.Jo'rayevlarning fikriga ko'ra, mustaqil ta'limni tashkil etishda elektron resurslardan foydalanish tartibi har bir talabani individual xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadi. Talabalarning mustaqil o'qish faoliyati kompyuter texnologiyasi: elektron o'quv-

metodik resurslar, integrallashgan elektron lug'at-ma'lumotlar, elektron interfaol metodlar hamda laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni modellashtirish tizimidan tashkil topadi deganlar [8]. R.J.Ishmuhammadov, A.A. Abduqodirov, A. Pardayevlarning ta'kidlashicha, ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhitiga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil o'qish hamda ta'lim olish sharoitini va imkoniyatini yaratib bermoq zarur [9]. K.Z.Abedov tomonidan respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil o'qishini zamon talablari asosida takomillashtirish bo'yicha kafedralar oldida turgan asosiy vazifalar belgilab berilgan. I.A.Danilov o'qituvchining vazifasi bilan belgilanadigan va uning bevosita yordamisiz olingan bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga asoslangan holda talabalar tomonidan maksimal kuch bilan bajariladigan barcha ta'lim faoliyatini mustaqil ta'lim olish deb ataydi. R.B.Sroda talabalarning mustaqil o'qishini "ular o'zlarining maksimal faolligi, tashabbuskorligini ko'rsatadigan faoliyat" deb tushuntiradi [10]. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, talabalarning mustaqil o'qish jarayonida foydalanadigan mustaqil ta'lim olishi tushunchasiga biz quyidagicha ta'rif beramiz. Shunday qilib, talabalarning mustaqil o'qishlari bu- ularning ma'lum soha yoki fan yuzasidan o'qituvchining bevosita yoki bilvosida aralashuviz amalga oshiriladigan mustaqil izlanishi, mustaqil fikrlashi hamda soha yuzasidan mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish jarayonidir. Talabalar ongli ravishda o'z vazifalarini, maqsadlarini belgilashlari, o'z ishlarini rejalashtirishlari lozim. Ushbu ta'rifdan shu xulosa kelib chiqadiki, o'quv materiallarni o'zlashtirish darajasi, tegishli kompetensiyalarning shakllanishi, ko'p hollarda o'quv jarayonini qanday tashkil etilganligiga, qaysi interfaol metod va vositalar asosida talabalarni mustaqil o'qishga jalb etishga bog'liq bo'ladi.

Mustaqil o'qishning mohiyati quyidagilar bilan ifodalanadi;

- talabalarning faoliyati maxsus tashkil etilganligining mavjudligi;
- faoliyat natijasining mavjudligi;
- o'quv jarayoni texnologiyasining mavjudligi bilan belgilanadi.

Ushbu parametrlar mustaqil ta'lim olishda talabani bilish va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi asosida maxsus tashkil etilgan tizimli o'quv faoliyati sifatida aniqlash imkoniyatini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Didaktikada mustaqil o'qitish mohiyati boshqalarning yordamisiz insonning turli manbalardan axborotlarni olish qobiliyati bilan aniqlanadi. Mustaqil bilish harakatisiz insonda hech qanday obraz shakllanmaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda pedagogik jarayonda mustaqil ta'lim olish uchun foydalaniladigan mustaqil ish turlari nihoyatda xilma-xildir. Aksariyat didaktiklar va uslubchilar mustaqil o'qishni taqlid qilish, o'quv mashg'ulotlari, mashqlar, ijodiy xarakterdagi asarlar va h.k.z. kabi ish turlarini ta'kidlab, mustaqillik darajasi bo'yicha tasniflaydilar, ularning tabiati oldida bilim manbai tomonidan belgilanadi yoki mustaqil ishning didaktik maqsadi - yangi bilim olish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va sinash uchun xizmat qiladi deb hisoblashadi. Xususan, V.A.Dobromislov talabalarning o'qish jarayonida foydalanadigan mustaqil ishlarining quyidagi:

- 1) faktlarni kuzatish va kuzatilayotgan narsalarni bayon qilish;
- 2) hodisalar orasidagi taqqoslash va aloqani o'rnatish orqali;
- 3) voqea-hodisani, ba'zi bir nuqtai nazardan eng muhim bo'lgan hodisani ta'kidlash orqali;

4) bir qator hodisalarda tipiklikni aniqlash, xulosalarni umumlashtirish va asoslash kabi turlarini misol qilib keltiradi [11].

Mustaqil o'qish jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish muammo sifatida qaralganligi sababli, 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham "Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, entelektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi"[2] deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida: "Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilishi, o'quv-pedagogik faoliyatda master-klaslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilishi kabilar ta'kidlanib o'tilganligi alohida ahamiyat kasb etadi [3]. Shunday ekan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun

shart-sharoitlar yaratish, o'qituvchilarning barcha yangiliklardan xabardor bo'lishini ta'minlash, semestr davomida ma'lum fan yuzasidan bilimlarni muammoli ta'lim metodlaridan, kasuslardan foydalanib dars mashg'ulotlarini olib borilishi yuqori natija beradi deb hisoblayman.

**Xulosa va takliflar.** Har qanday jamiyatda bo'lganidek, Respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh malakali mutaxassislarini tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'ngi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarini kredit modul tizimiga o'tkazish hamda unda talabalarni mustaqil o'qishga o'rgatish va mustaqil ta'lim berishning eng so'ngi, zamonaviy usullaridan foydalanish, talabalarga to'g'ri motivatsiya hamda ustanovkalarini berish, dunyodagi nufuzli Top-500talik va Top-1000talikka kirgan oliy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribalaridan foydalanib saboq berish yuqori natijalarga olib keladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son 23.09.2020. <https://lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"// . O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi. -T., 2017. -S.39. <https://lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli Qarori. <https://lex.uz/>
5. Ochilov M. "O'qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti" // "Xalq ta'limi" 1999-y, 6-son 32-35 betlar
6. Imomnazarov M, Eshmuhammedova M, "Milliy manaviyatimiz asoslari: (Oliy o'quv yurtlari uchun ma'ruza matnlari)"// Tahrir hay'ati: H.S.Karomatov, N.Ibrohimov va b.; - T.: «Toshkent islom universiteti», 2001. -432 bet.
7. Pidkasiy P.I. Pedagogika. Uchebnoy posobiy /. - M.: Viyssee obrazovaniye 2006. – 432 b.
8. Begimqulov U.Sh, Jo'rayev P.X. va b. "Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot" Monografiya, Fan. Toshkent 2011. – 232bet.
9. Ishmuhammedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev. A "Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Istedod, 2008. -180bet.
10. Abidov K.Z. "Ta'limda kompetentli yondashuvni joriy etish asosida talabalarning mustaqil ishi tizimini yangilash bo'yicha kafedra oldida turgan asosiy vazifalar". // "Fan va texnologiyalar taraqqiyoti" jurnali. 2017. №1. 123-127 bet.
11. Hayitova I.I. "Talabalarning mustaqil ishlari: turlari, shakllari, baholash mezonlari". Monografiya "Buxoro Nashr". 2021. 72 bet.



**Dilfuza BEGMATOVA,**

*O'zMU dotsenti, PhD*

*E-mail: dilfuza@fizic@mail.ru*

*T.: 909740177*

**Saidjon USMONOV,**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchisi*

*E-mail: usmonovsaid@mail.ru*

*T.: 911244744*

*O'zMU Jizzax filiali professori, p.f.n. Salahdin Usmanov taqrizi asosida*

## INTEGRATION OF PHYSICS IN THE TRAINING OF MEDICAL SPECIALISTS

Abstract

Although teaching a biophysics course in medical education is aimed at developing students' knowledge about the physics of the human body and the physical properties of living systems, one should not forget about the formation of general cultural competencies, such as the formation of logical thinking skills. It is necessary that future medical workers have the ability to correctly set a goal and choose priority directions in solving their professional tasks. General physics and biophysics occupy a special place among the disciplines important for studying. The problems of teaching science in medical universities are primarily related to close interdisciplinary ties with other disciplines taught at the university. Therefore, this article will emphasize the methodology of teaching these disciplines.

**Keywords:** integrated lessons, physico-chemical nature, teaching physical science competences

## ИНТЕГРАЦИЯ ПРЕДМЕТА "ФИЗИКА" В ПОДГОТОВКУ МЕДИЦИНСКИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация

Хотя преподавание курса биофизики в медицинском образовании направлено на развитие знаний студентов о физике человеческого тела и физических свойствах живых систем, не следует забывать о формировании общекультурных компетенций, таких как формирование навыков логического мышления. Необходимо, чтобы будущие медицинские работники обладали умением правильно ставить цель и выбирать приоритетные направления в решении своих профессиональных задач. Общая физика и биофизика занимают особое место среди дисциплин, важных для изучения. Проблемы преподавания естественных наук в медицинских вузах в первую очередь связаны с тесными междисциплинарными связями с другими дисциплинами, преподаваемыми в университете. Поэтому в данной статье особое внимание будет уделено методике преподавания этих дисциплин

**Ключевые слова:** интегрированные уроки, физико-химическая природа, обучение физико-научным компетенциям

## TIBBIYOT MUTAXASISLARINI TAYYORLASHDA FIZIKA FANINI INTEGRATSIYASI

Аннотация

Tibbiyot ta'limida biofizika kursini o'qitish talabalarning inson tanasi fizikasi va tirik sistemalarning fizik xossalari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish kabi umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirishni unutmaslik kerak. Bo'lg'usi tibbiyot mutaxasislari o'z maqsadlarini to'g'ri belgilash qobiliyati va kasbiy muammolarini hal qilishda ustuvor yo'nalishlarni tanlash ko'nikmalarini shakllantirib olishlari zarur. O'rganilishi muhim bo'lgan fanlar qatorida umumiy fizika, biofizika fanlari ham alohida o'rin tutadi. Tibbiyot universitetlarida fanni o'qitishdagi muammolar, birinchi navbatda, universitetda o'qitiladigan boshqa fanlar bilan yaqin fanlararo aloqalar bilan bog'liq. Shu bois ushbu maqolada mazkur fanlarning o'qitilish metodikasiga urg'u beriladi.

**Kalit so'zlar:** Integratsiyalashgan darslar, fizik-kimyoviy tabiat, fizika fanini o'qitish kompetensiyalari.

**Kirish.** Fanlararo bog'liqliqni amalga oshirish yo'llaridan biri-bu integratsiyalashgan darslar. Bunday darslar materialni o'rganishdagi dubllashtirishni bartaraf qiladi, o'quvchilarning umumta'lim malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek integratsiyalashgan darslar ta'limning ilmiy darajasini ko'tarishga, bilimlarni umumlashtirish, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini va ijodiy layoqatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Biofizika inson organizmini ochiq termodinamik tizim deb hisoblaganligi sababli, biofizikani birinchi navbatda biologiya fanlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqish kerak; biofizika biologik tizimlarning kimyoviy fizikasi ekanligi haqida ham bahslashish mumkin. Binobarin, biofizikani o'qitish bevosita kimyo va biologiya fanlari bilan bog'liq holda olib borilishi, biofizika bilimlari ushbu fanlarni o'rganishda olingan bilimlarni ustiga qo'yilishi va biofizika yangi biologik va kimyoviy bilimlarning asosiga aylanishi kerak. Shunga ko'ra birlamchi muammo, biologik va kimyoviy

bilimlarning yetarli darajada emasligi, albatta biofizikani o'rganishda to'sqinlik qiladi. Ikkinchi bir muammo biofizika va fiziologiya o'rtasidagi bog'liqlik xususidadir. Fizika va fiziologiya organizmda sodir bo'ladigan hodisalarning fizik-kimyoviy tabiatini bilmagan holda kirib bo'lmaydigan organizmning funktsional xususiyatlarini ko'rib chiqadi. Binobarin, biofizikani o'qitishning asosiy tarbiyaviy vazifasi o'quvchilarda biofizika tibbiyot ta'limini olishda asosiy o'qitiladigan fanlar bilan yagona fan ekanligini anglashdan iborat. Avvalo, biofizika va yuqori kurslarda o'qitiladigan fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish kerak. Agar biz o'qitishning uchinchi bir vazifasi haqida gapiradigan bo'lsak, unda terapevtik maqsadlarda tibbiy manipulyatsiyalarga ta'sir qilish imkoniyati haqida gapiradigan barcha maxsus fanlarni o'rganish uchun bilimlar qo'yiladi [1]. To'g'ridan-to'g'ri tibbiy amaliyotda biofizik bilimlarni qo'llash haqida gapirganda, biz biofizika bilimlaridan foydalanadigan asosiy tibbiy yo'nalishlarni sanab o'tishimiz mumkin:

Biomexanika  
 Bioreologiya. Biologik suyuqliklarning qovushqoqliqi  
 Gemodinamika. Yurak faoliyatining fizikaviy asoslari  
 Termodinamika. Tirik sistemalar termodinamikasi  
 Tovushning fizikaviy xarakteristikalari. Tibbiyotda tovushdan foydalanish

Tirik organizmlarda elektr toki

Yorug'likning xossalari. Ko'zning optik sistemasi.

Radioaktivlik. Ionlantiruvchi nurlanishning organizmga ta'siri

Fakultetlarda katta hajmdagi kompetensiyalarni ta'minlovchi fanning bunday holati biofizika masalalarini o'rganish hajmini oshirish zarurati tug'diradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son [qarori](#)

1-ilovasiga muvofiq 2021 — 2023-yillarda fizika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta'minlash bo'yicha "KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR DASTURI" ishlab chiqilgan [2].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tibbiy biofizikaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: normal va patologik jarayonlarning fizik va fizik-kimyoviy asoslarini o'rganish, kasalliklarni davolashning yangi usullarini ishlab chiqish; tananing funktsional holatini ob'ektiv tashxislash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan fizik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarni aniqlash; fizik omillarning (ionlashtiruvchi nurlanish, yorug'lik, ultratovush va boshqalar) ta'sir qilish mexanizmlarining organizmga ta'sirini va patologik jarayonlarning rivojlanishini o'rganish [1]. Biofizikaning kichik bir vazifasi sifatida bir misol qilib, yurak faoliyatining fizikaviy asoslarini ko'rib chiqaylik. Biomexikaning tomirlar sistemasidagi qon harakatini o'rganuvchi bo'limiga gemodinamika deyiladi. Gemodinamikaning fizik asosi gidrodinamikadir. Gidrodinamika fizika fanining suyuqlik va gazlar mexanikasi bo'limida ko'rib chiqiladi, gemodinamika esa qon aylanishi tufayli qo'llaniladigan ayrim texnik qurilmalari ishining fizikaviy asoslarini o'rganadi. O.Frank taklif etgan qon yuradigan tomirlar sistemasining gidrodinamik modeliga qaraylik. Bu model yetarlicha oddiy bo'lishiga qaramasdan, qonning zarb hajmi (bitta sistola davomida yurak qorinchasi tomonidan otib chiqarilayotgan qonning hajmi) bilan, qon aylanish sistemasi markazidan uzoqda joylashgan qismlarining gidravlik X0 qarshiligi va arteriyalardagi bosimning o'zgarishlari orasidagi bog'lanishni amalga oshirishga imkon beradi. Qon aylanish sistemasi arterial qismi elastik rezervuar kabi modellashtiriladi (1-rasm).



1-rasm Qon aylanish sistemasining elastik rezervuar kabi modellashtirilishi

Qon elastik rezervuarda bo'lgani sababli uning ixtiyoriy vaqtga hajmi p bosimga quyidagi munosabat orqali bog'langan:

$$V=V_0+kp \quad (1.1)$$

bu erda k-rezervuarining elastikligi ( hajmi bilan bosim orasidagi proporsionallik koeffitsienti ) ; V0-rezervuarining bosim bo'lmagandagi (p=0) hajmi. (1.1) ni differentsiallab, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\frac{dv}{dt} = k \frac{dp}{dt} \quad (1.2)$$

Qon yurakdagi elastik rezervuarga (arteriyaga) kiradi, qon oqishining hajmiy tezligi Q ga teng. Qon elastik rezervuardan, chetki qismlarga (arteriolalar, kapillyarlarga) Q0 hajmiy tezlik bilan oqib chiqadi. Faraz qilaylik, chetki sistemalarning gidravlik qarshiligi o'zgarmas bo'lsin. Bu

elastik rezervuarining chiqish qismiga mahkamlangan "qattiq" naycha qo'yish orqali modellashtiriladi (1.1-rasm).

Yurakdan oqib chiqayotgan qonning hajmiy tezligi elastik rezervuar hajmining ortishi tezligiga va elastik rezervuardan oqib chiqayotgan qonning tezligiga tengligini ko'rsatuvchi yetarlicha aniqlikka ega bo'lgan tenglamani tuzish mumkin (3.1-rasm);

$$Q = \frac{dV}{dt} + Q_0 \quad (1.3)$$

(2.8) Puazeyl tenglamasi va (2.9) formulaga asosan qon aylanish sistemasining chetki qismlari uchun quyidagi formulani yozish mumkin:

$$Q_0 = \frac{p - p_v}{X_0} \quad (1.4)$$

Bu erda p–elastik rezervuardagi bosim; pv-venaga oid bosim, uni nolga teng deb olish mumkin, u holda (3.4) o'rniga quyidagiga ega bo'lamiz:

$$Q_0 = \frac{p}{X_0} \quad (1.5)$$

(1.2) va (1.5) ni (1.3) ga qo'ysak,

$$Q = k \frac{dp}{dt} + \frac{p}{X_0}, \quad \text{yoki}$$

$$Q dt = k dp + \frac{p}{X_0} dt \quad (1.6)$$

ni hosil qilamiz va (1.6) ni integrallaymiz. Integrallash chegarasi vaqt bo'yicha pulsning davri (yurakning qisqarishdavri) ga mos bo'lib, 0 dan toki Td gacha bo'ladi. Ushbu vaqtinchalik chegaralarga bir xil bosimlar mos keladi eng kichik diastolik bosim Pd:


$$\int_0^{T_D} Q dt = k \int_{P_D}^{P_D} dp = \frac{1}{X_0} \int_0^{T_D} p dt$$

(1.7)

Chegaralari bir xil bo'lgan integral nolga teng bo'lgani sababli (1.7) dan quyidagi tenglama hosil bo'ladi:

$$\int_0^{T_D} Q dt = \frac{1}{X_0} \int_0^{T_D} p dt \quad (1.8)$$

Uyqu arteriyasidagi bosimning vaqtga bog'liq holda o'zgarishini ko'rsatuvchi tajriba asosida olingan egri chiziq 1.2-rasm ko'rsatilgan (tutash chiziq). Rasmda pulsning davri, sistelaning Ts diastolaning Td davomiyligi



1.2-rasm Uyqu arteriyasidagi bosimning vaqtga bog'liq holda o'zgarishini

va Pc maksimal sistolik bosim ko'rsatilgan.

(1.8) tenglamaning chap qismidagi integral yurakning bir marta qisqarishi davomida undan siqib chiqarilgan qonning hajmi zarb hajmiga teng bo'lib, u tajriba asosida topilishi mumkin (1.8)tenglamaning o'ng qismidagi integral egri chiziq va vaqt o'qi bilan chegaralangan (1.2-rasm) figuraning yuziga mos kelishini ham aniqlash mumkin. Integrallarning ko'rsatilgan qiymatlaridan foydalanib, (1.8) formula asosida qon aylanish sistemasi chetki qismlaridagi gidravlik qarshilikni hisoblash mumkin.

Sistola (yurakning qisqarishi) vaqtida elastik rezervuarning kengayishi, sistoladan so'nggi diastola vaqtida esa qonning chekka qismlarga oqib chiqishi yuz beradi, Q=0. Bu davr uchun (1.6) dan quyidagiga ega bo'lamiz:

$$0 = kdp + \frac{p}{X_0} dt \text{ yoki } \frac{dp}{p} = - \frac{dt}{kX_0} \quad (1.9)$$


(1.9) ni integrallab, rezervuarda sistoladan so'nggi bosimning vaqtga bog'liqligini ifodalovchi formulani hosil qilamiz:

$$p = p_s e^{-t/(kX_0)} \quad (1.10)$$

Bunga mos bo'lgan egri chiziq 1.2-rasmda shtrix chiziq ko'rinishida tasvirlangan. (1.5) formula asosida qonning oqib chiqish tezligining vaqtga bog'liqligini topamiz:


$$Q = Q_s e^{-t/(kX_0)} \quad (1.11)$$

B  
unda  
 $Q_s = P_s / X_0$   
—sistola oxirida (diastola boshida) elastik rezervuar dan oqib chiqayotgan qon harakatining hajmiy tezligi [3].




1.3-rasm Qon aylanish sistemasining elektrik modeli

(1.10) va (1.11) formulalardagi bog'lanishlarni ifodalovchi egri chiziq eksponentalardan iborat. Ushbu model real hodisani qo'pol darajada tavsiflasa-da, u diastola oxiridan jarayonni haddan tashqari sodda va ishonchli ko'rinishda aks ettiradi. Lekin shu bilan birga bu model yordamida diastola boshidagi bosimning o'zgarishini tasvirlab bo'lmaydi. Mexanik model asosida unga o'xshash bo'lgan qon aylanish sistemasining elektrik modelini qo'yish mumkin (1.3-rasm).



1.4 rasm Roston modeli



1.5 rasm. Roston modelining elektrik sxemasi

Bu yerda sinusoidal bo'lmagan elektr kuchlanishni beruvchi U manba, yurakka o'xshash, to'g'rilagich B-yurak klapani vazifasini bajaradi. Kondensator C yarim davrga teng bo'lgan vaqt davomida zaryadni to'plab, so'ng rezistor R

orqali zaryadsizlanadi va shu yo'sinda rezistor orqali oqib o'tayotgan tok kuchi silliqilanadi. Kondensatorning ish faoliyati elastik rezervuar (aortalar, arteriyalar) nikiga o'xshash bo'lib, arteriolalarda va kapillyarlarda qon bosimi o'zgarib turishlarini silliqlash vazifasini bajaradi. Rezistor esa chetki qon tomirlari sistemasining elektrik analogiyasi hisoblanadi.

Tomirlar yo'li fazoda taqsimlangan sistema hisoblanadi degan faktni hisobga olish uchun qon tomirlari yo'lining yanada aniqroq modeli ko'p miqdordagi elastik rezervuarlardan foydalanilgan. Qonning inertsiyal xossalarini hisobga olish uchun model qurishda aortaning yuqoriga yo'nalgan va pastga yo'nalgan tarmoqlarini modellovchi elastik rezervuarlar turlicha elastiklikka ega bo'ladi deb taxmin qilinadi. Elastikligi turlicha bo'lgan ikkita rezervuardan va rezervuarlari orasidagi gidravlik qarshiligi har xil bo'lgan noelastik zvenolardan iborat Roston modeli 1.4-rasmda tasvirlangan. Bunday modelga 1.5-rasmda tasvirlangan elektr sxemasi mos keladi. Bu erda tok manbai P(t) bosimning analogi bo'lgan pulsatsiyalovchi U(t) kuchlanishni uzatadi: C1 va C2 sig'imga k1 va k2 elastiklikka; R1, R2 va R3 elektr qarshiliklari X1, X2 va X3 gidravlik qarshiliklarga; I1 va I2 tokkuchlari qonning qochishi tezliklari Q1 va Q2 ga mos keladi [4]. Bunday model ikkita birinchi tartibli diferentsial tenglamalar sistemasini yordamida tavsiflanadi, ularning yechimini esa birinchi va ikkinchi kameralarga mos keluvchi ikkita egri chiziq beradi.

**Taqqid qod metodologiyasi.** Yuqorida ko'rib o'tgan ma'lumotlarimizga tayanib aytish mumkin-ki tibbiyot sohasining ko'plab jabhalarida fizika fanining o'rni beqiyos. Tibbiyot ixtisosligida ta'lim olayotgan talabalarga faqatgina umumfizikaviy qonunlarni o'rgatibgina qolmasdan, misollar asosida tushuntirib, kasalliklarning rivojlanishi, qay tarzda kechishi va ularning davo choralarini fizikaviy asoslash fizika o'qitish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarga fizika fanlarini o'rganish qay darajada muhim istiqbolli ekanligini tushuntirish, misollar asosida ko'rsatib o'tish lozim [5]. Masalan: O'tgan yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 61,7 foizi – yurak va qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,8 foizi – o'simtalardan, 6,7 foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,2 foizi – baxsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,1 foizi – yuqumli va parazitar kasalliklardan, 11,4 foizi esa boshqa kasalliklardan vafot etgan [6]. Ushbudan ko'rinadiki yurak va qon tomir kasalliklaridan aziyat chekish, o'lim sonining darajasi boshqa kasalliklarga nisbatan juda yuqori. Yurak – qon tomir tizimi kasalliklarini kelib chiqish sabablarini o'rganish, hamda ularning profilaktikasini to'g'ri amalga oshirishda fizika fanining integratsiyalashuvi juda muhim bo'lib, fizika qonunlarini o'rganish va uni boshqa fanlar aro aloqalarini mustahkamlash orqali ko'plab tibbiy masalalarga yechim topish mumkin [7].

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, biofizikani barcha o'zaro bog'liq fanlarning kompetentsiyalari amalga oshiriladigan fanlararo fan deb atash mumkin. Shuning uchun biofizikani o'qitishda yo'l qo'ymaslik kerak bo'lgan asosiy narsa bu bir tomonlama bilimlarni o'rgatishdir, chunki "biofizika" faniga kiritilgan aniq bir fan o'zining o'rganish ob'ektiga va tadqiqot usullariga ega bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega [8]. O'quvchilarda aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirish va faqat ushbu mavzularning muvofiqlashtirilgan kombinatsiyasi bizga dunyoning yagona tabiiy-ilmii rasmini shakllantirishga imkon beradi [9].

**Xulosa va takliflar.** Demak, o'quv fanlari, mavzulari orasida integratsiya fanlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya ta'lim tizimini takomillashtirish, untegrativ ta'limni kuchli tomonlarini oshirish, kamchiliklarni bartaraf etish yo'li bo'lib, fanlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni

chuqurlashtirishga qaratilgan. Integrativ ta'limdan foydalanish va buni mustahkamlash fan asoslaridan olinadigan bilimlarning to'liq, chuqur va puxta bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Fizikadan ma'ruza mashg'ulotlari kelajakdagi

mutaxassislarning kasbiy bilimlarini shakllantirishga, o'quv jarayoniga ongli munosabatda bo'lishlariga, mustaqil bilim olishga va umumiy fizika kursini har tomonlama to'liq egallashlariga zamin yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Чернова Г.В. Проблемы преподавания биофизики в медицинском вузе. NovaInfo 10 февраля 2018 78, 224-227 стр.
2. <https://lex.uz/docs/-5338558> (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021-y., 07/21/5032/0226-son)
3. A. N. Remizov. TIBBIY VA BIOLOGIK FIZIKA. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2005. 195-198-sahifa
4. M. I. Bazarbayev, I. Mullojanov, X. J. Raximova, F. B. Nurmatova, U. M. Abdujabbarova, A. Z. Sobirjonov, I.Sh.Saidnazarova. Biofizika. Toshkent Fan va texnologiya – 2018. 49-54-sahifa
5. Рахима Сафарова. Характеристика преподавания физики в медицинских учреждениях. Общество и инновации. Выпуск 2 №1/S(2021). 151-160 стр
6. <https://kun.uz/uz/news/2022/01/28/ozbekistonning-demografik-holati-aholi-orasida-kuzatilgan-olim-va-uning-sabablari-malum-qilindi>
7. S.X.Umarov, Ashurov J. J., Khodzhaev U. U., Narzullaeva Z. M., Kurbonov B. S., Namozov I. U. Effect of temperature and impurities of group iv elements on the electrophysical and strain - resistive properties of TlInSe 2 crystals. Тиббиётда янги кун. (New Day in Medicine). 2(30/2). 2020. С.19 – 23.
8. Мехринисо Фарходовна Атоева, Электромагнетизм бўлимини даврийлик технологияси асосида ўқитишнинг дидактик имкониятлари, ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2016.–№ 1/2. Б.86-89бет.
9. Мехринисо Фарходовна Атоева, Ернинг магнит майдонини фанлараро боғлиниш орқали тушунтириш, Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2010. – № 1. – Б.53-55
10. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования. Специальность 060101 Лечебное дело. Квалификация врач-лечебник. М., 2009.



**Эркин БОЗОРОВ,**  
ЎзРФА Ядро физикаси институти профессори.  
E-mail: [erkinbozorov789@gmail.ru](mailto:erkinbozorov789@gmail.ru)  
**Асқар ЭРГАШЕВ,**  
СамДТУ Физика, биофизика ва тиббий физика  
кафедраси ассистенти.  
E-mail: [askarergashev@rambler.ru](mailto:askarergashev@rambler.ru)

### ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСЛАРИДА “РЕНТГЕН ДИАГНОСТИКАСИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛУСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСЛУБЛАРИ

Аннотация

Олий ўқув юртлирида рентген диагностикаси мавзусини ўқитишда таълим беришнинг интерфаол усуллари қўлланилишига доир масалалар таҳлил қилинди. Маъруза, амалий ва семинар машғулотида талабаларнинг интерфаол ўқув фаолияти ҳақида умумий маълумот берилган. Хусусан, талабаларнинг ўқув фаолияти “талаба – ўқитувчи” илмий-тадқиқот муносабатида фундаментал концептуал ёндашиш тамойилларига асосланган. Олий таълимда бўлажак педагог кадрлар тайёрлаш жараёнини самарали ташкил этишда замонавий педагогик технологияларни таълимда қўллаш натижасида бу соҳада яхши мутахассис ва етук кадрлар тайёрлашга эришилади.

**Калит сўзлар:** Рентген диагностикаси, давлат таълим стандарти; касбий ваколат; фундаментал фанлар методологияси, семинар, амалий, интерфаол.

### МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМА «РЕНТГЕНОВСКАЯ ДИАГНОСТИКА» УЧРЕЖДЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Анализируются вопросы, связанные с использованием интерактивных методов обучения при преподавании рентгеновская диагностика в высшей школе. Лекции, практические занятия и семинары предоставляют общую информацию об интерактивной учебной деятельности студентов. В частности, учебная деятельность студентов основана на принципах фундаментального концептуального подхода, такого как исследовательские отношения «ученик-учитель». В результате применения современных педагогических технологий в образовании при эффективной организации процесса подготовки будущих учителей высшей школы достигается подготовка хороших специалистов и зрелых кадров в этой сфере.

**Ключевые слова:** рентгеновская диагностика, государственный образовательный стандарт; профессиональный авторитет; методология фундаментальной науки, семинарская, прикладная, интерактивная.

### METHODS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SUBJECT " X-RAY DIAGNOSTICS " IN HIGHER EDUCATION

Annotation

Issues related to the use of interactive teaching methods in the teaching of X-ray diagnostics in higher education are analyzed. Lectures, practical and seminar classes provide general information about students' interactive learning activities. In particular, students' learning activities are based on the principles of a fundamental conceptual approach, such as the "student-teacher" research relationship. As a result of the application of modern pedagogical technologies in education in the effective organization of the process of training future teachers in higher education, the training of good specialists and mature personnel in this field is achieved.

**Keywords:** X-ray diagnostics, state education standard; professional authority; fundamental science methodology, seminar, applied, interactive.

**Кириш.** Ҳозирги замон таълим тизимининг асосий тенденцияларидан бири ахборотлаштирилишидир, асосан ўқув – таълим жараёнига уни тузиш ва оптималлаштиришга ундовчи турлича ахборот воситалари услубларини жорий этилиши билан боғлиқ. Олий таълимнинг ахборот майдони умуман муассасалар ва тиббиёт университети хусусан, самарадорлик ва шароитларни таъминлаш учун мўлжалланган унинг барча тузилмаларининг ўзаро таъсирини ва ўқув жараёни сифатини оширишидир. Бироқ, фақат мультимедия ўқув воситаларини жорий этиш, материални ўзлаштиришни, талабаларнинг мотивациясини ошириш билангина, уларнинг мустақиллигини фаоллаштириш мумкин эмас, балки бўлажак мутахассиснинг кўп қиррали ваколатларини аниқ тарзда тўғри шакллантиришдан иборат.

Шу муносабат билан талабаларга хусусий ҳолда (индивидуал) ва дифференциал тарзда ёндашиш асосида ўқитишнинг оптимал шакллари услуб ва амалларнинг аниқлаш зарурияти юзага келади. Инновацион ўқитиш усулларида бири - бу интерфаол таълимдир.

Шахсга йўналтирилган, ривожлантирувчи таълим парадигмаси, уни ташкил этишнинг интерфаол усуллари ва шакллари фаол жорий этишга имкон беради ва талабанинг самарали фикрлаш фаолияти ва ўқув-билиш кизиқлигини шакллантиради.

Тиббиёт йўналишидаги олий ўқув юртлирида тиббиёт физикасини ўқитишнинг интерфаол усулларида фойдаланиш юқори малакали мутахассисларни тайёрлашга эришиш мумкин.

**Натижалар ва уларни муҳокама қилиш.**  
А.А.Вербитскийнинг фикрига кўра, талабанинг


фаолиятдаги ўрни ва машғулоти позицияси, қанчалик хилма-хил бўлса, келажакдаги мутахассис яъни шахс ривожланади, ўқитиш шаклланади ва ўқитишга ижодий ёндашув мазмунли фаолият, мослашувчанлик ривожланади, чуқурроқ фикрлашга ҳаракат қилади. Ўқув жараёнида интерфаол усуллари ўрганиш, авваламбор, юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифати билан боғлиқ [1].

Ўқитишнинг интерфаол усуллари жалб қилиш, талабаларнинг фаол ўқув ва билим, кўникма ва малака фаолиятини шакллантиради. Г.М. Газизовнинг фикрига кўра, ушбу усуллардан, хусусан тиббиёт фанларини ўқитишда юқори самарадорликка эга: бу талабаларнинг фаоллигини таъминлайди (ўқув жараёнида қатнашиш фаоллашидир); тажрибага асосланган; эҳтиёжлар ва шахсий рағбатлантиришга таянади, талабаларга ҳурматни намойиш этади; дўстона муносабатларни яратади [2].

Рентген диагностикаси маъвзусини ўқитишнинг энг кенг тарқалган усуллари;

1. Муаммоли маъруза. Бошида ўқитувчи ва ўқув материални тақдим этиш жараёнида муаммоли вазиятларни юзага келтиради ва уларни таҳлил қилишга талабаларни жалб қилади. Муаммоли вазиятларда мавжуд бўлган қарама-қаршиликларни ечган ҳолда, талабалар, ўқитувчи янги вазифалар сифатида маълум қилиши керак бўлган хулосаларга мустақил равишда қилишлари мумкин. Муаммоли маърузалар бўлажак мутахассислар томонидан Рентген диагностикаси мавзусининг принциплари ва қонунларини ижодий ўзлаштиришни таъминлаш; талабаларни ўқув ва билим фаолиятини кучайтириш, уларнинг мустақил аудитория ва аудиториядан ташқари ишлари, билимларни ўзлаштириш ва уларни қўллашни машқ қилиш.

Рентген диагностикаси мавзусида маъруза ўқитганда талабаларга “Рентген диагностикаси усуллари” “Проекцияли рентгенография” “Рентген диагностикаси учун ускуналар” “Радиографик тасвирлар” “Рентген диагностикасида радиация дозалари” мавзулари бўйича муаммоли амалий дарслар ўқилади (1-расм).



1-расм Рентген диагностикалар.

2. Режалаштирилган хатолар билан маъруза (маъруза-провокация).

Маъруза мавзуси эълон қилингандан сўнг ўқитувчи унда нима қилинишини хабар қилади, ҳар хил турдаги маълум миқдордаги хатолар яъни улар информацион, услубий, хулқ-атворли ва бошқалар. Маъруза охирида талабалар хатоларни номлашлари керак. Ушбу маъруза томонидан ишлаб чиқилган талабаларнинг касбий вазиятларни тезкор таҳлил қилиш, сўзлашиш кўникмаларини ривожлантириш тўғри ёки нотўғри маълумотларни ажратиш учун мутахассисларнинг роли билан маърузада режалаштирилган хатолар нафақат функцияни рағбатлантириш, шунингдек бошқариш керак. Олдиндан талабаларнинг мавзуга тайёргарлик даражасини

баҳолаш мумкин ва у ўз навбатида материалда уларнинг йўналиш даражаси текширилади. Хатоликлар системаси ёрдамида ўқитувчи камчиликлар, уларни муҳокама қилиш пайтида уларни таҳлил қилган ҳолда, талабалар билан ўқув материалнинг тузилиши ва уни ўзлаштиришнинг қийинчиликлари ҳақида тасаввурга эга бўлади.

Мисол учун Рентген нурланишининг тиббиётдаги энг асосий қўлланилишларидан бири — диагностика мақсадида ички органларни ёритиш (рентгендиагностика)дир. Ҳар хил тўқималар рентген нурланишини турли даражада ютиши одам танасидаги

органларнинг тасвирини соявий проекцияда кўришга имкон беради.

Ютилишнинг масса коэффициенти  $\mu_m = \kappa \lambda^3 z^3$  формула билан топилади. Бу ерда  $\kappa$ -пропорционаллик коэффициенти,  $\lambda$ -рентген нурларининг тулкин узунлиги ва  $Z$ -ядро заряди. Суяк ( $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ ) да ваюмшок тукима (сувда  $\text{H}_2\text{O}$ ) да рентген нурларининг ютилиши ( $\text{Ca}=20$ ,  $\text{P}=15$ ,  $\text{O}=8$ ,  $\text{H}=1$  эканлигини ҳисобга олиб) солиштирилса.

$$\frac{\mu_{m \text{ сув}}}{\mu_{m \text{ суяк}}} = \frac{3 * 20^3 + 2 * 15^3 + 8 + 8^3}{2 * 1^3 + 8^3} = 68$$

Суякда 68 марта кўп ютилади экан.

Ташхис мақсадида энергияси 60-120 кэВ бўлган рентген нурларидан фойдаланилади. Рентген нурларининг турли зичликдаги органларда турлича ютилишига қараб, ички органларни соявий проекциясини олиш мумкин.

Ушбу ҳисоблашда суяк  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  нинг заифланишнинг масса коэффициенти  $\mu_{m \text{ суяк}}$  нисув  $\text{H}_2\text{O}$  нинг заифланишнинг масса коэффициенти  $\mu_{m \text{ сув}}$  сузуриналириалмаштирилган холдаражаланштирилган ҳатоликсифатида берилди

3. Маъруза-визуализация. Маърузанинг ушбу тури талабалар кўз олдида намоён эттириш принциpidан янгича фойдаланиш натижаси ҳисобланди. Ўқитувчи томонидан маъруза материалларини кўргазмани слайдлар ва мультимедиа ёрдамида тайёрланади.

Бунга сабаб Рентген диагностика аппаратларини намоёниш қилиш орқали тушунтирилмаси талабалар тасаввур эта олмайди. Мисол учун Рентген нурларига асосланган диагностика аппаратлар (2-расм). Компютер томографияси, Стерилизация ва дезинфекция учун аппаратлар (3-расм), каби мавзуларни ўтиш жараёнида электрон слайдлар, мультимедияли қўлланмалардан фойдаланиш бевосита қўл келади.



2-расм. Рентген нурларига асосланган диагностика аппаратлар.



3-расм. Компютер томографияси, Стерилизация ва дезинфекция учун аппаратлар.

4. Маъруза суҳбати жараёни, энг кенг тарқалган ва нисбатан содда талабаларни таълимга фаол жалб қилиш шаклидир. Ушбу маърузада ўқитувчининг тингловчилар билан алоқаси тўғридан-тўғри қабул қилинади. Маъруза-диалогининг афзаллиги шундан иборатки, талабалар эътиборини мавзунинг энг муҳим жиҳатларига қаратиш, мавзуга оид саволлар, баъзи хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ўқув материалининг мазмуни ва тақдим этиш тезлигини аниқлаш имконини беради. Тингловчиларнинг маъруза-суҳбатдаги иштироки турли хил усуллар билан, савол-жавоблар, ахборот ва муаммоли характерга эга бўлиши, талабаларнинг материални идрок этишга тайёрлик даражасини билиш орқали таъминлиши мумкин. Масалан, маъруза пайтида “Рентген

диагностика” мавзусига ўқитувчи томонидан талабаларга қуйидаги саволлар билан мувожаз қилиш мумкин:

Рентгеноскопия  
Рентгенография  
Флюорография  
Моммография

Компютер рентген томографияси ва бошқариш Саволлар бутун гуруҳ талабаларга берилади ва фаол бўлган талабалар жойларидан туриб жавоб беришлари мумкин. Ўқитувчи талабанинг айнан ўзига ёки бир нечта талабаларга саволлар беради. Вақтни тежаш учун саволларни иложи борича шакллантириш тавсия этилади ва аниқ жавоблар берилади.

Давра суҳбати усулининг асосида тиббиёт физикаси курсида ўрганилган муаммоларни жамоавий муҳокама қилиш принципи ётади. Бундай дарсларнинг асосий мақсади талабаларга имконият беришдир, касбий фаолият шакллари рағбатлантирадиган шароитларда назарий билимлардан амалий фойдаланишдан иборат. Бундай маъруза бўлажак мутахассиснинг касбий ваколатини шакллантирилишига имкон беради.

Билимлардан профессионал фойдаланиш — бу фан тилини эркин эгаллаши, раволик, тарифлар, тушунчалар билан аниқ амаллар ўтказишдан иборат.

Рентген диагностикаси мавзусини ўрганишда юқоридаги усулдан фойдаланиш Олий таълим муассаслари талабаларнинг билим фаоллигини, уларнинг ўрганилаётган физик ҳодисани чуқурроқ англаш учун мотивациясини янада оширади, мавзу бўйича қўшимча маълумотлар олиш, ўқишни ижодий жараёнга айлантирган ҳолда изланишларни рағбатлантиради [3-6].

Олий таълим талабаларининг қобилиятларини кейинги касбий фаолият учун асос сифатида ривожлантиради. Таълим стандартга мувофиқ маърузани ўзлаштирган битирувчи ёки мутахассистегишли ваколатлар, касбий маҳоратга эга бўлиши керак [7]:

- далилий тиббиётга асосланган тиббий маълумотларни таҳлил қилиш ва оммавий равишда намойиш этишга тайёрлиги;

- илмий тадқиқотларда иштирок этиш қобилияти;

- соғлиқни сақлашга қаратилган янги усул ва услубларни амалга оширишда иштирок этиш истаги;

Талабаларнинг фаол амалий фаолияти турли фанларни ўрганиш жараёнида талабалар томонидан ушбу малакаларни шакллантириш самарадорлигини белгилайдиган зарур шартлардир.

Талабаларнинг амалий фаолиятини актуаллаштириш — таълим муассаслари ўқув структуралари учун мураккаб вазифа ҳисобланади. Буни ҳал қилиш учун ва талабаларнинг хусусий индивидуал ишлашлари учун моддий-техник база, етарли миқдордаги техник воситалар зарурдир. Бундан ташқари, таълим муассасалари ўқув тузилмаларининг аудитория фонди

муассасага амалий ўқув фаолиятини ташкил этишлари учун руҳсат берилиши лозим [8].

Олийтаълимда тиббий муаммоларини ҳал қилиш учун давлат томонидан белгиланадиган шартлар давлат таълим стандарти, уни ташкил этишга янги концептуал ёндашувлар зарур. Фундаментал фанларнинг илмий — тадқиқот услубияти потенциалидан фойдаланиш имконини берувчи концептуал ёндашув талабаларнинг амалий ўқув фаолиятини ташкил этишнинг, жумладан Рентген диагностика мавзусини ўрганиш асоси сифатида тақлиф этилади.

Тақлиф этилган концепсиянинг синови (апробацияси) М.Улуғбек номидаги ЎзМУ Физика факултетига Ядро физикаси кафедрасида амалга оширилди ва ушбу кафедра талабалари синовдан ўтмоқдалар. Талабалар услубий кўрсатмалардан ва кафедра ўқитувчилари томонидан тайёрланган материаллардан фойдаланадилар [9].

Тақдим этилган концептуал ёндашувнинг истиқболлиги ва потенциали шунда намён бўладики, “талаба-ўқитувчи” илмий-тадқиқот муносабатиталабаларнинг кейинги илмий ишига мувофақиятли бўлишига ёрдам беради.[5].

**Хулоса.** Кўриб чиқилган интерфаол ўқитиш усуллари, авваламбор, амалиётга йўналтирилган ўқитиш концепсиясини амалга оширишга, мутахассларни таълим дастурида белгиланган касбларини шакллантиришга имкон беради. Ўқитишнинг интерфаол шакли ва усуллари таълим жараёнига тадбиқ этиш, ўқитиш мотивацияси кўтарилади, шахсга йўналтирилган ўқитиш модели амалга оширилади. Интерфаол тарзда ўқитиш, ўзаро фикр алмашинуви билан боғлиқ билимни ривожлантиради, жамоат ишларини фаоллаштиради ва бу бўлажак мутахассисларнинг касбга оид қизиқишларини шакллантиришда зарурий ташкил этувчи бўлиб ҳисобланади. Интерфаол ўқитиш услубларини қўлланилиши интерфаол формат талабларни кўзда тутилган фанлар бўйича тайёрлаш даврида муддати узайтирилган бир қатор тадқиқот лойиҳаларида талабаларнинг узвий боғланган ва мустақил ўқув фаоллигини бирлаштириш имконини беради.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Вербицкий, А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход / А.А Вербицкий. – М.: Просвещение, 2001. – 538 с.
2. Газизова, Г.М. Использование методов интерактивного обучения как фактор успешного овладения студентами профессиональными компетенциями / Г.М. Газизова // Труды МЭЛИ. – 2008. – № 7. – С. 8.
3. Иоффе, А.Н. Активная методика – залог успеха / А.Н. Иоффе // Гражданское образование. Материал международного проекта. – СПб.: РГПУ им. А.И. Герцена, 2000. – 382 с.
4. Костенко, Н.К. Оценка уровня физических и эмоциональных нагрузок как негативных факторов для здоровья обучающихся на этапе перехода из средней школы в систему высшего образования: мат. 89-й Междунар. научн.-практ. конф. студентов и молодых ученых «Теоретические и практические аспекты современной медицины» / Н.К. Костенко, Б.Л. Бессонов. – Симферополь, 2017. – С. 217–219.
5. S.S.X. Umarov, E.X. Bozorov, O.I. Jabborova Tibbiy texnika va yangi tibbiy texnologiyalar ; - Toshkent; "Iqtisod-Moliya", 2019.-216 b.
6. Масалков, И.К. Стратегия кейс-стади: методология исследования преподавания: учебник для вузов / И.К. Масалков, М.В. Семина. – М.: Академический проект; Альма Матер, 2011. – 443 с.
7. Пронина, Н.В. Исследование функционального состояния скелетных мышц методом динамометрии / Н.В. Пронина // Исследование функционального состояния скелетных мышц методом динамометрии: методические указания и задания к лабораторной работе по дисциплине «Физика, математика» для студентов медицинских и фармацевтических специальностей. – Симферополь, 2016. – 12 с.
8. Шодиев Н.Ш. Янги педагогик технологиялар (маърузаларматни). Самарқанд, 2010.
9. Ўзбекистон Республикаси «Таълимтўғрисида» қонун – [Тошкент](#), 1997.



UDK: 808.5

*Mavjuda BURXONOVA,*  
Toshkent viloyati ChDPI o'qituvchisi  
E-mail: [burxanovamavjuda@gmail.com](mailto:burxanovamavjuda@gmail.com)  
SamDCHTI dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD) D.M.Begmatova taqrizi asosida

### CONFLICTS IN MODERN FAMILIES: A SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Abstract

**Хулоса ва таклифлар.** Ўзбекистонда, шунингдек, ижтимоий тарғибнинг замонавий шакли бўлган ҳамда ривожланган давлатлар амалиётида ўзига хос анъана сифатида шаклланган “book challenge” Ўзбекистонда давлат сиёсати даражасида амалга оширилмоқда. Хусусан, республика Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ташаббуси билан юқори ва ўрта бўғин лавозимдаги мансабдор шахслари, конунчилик, суд ва ижро органлари, санъат ва маданият соҳасининг вакиллари, талабалар иштирок этаётган “book challenge” доирасида умумий ўрта таълим мактаблари, “Болалар уйлари”га бадиий, илмий-оммабоп ва ўқув адабиётларини етказиб бериш йўлга қўйилди.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф. дис... канд. наук. культурологии. – Челябинск: 2017. – 27 с.
2. Дунн Дж. Детское чтение в Великобритании: обзор существующих тенденций // Детское чтение: Феномен и традиция в конце XX столетия: материалы Междунар. конф. СПб., 1999. Ч. 1. С. 146-151.
3. Накамура Ю. Обзор библиотечного обслуживания детей и юношества в Японии // Библиотечное обслуживание молодежи в Японии, России и США. М.: РШБА, 2013. С. 3-22.
4. Ковалевская Н. И., Петрова Л. И. Влияние видеокультуры на читательские предпочтения детей и подростков // Труды БГТУ. 2017. № 2: Издат. дело и полиграфия. С. 108-116.
5. Библиотечное обслуживание детей за рубежом: опыт, инновации, источники информации / сост.: В. П. Чудинова, К. О. Чудинова // Российская государственная детская библиотека. М., 2011. 102 с.
6. ELINET — European Literacy Policy Network [Электронный ресурс]. URL: [www.eaea.org/en/projects/partner-projects/elinet.html](http://www.eaea.org/en/projects/partner-projects/elinet.html) (дата обращения: 12.12.2018).
7. Inspiring young readers through digital and printed resources [Электронный ресурс]. URL: [www.bookaid.org/2016/08/17/inspiring-youngreaders-digital-printed-resources](http://www.bookaid.org/2016/08/17/inspiring-youngreaders-digital-printed-resources) (дата обращения: 12.11.2018).
8. Libraries Deliver: Ambition for Public Libraries in England 2016-2021 [Электронный ресурс]. URL: [www.gov.uk/government/consultations/libraries-deliver-ambition-for-public-libraries-in-england-2016-2021](http://www.gov.uk/government/consultations/libraries-deliver-ambition-for-public-libraries-in-england-2016-2021) (дата обращения: 15.12.2018).
9. Nowa era czytelnictwa. Przeczytamy cała księzkę w niewiele ponad godzinę? [Электронный ресурс]. URL: <http://booknews.pl/?p=411> (дата обращения: 07.10.2015).
10. Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3271-сон Қарори. 2017 йил 13 сентябрь.
11. Болаларсиз” болалар кутубхонаси // <https://kun.uz/news/2019/01/21/bolalarsiz-bolalar-kutubxonasi>.



UDK: 372.881.

*Ozoda MUXAMMEDOVA,*  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi*  
*E-mail: axtamovna777@gmail.com*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti Jo'rayev A. X. taqrizi asosida*

### TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILINI O'QITISH KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolamizda tibbiy OTM talabalarining rus tilida muloqotga kirishishi, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ma'lumotlarni tez va samarali usullar orqali sifatli o'zlashtirish ko'nikmalari hamda qobiliyatlarini har taraflama rivojlantirish metodlarining ma'lum usullarini ko'rib chiqamiz. Ayniqsa, tibbiyot sohasiga oid rus tilidagi zamonaviy adabiyotlardan foydalanish, xalqaro ommaviy axborot vositalari orqali o'z fikrini bayon eta olish, tibbiyot yo'nalishidagi rus tilida chop etilgan adabiyotlardan foydalanish tibbiy OTM talabalarini yanada chuqur bilim olib, o'z ustida ishlashga o'rgatish usullarini tahlil qilamiz, hamda bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini rus tilida muloqotga tayyorlashning kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini qayd etib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, integrallashgan yondashuv, o'qish va tinglab tushunish, terminologik leksika, kasbiy rolli o'yinlar, ijodiy fikrlash, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, modellashtirish, suhbat, so'rovnomalar, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil.

### ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНСИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ

Annotatsiya

V danoy statye my rassmotrim sposoby obshcheniya studentov meditsinskix vuzov na russkom yazyke, metody vsestoronnego razvitiya navykov i umeniy bystro i kachestvenno usvaivat informatsiyu na osnove novyx sovremennykh tekhnologiy. V chastnosti, ispolzovaniye sovremennoy russkoy literatury v oblasti meditsiny, vozmozhnost vyrajat svoi vzglyady cherez mejdunarodnyye SMI, ispolzovaniye russkoy literatury v oblasti meditsiny dlya obucheniya studentov-medikov uglublyat svoi znaniya i rabotat nad soboy. proanaliziruyem metody podgotovki, otmetim vajnost razvitiya kommunikativnykh kompetensiy pri podgotovke budushix meditsinskix rabotnikov k obshcheniyu na russkom yazyke.

**Klyuchevyye slova:** kommunikativnaya kompetentnost, kompleksnyy podxod, chteniye i audirovaniye, terminologicheskaya leksika, professionalnyye rolevyye igrы, obraznoye myshleniye, sravnitelnyy analiz, pedagogicheskoye nablyudeniye, pedagogicheskiy opyt, modelirovaniye, intervyyu, anketirovaniye, pedagogicheskiy eksperiment, matematiko-statisticheskiy analiz.

### PRINCIPLES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In this article we will consider the methods of communication of students of medical universities in Russian, the methods of comprehensive development of skills and abilities to quickly and efficiently acquire information on the basis of new modern technologies. In particular, the use of modern Russian literature in the field of medicine, the ability to express their views through the international media, the use of Russian literature in the field of medicine to teach medical students to deepen their knowledge and work on themselves. We will analyze the methods of preparation, and note the importance of developing communicative competencies in preparing future medical professionals for communication in Russian.

**Keywords:** communicative competence, integrated approach, reading and listening comprehension, terminological vocabulary, professional role-playing games, creative thinking, comparative analysis, pedagogical observation, pedagogical experience, modeling, interviews, questionnaires, pedagogical experiment, mathematical-statistical analysis.

**Kirish.** Zamonamizning muhim shartlaridan biri bo'lgan fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar ta'lim sohasi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Shu bilan birga Oliy ta'lim muassasalarida har bir shaxs egallashi zarur bo'lgan rus tili faniga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu jihatdan tibbiy ta'lim yo'nalishlari talabalarida rus tilini o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalaridan samarali foydalanish metodlari, nutqiy malakalarni rivojlantirish va uni zamonaviy ta'lim talablariga mosligini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Yurt boshimiz Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzalarida ta'kidlab

o'tganidek, "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari puxta egallashlarini ta'minlash doimiy ustivor vazifamiz bo'lib qoladi"- deya ta'kidlab o'tgandilar.

Tibbiy OTM talabalarining rus tilida muloqotda kirishishi, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ma'lumotlarni tez va samarali usullar orqali sifatli o'zlashtirish ko'nikmalari hamda qobiliyatlarini har taraflama rivojlantirish zarurati muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Respublikamizda rus tilini o'qitishda integrallashgan yondashuv asosiy o'rin egallamoqda. Ayniqsa, tibbiyot sohasiga oid rus tilidagi zamonaviy adabiyotlardan

foydalanish, xalqaro ommaviy axborot vositalari orqali o'z fikrini bayon eta olish, tibbiyot yo'nalishidagi rus tilida chop etilgan adabiyotlardan foydalanish tibbiy OTM talabalarini yanada chuqur bilim olib, o'z ustida ishlashga undaydi. Shu sababli bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini rus tilida muloqotga tayyorlashning kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday jamiyatda hayotiy faoliyat jarayoni va rivojlanish jarayoni kabi talabalarning rus tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ham axborot olish qayta ishlash va boshqarish bilan bog'liqdir. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi esa bir qator omillarga bog'liqdir. Ularning eng asosiy rus tilida muloqot o'rnatib zaruriy axborotni olish va uzatishni ta'minlashdir. Shunda haqqoniy axborot almashinuv sodir bo'ladi. Bunda esa kommunikativ kompetensiyani egallash orqali erishiladi. Bunda tibbiyot OTM talabalarini kasbiy yo'nalishidan kelib chiqib matnlarni o'qish va tinglab tushunishni yo'lga qo'yadi. Mavzuga oid topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarib, muloqotdoshi bilan rus tilida kommunikativ aloqani o'rnatishga erishadi. Muloqot paytida asosiy leksik birliklar tibbiyot ilmiga xos bo'ladi. Shu sababli talabalarning rus tilidagi mashg'ulotlarida asosan terminologik leksikani bilishi zarur bo'ladi. Rus tilini o'qitishda komputerdan o'rinni foydalanishni, ta'limni kasbiy yo'naltirganlik prinsipini amalga oshirish yo'llari hamda zarur shart sharoitlarni yaratish muammosiga alohida to'xtalish rejalashtirilgan. Talabalar bilan kasbiy rolli o'yinlar rejalashtirilgan bo'lib, bundan asosiy maqsad talabalarni o'quv jarayonida faollashtirish, rus tilini o'rganishga nisbatan motivatsiyani shakllantirishdir. Bunday o'yinlarni tibbiy kasbiy muloqotga tadbiiq qilib, kommunikativ muloqotni yanada rivojlantirishiga zamin yaratiladi. Kasbga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llanilishi talabalar bilan ishlash sifat darajasini aniqlab beradi. Rus tilini o'rganishga bo'lgan munosabat qisman barqaror bo'lganligi sababli uni ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadga muvofiqdir.

#### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Mamlakatimizda keyingi yillarda talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, xorijiy til o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash

ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borilgan. Ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanayotganligini hisobga olgan holda, ta'lim tizimida chet tillarni, ayniqsa ingliz va rus tillarni o'rgatishda qo'llanilayotgan innovatsion metodlarni ishlab chiqish hamda ularni hayotga tadbiiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, modellashtirish, suhbat, test, so'rovnomalar, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil metodlari umumlashtirish usullaridan, tibbiyotga oid rus tili adabiyotlari va qo'llanmalaridan, kommunikativ kompetensiyalarni tarkib toptirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalardan, shakllantirishga qaratilgan uslubiy metodlardan foydalaniladi.

**Tahlil va natijalar.** Rus tili adabiyoti va o'quv qo'llanmalari orqali tibbiyot OTM talabalarida kommunikativ hamda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini yaratilishi, bo'lajak tibbiyot xodimlarining rus tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish modelini innovatsion lingvotexnologik yondashuv asosida ishlab chiqarish; kasbga yo'naltirilgan rus tilini o'rgatish loyihasini intensiv metodlar vositasida takomillashtirish va tibbiy kontekstni tushunish bilan bo'liq metodik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish; tibbiyot OTM talabalarining rus tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan tibbiyotga oid rus va o'zbek tillaridagi lug'atini ishlab chiqish.

**Xulosa va takliflar.** Oliy ta'lim muassasalari oldidagi kelajak kasbiy faoliyati uchun tegishli kompetensiyalarni egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifa sifatida qo'yilgan. Shu bilan birga mamlakatlar orasida ijtimoiy-siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va boshqa munosabatlar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda tibbiyot oliygohi talabalarining rus tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida talabalarning rus tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga imkon beruvchi metodlarni ishlab chiqarish, turli mavzudagi o'quv materiallarini tayyorlash samarali natijalarni beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari [va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari](#).
2. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y. 200-b.
3. Выготский Л. С. Педагогическая психология. –M.: 1996 g.
4. Mavlonova R.A., Arabova M., Salohiddinova G'. Pedagogik texnologiya. –T: "Fan" nashriyoti. 2008 yil.
5. Tokareva V.A. Voprosy psixologii formirovaniya vernosti obshchestvennomu dolgu u mladshix podrostkov: Dis. kand. Ped. Nauk. – Tashkent.
6. Usmanova E.Z. Motivatsionnaya emosionalnaya regulyatsiya myshleniya v usloviyax intellektualnogo konflikta. – Tashkent: "O'qituvchi", 1993. – 104
7. Fayzullayev A.A. Motivatsionnaya samoregulyatsiya lichnosti. – Tashkent: Fan, 1987.



UDK: 371.01 371.015

*Dilovar NEGMATOVA,*  
*Samarqand davlat universiteti assistenti*  
*E-mail: [negmatova\\_dilovar@gmail.com](mailto:negmatova_dilovar@gmail.com)*  
*O'zMU Sotsiologiya kafedrasi professori K.Kalonov taqrizi asosida*

#### FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF THE NEIGHBORHOOD INSTITUTE IN UZBEKISTAN

Abstract

In this article, information about the place of residence-family, which is the main link of society, as well as the role of self-government institutions of citizens in the formation of mutual spiritual and moral relations between parents and children, that is, the neighborhood system. A brief idea was made about the extent of mutual cooperation on the basis of community – family – neighborhood concession, its effect today, as a result of the reforms carried out in the neighborhood system, the powers and opportunities of this social institution are increasing.

**Key words:** state, society, family, neighborhood, citizen, politics, social life, Law, development, template, development, authority, reform.

#### ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье представлена информация о роли махаллинской системы-основного звена общества-семьи, а также институтов самоуправления граждан в формировании в ней духовно-нравственных отношений между родителями и детьми. Было кратко рассмотрено, как взаимодействие на основе концепции “общество – семья – махалля” сегодня показывает свою эффективность, расширяются полномочия и возможности данного социального института в результате проводимых реформ в системе махалли.

**Ключевые слова:** государство, общество, семья, район, гражданин, политика, социальная жизнь, закон, прогресс, шаблон, развитие, авторитет, реформа.

#### O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING RIVOJLANTRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan maskan-oila, hamda unda ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro ma'naviy, axloqiy munosabatlarni shakllantirishda fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish institutlari ya'ni mahalla tizimining o'rni haqida ma'lumot keltirilgan. Jamiyat – oila – mahalla konsepsiyasi asosidagi o'zaro hamkorlik bugungi kunda o'z samarasi qay tarzda namoyon qilayotganligi, mahalla tizimida olib borilgan islohotlar natijasida bugungi kunda mazkur ijtimoiy institutning vakolat va imkoniyatlarining kengayib borayotganligi haqida qisqacha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, jamiyat, oila, mahalla, fuqaro, siyosat, ijtimoiy hayot, qonun, taraqqiyot, andoza, rivojlanish, vakolat, islohot.

**Kirish.** Har bir jamiyatning eng kichik hujayrasi va muqaddas dargohlaridan biri – bu oila. Jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy, hamda tarbiyaviy taraqqiyot negizi ham albatta, oiladir. Azaldan xalqimizda oilani qadrlash, uning mustahkamligini ta'minlash ham diniy, ham qonuniy amallardan biri bo'lib kelgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas – kuch” asarida oilaga shunday ta'rif bergan: “Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu va orzu intilishlar bilan yashaydi [1]. Oilaviy qadriyatlarga tayanuvchi har qanday mamlakatning ijtimoiy hayoti, tarbiyaviy muhiti oilaga bog'liq bo'lib farzand tarbiyasi dastlab oilada shakllantiriladi va jamiyatda namoyon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Oilada ota-ona va farzand munosabatlarining barkamol bo'lishi haqida A.Fitrat “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” nomli asarida quyidagi ta'kidni ilgari suradi: “Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi” [2]. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan oila institutini mustahkamlashning muhim vositasi bo'lmish “Mahalla” tashkil etildi va bir qancha vazifalar yuklatildi.

Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri asarida Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi.[3]. Tarixdan ma'lumki, butun bir jamiyat yoki davlatning negizini fuqarolar tashkil etadi. Har bir davlatning mustahkam strukturaga, izchil taraqqiy etishiga hamda butunjahonda o'z o'rni va qudratiga ega bo'lishida hokimiyat vakillarining olib boradigan mukammal siyosati va xalq, ya'ni fuqarolar bilan o'zaro hamkorligining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etuvchi oliy qadriyat darajasiga ko'tarilishi sababli amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, bugungi tez suratlarda yanada rivoj topayotgan va uchinchi renessansga qadam qo'ygan mamlakatimizda ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, ta'kid o'stada fuqaro va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik natijasida ulkan yutuqlarga erishmoqda desak adashmaymiz.[4,16.] Mamlakatimizda xalqni davlat bilan hamkorligini ta'minlash maqsadida ko'lab tashkilot, muassasa, markaz, kengash va shu jumladan fuqarolarni o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy institut ya'ni mahalla tizimi ham o'z

faoliyatini olib bormoqda. To'g'ri, mahalla tizimi azaliy mavjud bo'lgan va xalqimiz uchun bu tizim yangilik emas, lekin mazkur tashkilot mustaqillikdan so'ng mahalla institutini yanada rivojlantirishga va uning vakolatlarini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilgan holda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvchi davlat organi sifatida takomillashuviga imkoniyatlar yaratildi va bugungi kunda ham mahallaning mavqeini avvalgidanda rivojlanishiga yo'naltirilgan oqilona siyosat va tub islohotlarning olib borilishi natijasida butunjahon uchun andoza tariqasida tobora mukammallashtirilayotgan ijtimoiy institut sifatida o'z faoliyatini olib bormoqda. Fuqarolarni o'zini o'zi boshqaruvchi mahalla ijtimoiy institutlarida jamoatchilik fikrining inobatga olinishi, ularni amalga oshirishda birdamlik ko'rsatishning o'ziga mos shakllarini ishlab chiqishi, hamda xalqning ma'naviyatini, milliy o'zligini, qadriyatlarini, bir-biriga bo'lgan hurmat, odob-axloq, o'zaro iliqlik kayfiyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yuksak mavqega erishmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi kunda mahalla institutining zimmasiga yuksak vazifalar yuklatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida. Shaharcha, qishloq va ovullarda shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni (oqsoqolni) saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.[5,B,60.]. Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi ya'ni mahallaning huquqiy maqomi bayon etilishi va shu xususida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratilishi mahallalarga jamiyatimiz va davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligi yorqin dalildir. 2013 yil 28 martda Oliy Majlis Senati ma'qullagan yangi tahrirdagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunga 2017 yil 14-sentyabrda bir qancha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Yangi tahrirdagi qonunda fuqarolar yig'inlari faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari mustahkamlandi. Jumladan, unda:

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi;

bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, yolg'iz pensionerlar va nogironlarni aniqlashi;

o'z hududida yashovchi fuqarolarning bandligini ta'minlashga ko'maklashishi bilan bog'liq normalar belgilangan.[6]

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi yangi tahrir qonunining 18-moddasiga muvofiq fuqarolar yig'inlarida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiya tuziladi. Mazkur komissiyalar quyidagilardan iborat:

1. Yarashtirish komissiyasi;

2. Ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;

3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;

4. Xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;

5. Voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;

6. Tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya;

8. Jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya.

**Tahlil va natijalar.** Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Andijon viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida, quyidagi fikrlarni ilgari surdi: Biz hayotda o'zini to'la oqlagan "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun"

degan tamoyildan kelib chiqqan holda, ijtimoiy sohadagi islohotlarni, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish yo'lini davom ettiramiz. Ya'ni taraqqiyotning "o'zbek modeli" tarkibidagi mashhur besh tamoyildan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish prinsipiga qat'iy amal qilamiz. [7,B,21.]. Ma'lumki hozirgi kunda jahon andozalari asosida taraqqiyolashib borayotgan mamlakatimizning har qanday sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy sohada olib borilgan islohotlar ya'ni, mahalla-fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish instituti sifatida ko'plab vakolatlariga ega bo'lib, bular:

tadbirkorlik faoliyatini shakllantirmoqchi bo'lgan, tegishli hududda yashovchi fuqarolarga iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, tadbirkorlik faoliyati va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslarini o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil etadi, shuningdek, ularga tadbirkorlik subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalar haqida ma'lumot berishi,

bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasa va tashkilotlar, shuningdek, hunarmandlarga birlashtirilishiga ko'maklashishi;

tegishli hududdagi tadbirkorlik subyektlariga, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik sub'ektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishda, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kredit olish uchun hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashishi belgilangan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek, Mahalla institutining joylarda xalqning maslakdoshi va ko'makdoshiga, adolat tarozisiga aylanishi, hech shubhasiz odamlarning davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. 2020-yilning 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish to'g'risida o'tkazgan yig'ilishida Mahalla va oila masalalari vazirligini tashkil qilish taklifini bildirdi. Yangi vazirlik 40 mingdan ortiq xodimni birlashtirdi. Prezident mahalla raisi maqomi kuchaytirilishi hamda 5 yilga tayinlanishi haqida ham gapirib o'tdi. Mahalla tizimidagi kamchiliklar tanqid qilindi, mahalla idoralari moddiy tomondan mustahkamlandi, mahalla fuqarolari zimmasiga 200 dan ortiq vazifa yuklangan. Mahalla institutining jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 22-mart – "Mahalla tizimi xodimlari kuni" deb e'lon qilindi. [8] Prezident Sh.Mirziyoyev Yangi yil munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida jamoatchilik fikrini o'rgangan holda 2022-yilni mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili", - deb e'lon qilindi. Bundan ko'rinib turibdiki jamiyatdagi har bir insonning qadr-qiyamati siyosat darajasiga ko'tarilishi, uning manfaatlari va huquqlari har tomonlama himoya qilinishi va mahalla bilan o'zaro munosabatlarning yanada mustahkam bo'lishiga imkoniyat eshiklari ochildi. Ta'bir joizki oila barkamol bo'lsa, mahalla tinch va farovon bo'ladi, davlat taraqqiyot sari odimlayveradi.

**Xulosa va takliflar.** Birinchidan. Davlat va oila o'rtasidagi uzviy aloqalarni, ya'ni mukammal kelajakni shakllantirishda, oila institutlarining ahamiyati qay darajada katta ekanligini anglashimiz va jamiyatda voyaga yetayotgan avlodning aql-zakovati, axloqi, ta'lim-tarbiyasi, ruhiyati muhim ahamiyat kasb etishini idrok qila olishimiz zarur.

Ikkinchidan. Kelajak bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning xalq va davlat o'rtasidagi munosabatlarga o'zaro vositachi bo'lgan mahalla ijtimoiy institutining imkoniyatlaridan to'laonli foydalangan holda oila, jamiyat, yurt uchun mahalla ishida doimiy faol bo'lishi, hamda ta'lim tizimi va mahallaning hamkorligini ta'minlashda turli xil amaliy mashg'ulot, trening va tadbirlarni o'tkazishda

qatnashishlari mahallaning rivoji uchun ishlab chiqilgan strukturaning samarali isloh qilinishida muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan yoshlar doimo izlanishda va harakatda bo'lishi lozim.

Uchinchidan. Ijtimoiy hayotimizda mahallaning rolini oshirib, uning vakolatlaridan foydalangan holda

mamlakatimizda kambag'allikka barham berish, hamda aholini ishga layoqatli qatlamini ish bilan ta'minlashda fuqarolar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilsa o'zaro kelishuv ostida har bir mahallada ishsizlikni bartaraf etish va yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish mumkin bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2008. - B.108.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2008. - B.8.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: “Xalq merosi”, 1993. - B.224.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2017. - B.47.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2019. - B. 75.
6. O'zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida” gi Qonuni (yangi tahrir) II bob, 11-modda. – Toshkent.: 2013.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2016. - B. 54.
8. <https://xs.uz/uz/post/22-mart-mahalla-tizimi-khodimlari-kuni-deb-elon-qilindi>



*Manzura NORQO'ZIYEVA,*  
JDPI o'qituvchisi  
E-mail: [nmanzura@bk.ru](mailto:nmanzura@bk.ru)

*O'zMU Jizzax filiali professori, p.f.n. Salahdin Usmanov taqrizi asosida*

## THE IMPORTANCE OF SHAPING THE PROFESSIONAL STABILITY OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

Abstract

One of the main requirements of our society to higher education institutions is to train highly qualified professionals who are masters of their profession. The article discusses the essence, mechanisms, advantages and importance of the formation of professional stability of students in higher education institutions. The concept of professional stability is important in preparing university students for the future. The article covers the history of the concept of professional stability and the views of foreign scholars on the subject.

**Keywords:** education, higher education, professional stability, vocational training, professional orientation, professional self-determination, professional adaptation, professional development.

## OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA TALABALARNING KASBIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI

Annotatsiya

Jamiyatimizning oliy ta'lim muassasalariga nisbatan qo'yayotgan asosiy talablaridan biri o'z kasbining ustasi bo'lgan kasbiy yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlab yetkazishdir. Maqolada aynan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy barqarorligini shakllantirishning mohiyati, mexanizmlari, afzalliklari va ahamiyati haqida so'z boradi. Oliy ta'lim muassasalarining talabalarini kelgusi hayotga tayyorlashda kasbiy barqarorlik tushunchasi muhim ahamiyatga egadir. Maqolada kasbiy barqarorlik tushunchasi tarixi va bu boradagi xorijlik olimlarning fikr-mulohazalari asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, oliy ta'lim, kasbiy barqarorlik, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy yo'nalish, kasbiy o'zini o'zi belgilash, kasbiy moslashuv, kasbiy rivojlanish.

## ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ.

Аннотация

Одним из основных требований нашего общества к высшим учебным заведениям является подготовка высококвалифицированных специалистов, мастеров своего дела. В статье рассматриваются сущность, механизмы, преимущества и значение формирования профессиональной устойчивости студентов в высших учебных заведениях. Понятие профессиональной стабильности имеет важное значение в подготовке студентов вуза к будущему. Статья посвящена истории возникновения понятия профессиональной стабильности и взглядам зарубежных ученых на эту тему.

**Ключевые слова:** образование, высшее образование, профессиональная устойчивость, профессиональная готовность, профессиональная направленность, профессиональное самоопределение, профессиональная адаптация, профессиональное становление.

**Kirish.** Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlarning aksariyat qismi yoshlarimiz va ularning kelajakda davlatimiz taraqqiyotiga xizmat qilishida yetuk kadr bo'lib yetishishi uchun yo'naltirilmoqda. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning yoshlarimizga va oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatiga bo'lgan e'tibori qonunchilikda ham o'z aksini topgan. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori qabul qilingan[2].

Oliy ta'lim muassasalarida yoshlar uchun yetuk xayotga tayyorlov bosqichidir. Kasbiy barqarorlikni yoshlarga aynan oliy ta'lim tizimida shakllantirish uchun eng qulay davrlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davr yoshlar uchun kelgusi hayotga va kasb muhitiga adaptatsiya jarayoni uchun qulay davrlardan biridir. Oliy ta'lim muassasalarida ishlovchi professor-o'qituvchilari uchun ushbu vazifa alohida ma'suliyat talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Kasbiy barqarorlik tushunchasi va uning mexanizmlari bilan ilm-fan tarixida K.K. Platonov, E.M. Kovalchuk, Z.K. Kargieva, I.N. Dimura, T.V. Osadchey, V.E. Penkov, D.T. Xatsaeva kabi pedagog va psixologlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan. Umumiy olganda, kasb barqarorligi muammosi XX-asrning oltmishinchi yillari oxiridan boshlab pedagogika-psixologiya fanlarining asosiy muammolaridan biriga aylanadi[6, 197 b.]. Kasbiy barqarorlik tushunchasini pedagogika-psixologiya fanlariga birinchilardan bo'lib rus pedagogi K. K. Platonov

kiritgan. U kasb barqarorligini shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida ko'rib, unda kasbiy yo'nalishning intensivligi, samaradorligi va barqarorligi namoyon bo'ladi deya tarif bergan. K.K.Platonov fikriga ko'ra, kasbiy barqarorlik, u ishchining kasb-hunar bilan birlashishi, kasbiy faoliyat "ishchining mehnat ustunligi, ya'ni ish hayotining asosiy mazmuni"ga aylanganda xarakterlanadi[7]. Aynan kasb bilan oid nazariy bilimlar berish jarayoni bilan amaliy bilimlar jarayoni g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. Shu tariqa dastlab XX asrning oliy ta'lim muassasalaridan dastlab tibbiyot oliygohlarida bo'lajak shifokorlarda kasbiy barqarorlikni rivojlantirish maqsadida amaliy darslar jarayoni erta bosqichlardan boshlab joriy qilina boshlandi.

Boshqa bir polyak pedagogi E. M. Kovalchukning ta'kidlashicha, kasbiy barqarorlik-bu shaxsning motivlari va manfaatlarining uning ishining haqiqiy mazmuniga muvofiqligidagina namoyon bo'ladi. Agar biror kishi ushbu muvofiqlikni kuzatsa, uning kasbiy faoliyati yanada samarali va kam yo'qotishlardan iborat bo'ladi ga ega. Shu asosda, uning kasbiy barqarorligini belgilovchi shaxsning psixologik kasbiy faolligi haqida gapirish mumkin deya tarif beradi[8].

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar (L. I. Bojovich, K. A. Abulxanova-Slavskaya, E. F. Zeer, E. A. Klimov va boshqalar) turli hil yo'nalish va yondashuvlar bilan o'rganishadi. Shu bilan birga ushbu olimlar oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy barqarorlikni shakllantiruvchi va u bilan bog'liq bo'lgan "kasbiy mustaqillik", "kasbiy rivojlanish", "kasbga adaptatsiya" kabi tushunchalarni ham keng tadqiqi qilishgan. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida kasbiy barqarorlik uchun eng avvalo, talabada kasbga qiziqish, ya'nikim, kasbni o'zi mustaqil tanlay bilgani muhimdir. Shundagina talabada kasbga adaptatsiya ya'ni moslashuv professional barqarorlikni o'rganadilar. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbga adaptatsiya jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilish kabi masalalari ham XX asr pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri edi. Ushbu muammo bo'yicha ta'dqiqot ishlarini rus-ingliz pedagogika-psixologiya fani vakillari E.A.Klimov, V.I.Lebedev, A.L. Robald, V.D. Shadrikov va boshqalar olib borganlar[7].

Kasbiy adaptatsiya talabalardan professional shaxsning shakllanishi va "mehnat mavzusi – professional muhit" tizimida dinamik muvozanatni saqlab qolish samaradorligini ta'minlay oladi. Shu tartibda, kasbiy barqarorlik mehnat sub'ekting jismoniy mehnat sharoitlari, adaptatsiya jarayoni bilan o'zaro munosabatlarining bog'liqligini anglatadi.

Oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va kasbiy barqarorlikni shakllantirish muammolari bilan nafaqat xorijlik olimlar balki, Sovet davri va mustaqillik davrining ko'plab olimlari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Oliy ta'limda talabalardan haqiqiy professional shaxsni shakllantirish va bo'lajak mutaxassislarda kasbiy barqarorlikni shakllantirish bo'yicha M.A.Abdullajonova, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, X.A.Abduraxmanova, S.V.Safonovalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan[5]. Ularning har birining tadqiqotlaridagi erishilgan natijalar hozirgi kunda bu soxadagi ko'plab muammolarning yechimi bo'lib xizmat qila oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'z navbatida, pedagog-psixolog V. T. Chichikinning aytishicha, oliy ta'lim talabalarining kasbiy barqarorligi ijtimoiy munosabatlarning kasbiy sohada ijtimoiy munosabatlarni ushbu faoliyat sub'ekting funksiyalari tizimiga aylantirishning ijtimoiy me'yoriy darajasi bilan tavsiflangan ehtiyoj va qobiliyatlarga asoslangan integral ta'lim bilan shakllanadi va uning samaradorligini belgilaydi[8]. Ushbu ta'rifga asoslanib, u kasbiy barqarorlikni quyidagi komponentlardan iborat deyish mumkin:

1. faoliyat natijalariga erishish uchun ta'lim jarayonida mutaxassis tomonidan olingan professional bilimlardan foydalanishga qaratilgan axborot komponenti;

2. kasbiy faoliyat jarayonida tarkibiy qismlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga qaratilgan operatsion komponent, shuningdek, mutaxassisning kasbiy faoliyatni o'rganish jarayonida olingan ko'nikma va ko'nikmalarga asoslangan holda amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi;

3. dastlabki ikki komponentni faollashtirish va ularning o'zaro ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan motivatsion komponent.

Kasbiy barqarorlikning ikkinchi komponenti-shaxsning professional yo'nalishidir. Umuman olganda, ushbu konsepsiya turli olimlar tomonidan motivatsion sohada barcha motivlar bilan belgilanadigan professional faoliyatni rag'batlantirishning ajralmas xususiyati sifatida tushuniladi va ayniqsa, qiziqish, munosabatlar, maqsadli harakatlar va kasbiy faoliyat g'oyalari bilan ifodalanadi[3].

**Tahlil va natijalar.** Talabalarda kasbiy barqarorlikni shakllantirishda kasbga moslashish va ishni oqilona tashkil etishni amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning tipologik xususiyatlarini inobatga olishni talab qiladi. Demak, juda ko'p ilmiy ishlar kasbiy tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, o'qitishga muvaffaqiyati yondoshuvlar amalga oshiriladi.[5]

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy barqarorligini shakllantirishda muammosi kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan dolzarb bo'lib, bu borada alohida psixologik-pedagogik shart-sharoitlar va vositalar muhim rol o'ynaydi. Quyida ushbu shartlar aks etgan.

1. Talabalarining psixofiziologik xususiyatlari, psixo-emotsional holatini istalmagan hodisalarni bashorat qilish va oldini olish imkonini beradi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy barqarorligini shakllantirishda o'zini o'zi boshqarish sohasidagi psixologik va kasbiy kompetensiyasini oshirish maqsadida talabalarni tarbiyalash.

Kasbiy kompetensiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, talabalar uchun stressli vaziyatda psixo-emotsional holatni, o'z-o'zini boshqarish usullarini tanlash imkoniyati yuqori bo'ladi.

3. Pedagogik muammo paydo bo'lganda, muammoli vaziyatlarda talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan psixo-emotsional holatlarda o'z-o'zini boshqara olishida umumiy kasbiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus ijtimoiy-psixologik treninglardan foydalanishorqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash kerak[5].

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy barqarorligini ta'minlashda eng muhim jarayonlardan biri bu yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nazariy bilimlarning amaliy bilimlar bilan bog'liq holda olib borilishi o'ta muhimdir. Xar bir kasbga o'qitilayotgan talabalar uchun bu borada o'qitilayotgan fanlar va kasbning murakkablik turiga qarab, amaliy jarayonlarni turli bosqichlarda boshlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824-sonli qaroriga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimiga o'tishi munosabati bilan ham bu jarayon alohida o'rganib chiqilmoqda[8].

**Xulosa va takliflar.** Oliy ta'limda talabalarining kasbiy barqarorligini shakllantirish jarayonini muvaffaqiyatli olib borish jarayonida quyidagi xolalar dolzarb ahamiyatga egadir.

Talabalarni oliy ta'lim muassasalarida kasbiy barqarorlikni ta'minlashda bosqichma-bosqich o'tkaziladigan amaliyot jarayonlari muhimdir. Kasbiy barqarorlik tushunchasini talabalarga singdirishda komponentlarga yondoshgan holda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy barqarorlikning shakllanishida avvalambor, kasbiy qobiliyatni shakllantirish talaba uchun muhimdir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy barqarorligini ta'minlashda muhim jarayon sifatida avvalo, amaliyot

jarayonlarini kengaytirish va kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida urg'u berish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947 -son Farmoni. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari risola. –T., 2017.–70-71 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil,qat'iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. -104-105-b.
5. Sharipov Shavkat Safarovich, & Norqo'ziyeva Manzura Abduraxmonovna. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy barqarorlikni tizimli shakllantirishning nazariy asoslari. Eurasian journal of academic research, 2(3), 503–506.
6. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: Избр. психол. тр. / Л.И. Божович; Под ред. Д.И. Фельдштейна. – М.: Изд-во ин-та практ. психологии; Воронеж: НПО МОДЭК, 1997.
7. Платонов К.К. Вопросы психологии труда / К.К.Платонов. – М., 1979. С. 82-102
8. Маркова А.К. Психология профессионализма / А.К. Маркова. М. : Международный гуманитарный фонд «Знание». 1996 г. 312 с.



УДК: 371.3.004.73.151

*Parvina NURALIYEVA,*  
NDPI o'qituvchisi  
E-mail: parvinanuraliyeva5@gmail.com

*БухМТИ доценти, PhD З.П. Муродова тақризи асосида*

## TALABALAR O'QUV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotation

With the introduction of digital technologies, a person's daily life, economy and education system are changing. Digital technology is not only a tool, but also a modern environment, it also opens up new opportunities in the educational system: learning at any convenient time, continuous education, the ability to form individual educational directions, ranging from users of electronic resources, creativity. However, such an environment requires a different approach from teachers to the organization of the educational process, the acquisition of new skills and skills to work in the field of digital education. In such circumstances, the teacher's education system should ensure the training of a graduate with a high level of digital professional competence. The purpose of this article is to formulate a theoretical model of the structure of students' digital competence on the basis of the analysis of scientific and pedagogical literature, to give an idea of the possibilities and importance of digital technologies.

**Keywords:** digital economy, kompetensiya, digital kompetensiya, digital literacy, vocational education.

## РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

С внедрением цифровых технологий меняются повседневная жизнь людей, экономика и системы образования. Цифровые технологии – это не только инструмент, но и современная среда, открывающая новые возможности в системе образования: обучение в любое удобное время, непрерывное обучение, возможность формировать у пользователей электронных ресурсов индивидуальные образовательные направления, креативность. Однако такая среда требует от педагогов иного подхода к организации образовательного процесса, приобретения новых навыков и компетенций для работы в сфере цифрового образования. В таких условиях система педагогического образования должна обеспечивать подготовку выпускников с высоким уровнем цифровой профессиональной компетентности. В данной статье рассматривается формирование теоретической модели структуры цифровой компетентности студентов на основе анализа научно-педагогической литературы, взглядов на возможности и значение цифровых технологий.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, компетенции, цифровые компетенции, цифровая грамотность, профессиональное образование.

## THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF STUDENT COMPETENCY

Annotatsiya

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan insonning kundalik hayoti, iqtisodiyot va ta'lim tizimi o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat vosita, balki zamonaviy muhit bo'lib, u ta'lim tizimida ham yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda: istalgan qulay vaqtda o'rganish, uzluksiz ta'lim, elektron resurslardan foydalanuvchilardan tortib individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish qobiliyati, ijodkorlik. Biroq bunday muhit o'qituvchilardan ta'lim jarayonini tashkil etishga boshqacha yondashishni, raqamli ta'lim maydonida ishlash uchun yangi ko'nikma va malakalarni egallashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchilarning ta'lim tizimi yuqori darajadagi raqamli kasbiy kompetensiyaga ega bitiruvchini tayyorlashni ta'minlashi kerak. Ushbu maqolaning maqsadi ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida talabalarning raqamli kompetensiyasi tuzilishining nazariy modelini shakllantirish, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari va ahamiyati xususida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, kompetensiyalar, raqamli kompetensiyalar, raqamli savodxonlik, kasb-hunar ta'limi.

**Kirish.** Ta'lim sohasini raqamlashtirish sharoitida o'qituvchining kasbiy faoliyati tubdan o'zgaradi. O'qituvchi birinchi navbatda talabalarning individual va guruhli ta'lim faoliyati tashkilotchisi va motivatori, virtual va haqiqiy dunyo o'rtasida vositachi, murabbiy, ijtimoiy va professional dunyoda "navigator", turli xil raqamli avlod hayot maydonlarining "integratori" hisoblanadi [3].

Talabalarda axborotni tahlil qilish va baholash, ijodiy va tanqidiy fikrlash, real hayotdagi amaliy muammolarni hal qilishda olingan bilimlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish zarur. XIX asrning boshida rivojlangan 3 ta asosiy kompetensiya (o'qish, yozish, arifmetika), zamonaviy global jamiyat, axborot jamiyati va texnologiya ustun bo'lgan raqamli iqtisodiyot, XXI asr yoshlarida yangi

kompetensiyalarni shakllantiradi. Bunday jamiyatning fuqarosi bo'lish uchun talabalarda – tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya deb nomlanadigan asosiy kompetensiyarni egallashlari kerak. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash muammolarni hal qilishda innovatsion g'oyalarni yaratish uchun zarur shartdir. Muloqot va hamkorlik boshqa odamlar bilan samarali aloqani ta'minlaydi.

XXI asrning asosiy kompetensiyalari tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya (muloqot) dir va ular 4 ta asosiy kompetensiya sifatida tanilgan.

Tanqidiy fikrlash – odamlarni tez-tez qarama-qarshi bo'lgan ma'lumotlarning katta hajmini o'rganish, talqin qilish, baholash va tanqidiy tahlil qilishni talab qiladi. Bu ularga to'g'ri qarorlar qabul qilish va dalillarga asoslangan, bilim va

tajribaga asoslangan o'z vaqtida choralar ko'rish va turli vositalar va resurslardan foydalanish orqali muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Ijodkorlik – umumiy qabul qilingan standartlar va ramkalaridan tashqarida o'ylash qobiliyati. Ijodkorlik nazariyalari va tushunchalarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish, mavjud me'yorlarga cheklovlar qo'yimaslikdir. Bu ko'pincha innovatsion g'oyalar, yondashuvlar va yechimlar bilan bog'liq. Ularsiz, biron bir sohada taraqqiyot va rivojlanish mumkin emas.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 10 апрелдаги ПФ-5005-сонли Фармонига мувофиқ, шунингдек ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар барвақт профилактикаси ва олдини олиш бўйича фаолиятни тубдан такомиллаштириш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш бўйича фаолиятни мувофиқлаштиришнинг таъсирчан тизимини яратиш, қонун бузилишларининг олдини олиш ва уларни бартараф этишнинг замонавий ташкилий-ҳуқуқий механизмларини жорий этиш мақсадида 2017 йил 18 апрель «Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2896-сон Қарори қабул қилинди.

Сўнги йилларда содир этилган жиноятлар таҳлили жамиятда ёшларнинг оилада маданияти ва ҳуқуқий онгини ривожлантириш долзарб вазифа эканини

кўрсатиши билан бирга ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда кенг жамоатчиликнинг иштирокини таъминловчи қонун талабларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этишни тақозо қилади. Президентимиз таъкидлаганидек, жиноятчиликка қарши курашга масъул бўлган идораларнинг асосий вазифаси жиноятчини топиш ва жазолаш эмас, балки жиноят содир этилишига шароит яратган ҳолатларни аниқлаш, айниқса, тизimli муаммолар билан ишлашдан иборатдир.

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** «Тезкор-кидирув фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунида жиноятларнинг олдини олиш тезкор-кидирув фаолиятини тезкор вазифаларидан бири сифатида белгиланган [2]. Ушбу муаммони ҳал этиш тадқиқотга бўлган илмий қизиқишни белгилайди.

Маълумки, жиноятчиликнинг олдини олиш мустақил илмий муаммо сифатида XX асрнинг 60-йиллари бошларида вужудга келди. Жиноятчиликнинг олдини олиш деганда нимани тушунаси.

Жиноятларни олдини олишни ўрганувчи криминология фани ҳали жамиятни жиноятчиликдан ҳимоя қилишга қаратилган фаолиятни тушунтирувчи ягона тушунчани ишлаб чиқмаган. Масалан, жиноятларни олдини олиш бўйича қуйидаги атамаларнинг турлича тушунчалари мавжуд: «олдини олиш», «профилактика қилиш», «тўхтатиш» булар умуман жиноятчиликка нисбатан ҳам ёки аниқ жиноятларга нисбатан ҳам қўлланилади.

Қўриб чиқилаётган мавзунинг мунозарали жиҳатлардан бири бу, жиноятларни «олдини олиш», «профилактика»си ва уни ўз вақтида «тўхтатиш» тушунчаларининг бир-бирига нисбатидир.

Мазкур тушунчага ойдинлик киритиш учун юридик адабиётларга, шунингдек, олимлар томонидан

ўтказилган илмий изланишларга мурожаат қиладиган бўлсак, ҳуқуқшунос олим А.Г.Лекаръ жиноятларни “олдини олиш” атамаси жиноятларнинг профилактикаси ёки уларни тўхтатиш билан боғлиқ тушунчаларнинг умумий номланиши деб ҳисоблайди [3].

**Тадқиқот методологияси.** А.Г.Лекаръ ва Д.В.Гребелскийларнинг фикрича: мукамал тушунча сифатида қабул қилинган жиноятларни олдини олиш тушунчаси ўзига куйидаги “профилактика”, “огоҳлантириш” ва “тўхтатиш” тушунчаларини мужассам этади деб ҳисоблайдилар ва ўз навбатида профилактика икки турга яъни умумий ва яқка турдаги профилактикага бўлинади деган фикрларни илгари суришган. Улар жиноятларни “огоҳлантириш” деб жиноятни содир этишни ният қилган шахслар аниқлаш ва бундай шахсларнинг ўз ниятларини рўёбга чиқаришга йўл қўймаслик чораларини қабул қилишни назарда тутганлар [4]. Айрим манбаларда А.Г.Лекаръ жиноятни “олдини олиш” тушунчаси бу шахсга нисбатан тарбиявий таъсир чораларни кўриш деб ҳам фикр билдирган [5].

Бизнинг фикримизча, жиноятларни олдини олиш фаолиятининг мазмунини фарқлаш: биринчидан, жиноятларни содир этилишига олиб келувчи сабабларни ва уларни содир этишга қўмаклашувчи шарт-шароитларни аниқлаш ва бартараф этишга қаратилган бўлиб, уни жиноятчиликнинг олдини олиш; иккинчидан, жиноят содир этиш ниятини қилган шахсларни аниқлаш ва ушбу режаларни жиний ҳаракатларга айлантиришга йўл қўймаслик чораларини кўриш бу жиноятнинг олдини олиш; учинчидан, жиноят содир этишга тайёргарлик кўраётган шахсларни аниқлаш ва уларни тайёргарлик ҳаракатларини авж олдиришга йўл қўймаслик чораларини кўриш лозим.

Айни пайтда, бир қатор муаллифлар ушбу атамаларни фарқлашга, уларни жиноятчиликнинг олдини олиш фаолиятининг турли даражалари, йўналишлари ва турлари билан боғлашга ҳаракат қилганлар.

Мисол учун Г.А.Аванесовнинг фикрига кўра, жиноятчиликнинг олдини олиш ўз ичига, “профилактика” ва “тўхтатиш”ни олади. “Жиноятчиликни олдини олиш” тушунчаси бу жиноятни бартараф этишнинг объектив ва субъектив шарт-шароитлари, шунингдек, уни бартараф этишга қаратилган давлат ва жамиятнинг чора-тадбирлари мажмуи деб ҳисоблайди [6].

М.Н.Голодюк ва В.И.Зубковларнинг фикрига кўра, бу тушунчаларнинг фарқланиши асосиз деб ҳисоблайдилар, уларнинг фикрича “олдини олиш” тушунчаси бирор ҳодисадан огоҳлантириш ёки химоя қилувчи чора-тадбирлар мажмуини англатади; “профилактика” эса, шахсни химоя қилиш, огоҳлантириш демакдир. Огоҳлантириш, олдини олиш, қўрилган чоралар билан содир бўлган ҳолатдан олдин бирор ҳаракат қилиш демакдир. “Профилактика” атамаси юнонча “профилактикос”, яъни “химоя” сўздан келиб чиққан. Бошқача айтганда, бу терминлар, аслида, “олдини олиш”нинг асосий тушунчаси орқали тушунтирилади, яъни уларнинг барчаси бир-бирининг ўрнини босади [7].

**Таҳлил ва натижалар.** Ўтказилган тадқиқотлар, таҳлиллар натижаларини ҳамда юқорида берилган олимларнинг фикрларига қўшилган ҳолда, бизнинг фикримизча жиноятчиликни олдини олишнинг 4 та тури мавжуд булар

- 1) жиноятларнинг профилактикаси;
- 2) жиноятларни бартараф этиш;
- 3) жиноятларни тўхтатиш;
- 4) жиноят содир этган шахсни тарбиялаш.

Ушбу жиноятчиликни олдини олишнинг ҳар бири турига алоҳида тўхталиб ўтадиган бўлсак:

Жиноятларнинг профилактикаси – бу, жиноятчилик сабаблари ва унга таъсир этувчи шарт-шароитларга таъсир кўрсатади. Бу жиноятга қарши курашишнинг энг муҳим тури ҳисобланади, чунки у жиноятларни содир этишга сабаб бўлувчи криминоген омилларга бевосита таъсир этишни назарда тутди. Шу билан бирга, бу жиноятчиликка қарши курашнинг энг инсонпарвар усули ҳамдир, чунки кўп ҳолларда у жиноят йўлига киришга қодир шахсларга жиний-ҳуқуқий таъсир кўрсатишни назарда тутмайди. Бу, ҳуллас, жиноятчиликка қарши курашда умумий йўналиш бўлиб, давлат ва жамият ривожланиши учун керак бўлган йўналишдир.

Жиноятни олдини олишнинг навбатдаги тури – жиноятларни бартараф этиш, яъни уларни режалаштириш ва тайёрлаш босқичида жиноятларнинг содир этилишига йўл қўймасликдир. Бундай турдаги ҳаракатлар жиноятни содир этишни режалаштираётган шахсларга нисбатан жиний-ҳуқуқий чоралари сифатида кўп қўлланилмоқда.

Жиноятчиликнинг олдини олишнинг яна бир йўналиши-содир этилган жиноятларни тўхтатиш, яъни кейинги жиний хатти-ҳаракатларнинг олдини олишдир. Одатда, жиноятларнинг олдини олишнинг тўхтатиш чораларини қўллашда уларни содир этган шахслар жиний жавобгарликка тортилади.

Жиноятларнинг олдини олишнинг мустақил йўналиши ҳам мавжуд бўлиб, бу жиноят содир этиб жазо муддатини ўтаётган маҳкумларни «тузатиш» йўлига кириш мақсадида кўриладиган чора тадбирлардир.

**Хулоса ва тақлифлар.** Жиноятни барвақт олдини олиш жиний ҳулқ-атворга олиб келиши мумкин бўлган ташқи шароитларни ўзгартиришга қаратилган бўлади. Масалан, ўсмир улғайса ва дисфункционал оилада тарбия топса, жиноятни барвақт олдини олиш унда жиноятчи шахс қиёфасини шаклланиши мумкин бўлган шароитларга таъсир кўрсатишга уринишдан иборат бўлади. Бундай ҳолатларнинг олдини олиш қаратилган ҳаракатлар мажмуини мисолда тушунтирадиган бўлсак, айтилик, болани 3-5 ёшида унинг ота-оналарни отаналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш ва уни болалар муассасасига жойлаштириш орқали жиноятни мутлақо барвақт олдини олиш деб аташ мумкин бўлади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, жиноятчиликнинг олдини олиш-бу ижтимоий бошқарувнинг ўзига хос тури бўлиб, унинг мақсади жиний хатти-ҳаракатлар эҳтимолини камайтиришдир, бунинг учун олдини олишни амалга оширувчи субъектнинг ҳуқуқий таъсир чораларини (шу жумладан мажбурий) қўллашдир.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги” ПФ-60-сон Фармони;
2. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрдаги “Тезкор-кидирув фаолияти тўғрисида”ги 344-сон Қонунининг 4-моддаси;
3. Лекаръ А.Г. Профилактика преступлений. – М., 1972. – С.103.;
4. Харевич Д.Л. Место оперативно-розыскного предупреждения в системе предупреждения преступности // Вестник Академии МВД Республики Беларусь. – 2020. – № 2. – С.96;
5. Лекаръ А.Г. Профилактика преступлений. – М., 1972. – С.3.;
6. Аванесов Г.А. Криминология. – М., 1984. – С.339.;

7. Харевич Д.Л. Место оперативно-розыскного предупреждения в системе предупреждения преступности // Вестник Академии МВД Республики Беларусь. – 2020. – № 2. – С.97.



*Nurlan TASHIMOV,*  
TDPU dotsenti  
E-mail: [tnurlan@mail.ru](mailto:tnurlan@mail.ru)

*O'zMU Jizzax filiali professori, p.f.n. S.Usmonov taqrizi asosida*

### МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТУ ЧЕРЧЕНИЕ ГЕОМЕТРИЯ.

Аннотация

В данной статье рассматривается модель развития самостоятельной познавательной деятельности студентов в процессе обучения начертательной геометрии в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** Начертательная геометрия, самостоятельное познание, модель, качество образования, графическое образование, познавательная деятельность, знание, мысль, пространственное воображение.

### CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA TALABALARNING MUSTAQIL BILISH FAOLLIYATINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Аннотация

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari chizma geometriya fanini o'qitish jarayonida talabalarni mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish modeli yoritilgan.

**Kalit so'zlari:** Chizma geometriya, mustaqil bilish, model, ta'lim sifati, grafik ta'lim, bilish faoliyati, bilim, tafakkur, fazoviy tasavvur.

### DRAWING IS A MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT COGNITIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN THE TEACHING OF GEOMETRICS SCIENCE.

Abstract

This article discusses a model of the development of independent cognitive activity of students in the process of learning descriptive geometry in higher educational institutions.

**Keywords:** Descriptive geometry, independent cognition, model, quality of education, graphic education, cognitive activity, knowledge, thought, spatial imagination.

**Kirish.** Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, oyin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari muhim o'rin tutadi [1]. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni uchun mustaqil ta'lim mazmunini ishlab chiqish va uni tashkil etish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirish borasida ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati muhimdir. Bu grafik ta'lim mazmuni va tuzilmasini modernizatsiya qilish masalasi bilan bog'liq bo'lib, metrik va pozitsion masalalarni yechish jarayonida zarur bo'lgan ijodiy tafakkur, fazoviy tasavvur va grafik savodxonligini shakllantirishni talab etadi [2].

Oliy ta'lim jarayonida mustaqil ishlar samaradorligini oshirishning ahamiyati va dolzarbligi shundaki, chizmachilik o'qituvchilari kasbiy layoqatlilik sifatini beruvchi asosiy kurslardan biri "Chizma geometriya" fanidan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni faollashtirishning yangi yo'llarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi grafik tayyorgarligi tizimida talabalarning fazoviy tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tashabbuskor, ijodkor mutaxassis, grafik ijodkorlik bo'yicha ma'lumotlarni mustaqil o'qitish bilan biladigan va foydalanish qobiliyatli zamonaviy pedagogik kadrlar

tayyorlashda mustaqil ta'limni samaradorlashtirish yo'llari, vosita va metodlarini ishlab chiqishdir.

Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining grafikaviy tayyorgarligini takomillashtirish, xususan, ularda mustaqil ijodiy tafakkur, fazoviy tasavvur va tafakkurni shakllantirishning pedagogik shartlaridan biri – "Chizma geometriya" kursi bo'yicha auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar mazmuni, uni tashkil etish va boshqarish texnologiyasini ishlab chiqishdir [3].

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilariga chizmalarni o'qitish va bajarishga o'rgatish – zamonaviy oliy ta'limning asosiy vazifasidir.

Bu chizmalarni o'qitish va bajarish maqsadga muvofiq, ijodiy va ma'suliyatli bo'lishi zarur, albatta. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki pedagogik adabiyotlarda oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qitishi faqat o'qitish bilangina emas, balki ularning mustaqil ta'lim olishi bilan ham tavsiflanadi [4].

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda talabalarni mustaqil ta'lim olishga o'rgatish - mustaqil grafik faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish ob'ektiv zarurligi o'quv faoliyati holati bilan ta'lim oluvchilarning mazmun, metod va natijalarga ko'ra xilma - xil mustaqil o'quv ishlarni yuritishning ichki imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik ko'zga tashlanadi. U talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyati xususiyatlari, uning mohiyati, tashkil qilish printsiplari, mazmuni va metodlarini qarab chiqishga mavjud yondoshuvlarning xar xilligi bilan tavsiflanadi [5].

To'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlar muayyan xulosalar chiqarish imkonini berdi:

Talabalar	O'qituvchilar
<p>Mustaqil ta'lim olishga alohida qiziquvchanlik (motiv)ni namoyon qilmayaptilar;</p> <p>o'zlariga berilayotgan tayyor bilimlarni, o'quv axborotlarini ancha sustkashlik bilan qabul qilmoqdalar;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarida mustaqil o'quv faoliyati ko'nikma va malakalarini sayoz egallayaptilar;</p> <p>darslik materiallari va o'qituvchi so'zlari asosidagi yozuvlar (tushuntirish, hikoya, ma'ruza)ni ko'r-ko'rona o'rganadi;</p> <p>qo'shimcha bilim manbalari (doimiy ijodiy o'quv kurslarining zarurligi va bilimlarning alohida o'rin olishiga ishonitiruvchi didaktik va badiiy adabiyotlar, kishilar bilan maqsadga muvofiq muloqat va boshqalar)dan foydalana bilmaskliklar;</p> <p>o'zlashtirgan bilimlar ko'pincha reproduktiv karakter kasb etmoqda;</p> <p>o'quv faoliyati motivlari ishonchsiz, sust ifodalanmoqda.</p>	<p>- Talabalarda mustaqil ta'lim olishga ongli munosabat va faol o'quv faoliyatga intilishni shakllantirishda o'z o'quv predmeti, uni o'qitish metodikasining imkoniyatlaridan etarlicha foydalanmayaptilar;</p> <p>ko'rsatmalilik tamoyiliga rioya qilmaydilar, o'quv dasturida ko'zda tutilgan tayyor bilimlar asosida o'qitishning o'g'zaki metodlarini afzal ko'radilar;</p> <p>talabalarining mustaqil bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish, bilimlarini kengaytirish, ma'naviy dunyosini boyitish, shaxsning yuksak axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon beruvchi auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar imkoniyatlaridan kam foydalanadilar;</p> <p>mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish ko'nikma va malakalariga ega emas;</p> <p>talabalarining mustaqil o'quv faoliyatiga pedagogik rahbarlikni ahyon-ahyonda amalga oshiradilar, bunda asosan topshiriqlar berish, uning bajarilishini tekshirish va baholash bilan cheklanadi.</p>

Tadqiqotning ko'p yillik kuzatuv va izlanishlari asosida to'plangan materiallari shuni ko'rsatadiki, talabalar fan asoslaridan yangi bilimlarni izlash, topish, shu asosda o'z bilim sifatlarini oshirishga yo'naltirilgan faol mustaqil o'quv faoliyatini olib borishlari mumkin. Buning isboti quyidagi asoslardan iborat:


- fiziologik xarakterdagi asoslar: mijoz turlari, irsiyat, mintaqamiz bolalarining erta rivojlanishi;
- ruhiy xarakterdagi asoslar: qiziqish va moyillik, ruhiy jarayonlarning holati, hissiyotning faolligi va yo'nalishi;
- ijtimoiy xarakterdagi asoslar: yangi huquqiy davlatning barpo bo'lishi, jamiyatning demokratlashuvi, ijtimoiy texnik bazasining rivojlanishi, milliy o'zlikni anglash va madaniyatning yuksalishi.

Biz tadqiqot jarayonida talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatining kontseptual modelini ishlab chiqdik (1-rasm).

Bu asoslar talabalarining faol, mustaqil ijodiy o'quv faoliyatga ichki(potentsial) tayyorligini ko'rsatadi. Biroq bu ichki imkoniyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishi uchun alohida omillar zarur.

Bu omillar 4 guruhga bo'linadi:

1. Ilmiy asoslangan tavsiyalar, olimlar tomonidan taklif qilingan maxsus didaktik tadqiqotlar materiallari bilan shartlangan omillar.
2. O'qituvchi faoliyati bilan yaratilgan omillar.
3. Talabalarining ota-onalari tomonidan yaratilgan omillar.
4. Talabalarining individual xususiyatidan kelib chiqadigan omillar.



1-rasm. Talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatining kontseptual modeli.

Shunday qilib, talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati murakkab bilish jarayoni bo'lib, talabalar zaruriy aqliy qiziqishlik bilan o'rganilayotgan predmetlar, hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirishga mustaqil yondoshgan paytda o'z samarasini beradi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan ushbu bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining mustaqil ta'lim olish faoliyati modelida ularning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish texnologiyasi muhim o'rin tutadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Tashimov N., Zaitov S., Oblakulova L.. Methods of development and application in the educational process of computer technology in teaching graphic disciplines. European journal of Research and Reflection in Educational Sciences Volume 7 Number 12, 2019 Part VI .1185-1187.
2. Мурадов Ш., Ташимов Н., Рахматова И., Кукиев Б. Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. Молодой учёный международный научный журнал.2017 часть II. Ст.99-102.
3. Ташимов Н., Ташполатов Ф. Организация самостоятельной работы студентов по начертательной геометрии. Профессионально-педагогическая культура учителя и преподавателя: содержание, модели и технологии образовательной деятельности. Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции (г.Белгород, 16-17 апреля 2019 г.)
4. Tashimov N.. Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol. 17 No. I October 2019, pp. 212-214.
5. N.Tashimov, D.Alimardanova. Aktivation of Students in Homothetic Transformation. – International journal of Progressive Scince and Technologies (IJPSAT) 2020. 302-304.



Lola TUROPOVA,  
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

O'zMU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida

### OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ AMALIYOTIDA TIL O'RGANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Og'zaki va yozma nutq amaliyoti ta'limiga innovatsion pedagogik texnologiyalarning tadbiri – shaxsni jamiyatning talabaiga ko'ra yo'naltirish, ta'limni shu talablar asosida tashkil etish ta'lim tamoyillari, metodlari aloqadorligi asosida shaxsni har tomonlama yetuk kadr qilib shakllantirish, uning qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi va rivojlantirishi uchun qulay shart – sharoitlar yaratishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Leksema, leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, semantika, etimologiya, stilistika, monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya.

### THE IMPORTANCE OF LANGUAGE LEARNING IN ORAL AND WRITTEN COMMUNICATION PRACTICE

Abstract

The use of innovative pedagogical technologies in the teaching of oral and written speech practice - the orientation of the individual to the student of society, the organization of education on the basis of these requirements, the formation of the individual as a comprehensively mature cadre, creating convenience for him. conditions for them to fully express and develop their abilities and potential.

**Key words:** Lexeme, lexicography, phraseology, semantics, semantics, etymology, stylistics, monosemia, polysemy, synonymy, antonymy.

### ВАЖНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА В ПРАКТИКЕ УСТНОГО И ПИСЬМЕННОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация

Применение инновационных педагогических технологий в обучении устной и письменной речевой практике - ориентация личности на учащегося общества, организация воспитания на основе этих требований, формирование личности как всесторонне зрелого кадра, создающего благоприятные условия для того, чтобы они могли в полной мере проявить и развить свои способности и способности.

**Ключевые слова:** лексема, лексикография, фразеология, семантика, семантика, этимология, стилистика, моносемия, полисемия, синонимия, антонимия.

**Kirish.** Ta'lim jarayonida bilish, leksik tushunchalarni to'g'ri shakllantirish, o'quvchi ongida bilimlar sistemasini, o'z – o'zini nazorat qilish ko'nikmasini to'g'ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismidir.

Og'zaki va yozma nutq amaliyoti ta'limiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiriq etish, ta'lim tamoyillari va o'qitish metodlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** LEKSEMA (yunoncha lexic – so'z, ifoda) til qurilishining leksik ma'no anglatuvchi lug'aviy birligi. Leksema bildiradigan ma'no so'zning material qismi: ma'lum tovush kompleksini ma'lum ob'yektiv voqeylikka bog'lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun – mundarija.

Har qanday leksema o'zining ponemalari ifodalagan ma'nosi va grammatik xususiyatlari birligidan iborat. Bunday birlik so'z va iboralarda mavjud. Ularga nisbatan glossema, lug'aviy morfema atamaları ham ishlatiladi.

Masalan: "House" leksemaning leksik ma'nosi – The buildiy that someone libis in, yugurmoq "Fe'li" leksemasining leksik ma'nosi – "Tomove from one plake po another fast" shunga ko'ra, ular lug'aviy (semantik ma'no jihatidangina emas, balki fonetik va grammatik jihatdan ham o'rganiladi.)

Leksika (yunoncha "lexik" – so'zga oid, lug'aviy) – tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, tilning lug'at tarkibi. Leksika ma'lum qonun qoidaga buysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bu narsa (lug'at) tarkibi yangi so'zlarning paydo

bo'lishi, mavjud so'zlardan ayrimlarining eskirib, iste'moldan chiqishi, leksik ma'nosini o'zgartirib, yangi ma'no kasb etishi kabi jarayonlarda ko'rinadi.

Jamiyat tarqqiyoti va ijtimoiy tizimining o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda leksika boyib boradi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to'xtovsiz o'sib bormoqda. Lug'aviy birliklar ishlatilishi doirasi jihatdan 2 qatlamga ajratiladi:

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar. Ma'nosi shu tilda so'zlovchilar uchun tushunarli va umumqo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar umum iste'moldagi chegaralanmagan leksika sanaladi.

Ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar – til lug'at tarkibining ajralmas qismi bo'lib, uning tarkibida dialectal terminologik, kasb – hunar leksikasi, ilmiy atamalar, jarayon va atgolar, vulgarizm va varvarizmlar kiradi. Lug'aviy birliklar nutq ko'rinishlari jihatdan adabiy va so'zlashuv nutqiga xoslangan bo'ladi.

Leksika termini biror muallif yoki asar leksikasi kabi tor ma'noda ham qo'llaniladi. For example, "The Lexic of Navroz", "The Lexic of King Leer".

Leksikologiya (leksika va logiya) – tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni mustaqil holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so'z yasalishi haqidagi kabi sohalar bilan

chambarchas bog'liq. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir.

Leksikologiyada so'zlarning ma'no jihatdan o'zaro bog'langan, ya'ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so'z ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda bo'lishi ko'zda tutiladi. Leksikologiya lug'at tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, so'zlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shungdek, so'zlashuv va adabiy tillarda foydalanish me'yorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan so'z birikmalarini me'yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi. Hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi.

Leksik material deganda biz o'rganilayotgan tilning so'zlari va so'z birikmalariga aytamiz. Leksik material tilning asosini tashkil qiladi. Leksikani o'rgatishdan maqsad uni og'zaki va yozma nutqda qo'llashdir, boshqacha qilib aytganda bu yozma yoki og'zaki ravishda axborot almashishni tashkil qiladi. Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadiki, leksik materialni o'rgatmasdan turib, u yoki bu tilda nutq faoliyatining turlarini shakllantirish ham, uni rivojlantirish ham amalga oshmaydi.

Shunday qilib, u yoki bu tilning nutq faoliyati turlarini o'rgatishimizda leksikaning roli muhimdir.

Gimnaziya, kollej, akademik litseylar soni ko'payib borayotgan bir paytda, chet tilini o'rgatishdan maqsad, mazmun, shu bilan birga leksik materialni o'rgatishdan ko'zda tutilgan maqsadva mazmun ham o'zgarib bormoqda. Bir tomondan o'rta maktabdan chet tili bo'yicha o'rgatilishi lozim bo'lgan leksik minimum soni kamaytirilgan bo'lsa, gimnaziya, akademik litsey va kollejlarda o'rgatilishi lozim bo'lgan leksik so'zlarning soni oshib boradi, ya'ni ushbu o'quv yurtlarida chet tili, grammatika, leksika so'zining kengaytirilishi bilan chuqurroq o'rgatiladi. Shu bilan birga o'quv dasturida aktiv va passiv ravishda o'zlashtirilish lozim bo'lgan leksik minimumning soni, miqdori ham aniq belgilab beriladi. Leksika minimum deb u yoki bu o'quv muassasalarida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan chet tildan leksik birliklarning soniga aytiladi. Har xil tipdagi o'quv yurtlarida o'rgatiladigan leksik minimumning sonini o'qitish maqsadlari va o'qitish mazmuni bilan chegaralanadi hamda ularning soni har xil bo'ladi.

Leksik minimumni chegaralanishi yoki metodik termin bir qancha masalalar bilan bog'liqdir:

Chet tilini o'qitishning amaliy maqsadi bilan

Qanday bilim yurtida o'rgatilishi bilan

Nutq faoliyatini qaysi turlarini o'stirish bilan bog'liqdir.

Leksik minimumni tanlashda bir qancha tamoyillarga tayanamiz:

Aktiv minimumga asosan:

og'zaki nutqda ko'proq qo'llanilishi;

mavzu bo'yicha tanlash tamoyili;

boshqa so'zlar bilan bog'lana olishligi;

namunaviylik tamoyili;

sinonimlarni chiqarib tashlash tamoyili;

Passiv minimumga esa:

Yozma adabiy tilda ko'proq ishlatilishi tamoyillari;

Ko'p ma'noga ega bo'lish tamoyili;

Qo'shimchalar orqali so'z yasay olishi;

Aktiv minimum deganda nutq faoliyatining barcha, ya'ni tinglab tushunish, gapirish o'qish va yozish ishlatilishi mumkin bo'lgan leksik birlikka aytiladi.

Passiv minimum deganda, nutq faoliyatining faqat retseptiv, ya'ni tinglab tushunish va o'qish turlarida ishlatiladigan leksik birlikka aytamiz.

Har qanday leksik birlikni ikki tomoni mavjuddir:

Shakl;

Ma'no;

So'zlarning shakli ham o'z navbatida ikki xil ifodalanadi:

Tovushlar orqali;

Harflar orqali;

So'zlarning ikkala shaklida, ya'ni talaffuz yoki yozuv orqali ifodalanishida harakat qilish orqali bajariladi. Birinchisida nutq organlarining harakati orqali bajarilsa, ikkinchisida esa qo'lning harakat qilish orqali sodir bo'ladi. Ularni qabul qilishda esa birinchi shaklini eshitish orqali qabul qilinsa, ikkinchisini esa ko'rish sezgisi orqali qabul qilinadi. So'zlarni shaklini qabul qilish bilan birga uni tasavvur qilish jarayoni boshlanadi. Tasavvur qilganimizda esa ushbu so'zning tushunchasi hosil bo'ladi. O'z tomonidan tushuncha til birligi bo'lmasdan, tafakkur birligidir. Ya'ni tasavvur qilish bu atrofimizda sodir bo'layotgan voqea – hodisalarni tafakkur birliklari orqali miyamiz qobig'ida aks etilishiga aytamiz. Til bilan tafakkurni bog'liqligini hisobga olgan holda tushunchalardan so'zlarning ma'nosi kelib chiqadi. O'z navbatida ma'no esa til birligidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nutq deganda esa, I.A. Zimniyaning fikri bo'yicha – bu fikrni tafakkur birliklari orqali shakllanishi va uni qandaydir bir til tizimi yordamida ifodalanishiga aytamiz. Ma'no tushuncha bilan bog'liqdir. Ma'noni esa nutqning yozma va og'zaki shakliga qarab grafik va tovush shaklida ifodalanadi. Bundan quyidagi metodik xulosani chiqarishimiz mumkin: Fikr birligi tushuncha har xil tillarda har xil shaklda ifodalanadi. Masalan: mobile (adj) so'zi o'zbek tiliga “oson harakatlanadigan” ma'nosini beradi va bu so'z ruschada “мобильный” tarzida ifodalanadi. Bundan anglatiladiki, bitta tushuncha, bir xil ma'no har xil tillarda har xil shaklda ifodalanadi. Bu leksikaning psixologik va psixolingvistik xususiyatlariga kiradi. Bundan tashqari so'zlarni, ya'ni leksik birliklarni o'ziga xos lingvistik xususiyatlari ham mavjud.

**Tahlil va natijalar.** Leksik material ustida ishlash 3 bosqichda olib boriladi:

Leksik birlikni kiritish;

Leksik malakalarni shakllantirish;

Leksik ko'nikmalarni hosil qilish

Xulosa qilib aytganda, til grammatikasini va leksikasini o'rgatishdan asosiy maqsad ushbu tilning og'zaki va yozma nutqlarini egallashdan, ya'ni bir tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish malakalarini shakllantirish va ko'nikma sifatida rivojlantirishdan iboratdir. Shu bilan birga o'rganilayotgan tilning grammatik strukturasi yaxshi o'zlashtirib olmasdan ushbu tilda nutq hosil qilishi mumkin emas. O'quvchi gapdagi hamma so'zlarni bila turib, ular o'rtasidagi bog'lanish qoidalarini bilmasa, u gapning mazmunini tushuna olmaydi yoki noto'g'ri tushunishi mumkin.

Shuning uchun o'quvchilardan grammatik qoidalarga asoslangan holda, tog'ri so'z tartibini gaplarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirib, ularni rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqini ushbu tilda o'stirish maqsadga muvofiqdir va butun diqqat e'tiborni shunga erishishga qaratmog'imiz lozim.

Chet tillarni uzluksiz o'qitish, o'rgatish va ish faoliyatlarida ingliz tilini qo'llash maqsadida chet tillar oliy o'quv yurtlarida o'rgatiladi. Oliy o'quv yurtlarining universitetlarda, institutlarda, fakultetlarda ingliz tili o'rgatiladi. Oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'rgatish maqsad, xususiyatlari hisobga olinib ularni 2 guruhga bo'lish mumkin.

1. Chet tili – ingliz tili bo'yicha mutaxassis (bo'yicha) tayyorlovchi universitet, institut, fakultetlar.

2. Chet tili – ingliz tili bo'yicha mutaxassis tayyorlamaydigan universitet, institut, fakultetlar.

Bu 2 ta guruhda ingliz tili turli 2 ta maqsadda o'rgatiladi:

1. guruhda ingliz tilidan mutaxassis tayyorlanganligi sababli ingliz tili chuqur har tomonlama o'rgatiladi. Dastur keng chuqur tuziladi. Maxsus darsliklar asosida ingliz tili o'rgatiladi ingliz tili bo'yicha turli mavzularda leksiyalar o'tkaziladi.

Fonetika, grammatika, analitik o'qish, mustaqil o'qish, og'zaki nutq, matbuot materiallari bilan ishlash kabi aspektlarda ingliz tili chuqur o'rgatiladi, ingliz tilini kelajakda shu faoliyatda mukammal qo'llay olish talabi qo'yiladi. Fonetika, grammatika, og'zaki va yozma nutqlar, o'qish mukammal o'rgatiladi. Og'zaki nutqni erkin qo'llay olish chet elliklar bilan bemalol muloqot qilish talabi qo'yiladi. Leksika soni 6000 bo'ladi. 2 guruhdagi oliy o'quv yurtlarida ingliz tili bo'yicha kompleks maqsad ko'zda tutiladi. Student 4 maqsad asosida ingliz tilidan umum ta'lim olib, yana mutaxassisligi bo'yicha ingliz tilini kelajakda o'z ish faoliyatida qo'llashga o'rgatish maqsadi yotadi. Kasbi bo'yicha qisman muloqot qilish, mutaxassiligiga oid so'zlarni o'rganib, mutaxassiligiga oid so'zlarni o'qib tarjima qila olishga o'rgatiladi.

Xorijiy tillarning o'qitishning maqsadi talabani o'zining kelajak kasbiy faoliyatida og'zaki va yozma muloqot sifatida foydalana olishga tayyorlashdan iborat. Bu talabaga turli nutqiy faoliyatni amalga oshirish bilim va ko'nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu esa talabaga kurs tugagandan so'ng quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo'lgan axborotni topish uchun mutaxassislik bo'yicha original adabiyotni o'qish.

-Amaldagi dasturlarda ko'zda tutilgan material hajmida xorijiy tildagi og'zaki muloqotda ishtirok etish. Ushbu amaliy maqsadga erishish jarayonida ta'limiy va tarkibiy maqsadlar amalga oshiriladi. Ingliz, tilni o'rganish talabani umumta'limiy darajasini ko'tarish, dunyoqarashini kengaytirish, Vatanga sadoqatini tarbiyalash, xalqning milliy an'analari va urf – odatlari, merosini saqlash tarbiyalanishiga xizmat qilishi lozim.

-Xorijiy tillardagi gap tuzilishi va gapdagi so'zlarning tartibi to'g'risida.

-Xorijiy tillarda so'zlarning uslubiy qo'llanilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

-Xorijiy tillarning tovush xususiyatlarini bilishi, nutq tovushlari va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi:

-Xorijiy tillar sintaksisi talabalari asosida mazkur tillarda to'g'ri gap tuzilishi;

-Bog'lanishli matn tuzilishi;

-O'z sohasi doirasida shu tilda fikr ifodalay olishni bilish kerak;

Xorijiy tillar bo'yicha olgan bilimlari va hosil qilgan ko'nikmalari asosida yozma ishlar (referat, tarjima va boshqalar) ni tayyorlay olish;

ilmiy atamalarini tushunish va tildan foydalanish jarayonida qo'llash;

O'z sohasi bo'yicha xorijiy tildan ilmiy – texnik adabiyotlardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

**Xulosa va takliflar.** Davrimizning o'ziga xos jihati xisoblangan ilmiy – texnik taraqqiyot tillararo ilmiy – texnik muloqotning faollashuvini taqozo etmoqda. Tillararo muloqot xorijiy ilmiy texnik axborotni izlash va o'zlashtirishda alohida ahamiyat kasb etib, bu jarayonda yil sayin fan, texnika va madaniyatning turli sohalarini mutaxassislari ishtirok etmoqda. Bizning davrimizda xorijiy tilni ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlarda qo'llash darajasida egallanmagan muhandis yoki iqtisodchini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi. Ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Hozirgi kunda boshqa fanlar qatori Xorijiy tillarni o'rgatish, o'quvchilarni hech bo'lmasa bitta tilni mukammal o'rganishlari uchun qo'yilgan talab kuchaymoqda, chunki chet tili o'quvchi yoki talabalarni kelajakda o'z faoliyatlarini keng yo'lga qo'yish, rivojlantirish uchun asosiy vositaga aylanib qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Берман И. М. Методика обучения английскому языку М., 1965.
2. Гез. Н.И. и соавт. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. М., 1982.
3. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Тошкент, 1996. Зарипова Р. А. Чет тиллар ўқитиш методикасидан қўлланма. Тошкент, 1986.
4. Зарипова Р. А. Ўзбек ўрта мактабларида чет тилни ўқитиш методикасининг асосий йўналишлари. Тошкент, 1979.
5. Уайзер Г. М., Климентенко А. Д. Инглиз тилида оғзаки нутқни ўстириш. Тошкент, 1977.
6. Ҳошимов Ў., Ёқубов И. Ўрта мактабда инглиз тили ўқитиш методикаси. Т., 1993.
7. Ҳошимов Ў., Ёқубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси - "Шарқ", Т. 2003.



УДК: 37.012

**Юлдуз ХАЙТОВА,**  
ҚарДУ доценти, н.ф.ф.д.  
E-mail: [finaledition2@mail.ru](mailto:finaledition2@mail.ru)

ҚарДУ профессори, н.ф.д. Р.Шодиев тақризи асосида

### ОЛИЙ ТАЪЛИМДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ-КОММУНИКАТИВ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИ

Аннотация

Ушбу мақолада олий таълим жараёнида бўлажак ўқитувчилар ижодий-коммуникатив қобилиятларини ривожлантириш педагогик тизими ва бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий-коммуникатив қобилиятларини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш назарий асослари келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Ижодий-коммуникатив қобилият, тизимли; партисипатив; дискурсив, тизимли ёндашув, педагогик тизим.

### ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКО-КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ.

Аннотация

В данной статье обсуждаются теоретические основы разработки педагогической системы развития креативно-коммуникативных способностей будущих учителей в процессе высшего образования и критерии оценки креативно-коммуникативных способностей будущих учителей.

**Ключевые слова:** Творчески-коммуникативные способности, системный; партисипативный; дискурсивный, системный подход, педагогическая система.

### PEDAGOGICAL SYSTEM OF DEVELOPMENT OF CREATIVE-COMMUNICATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS IN HIGHER EDUCATION.

Annotation

In this article, the theoretical basis for the development of the pedagogical system for the development of creative-communicative abilities of future teachers in the process of higher education and the criteria for assessing the creative-communicative abilities of future teachers are discussed.

**Key words:** Creative-communicative ability, systematic; partisipative; discursive, systematic approach, pedagogical system.

**Кириш.** Педагогик тизим тизимнинг бир қисм вазияти сифатида кўрилади ва тегишли сифатларга эга шахсни камол топтиришга мақсадли йўналган ва олдиндан ўйланган педагогик таъсир кўрсатиш воситасини яратиш учун зарур ўзаро алоқадор воситалар, методлар ва жараёнлар йиғиндисини ифода этади. Қайд этиш жоиз, реаллик, ижтимоийлик, мураккаблик, очиклик, динамиклик, эҳтимоллик, мақсадга интилувчанлик ва бошқарилувчанлик педагогик тизимларнинг белгилари саналади.

Илмий изланишлар, ҳозирги методологиянинг тадқиқий потенциалини таҳлил қилиш натижасида биз талабаларда ижодий-коммуникативликни ривожлантириш муаммосини ҳал этиш учун куйидаги ёндашувларни танлаб олдик: тизимли; партисипатив; дискурсив.

Нега бу ёндашувларни танлаганимизни изоҳлаймиз. Биринчидан, тадқиқотимиздан кўзланган мақсад бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив ижодкорлигини ривожлантириш тизимини ишлаб чиқишдан иборат. Бунга эса тизимли ёндашув ғоясига таяниб эришилади. Иккинчидан, партисипатив ёндашувни қўллаш коммуникация жараёнларини тадқиқ қилишда замонавий талабларга мос келади. Учинчидан, ёндашувлар таркиби ўрганилаётган шахс сифати тури – ижодий-коммуникативликдан келиб чиқиб белгиланган.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Тизимли ёндашувнинг умумилмий асослари тадқиқотчилар

В.П.Беспалько [4], И.В.Блауберг ва бошқалар томонидан ишлаб чиқилган. А.Абдуллаев, А.Инатовлар эса таълим жараёнини такомиллаштиришда тизимли ёндашувнинг ахамиятини ўз ишларида ёритиб берганлар. Педагогик тизим тизимнинг бир қисм вазияти сифатида кўрилади ва тегишли сифатларга эга шахсни камол топтиришга мақсадли йўналган ва олдиндан ўйланган педагогик таъсир кўрсатиш воситасини яратиш учун зарур ўзаро алоқадор воситалар, методлар ва жараёнлар йиғиндисини ифода этади. Қайд этиш жоиз, реаллик, ижтимоийлик, мураккаблик, очиклик, динамиклик, эҳтимоллик, мақсадга интилувчанлик ва бошқарилувчанлик педагогик тизимларнинг белгилари саналади.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Энди ҳар бир ёндашувнинг ўзига хослигини алоҳида кўриб чиқамиз ва Мақоламизда бу ёндашувлар қандай ахамият касб этишига тўхталамиз.

“Тизимли ёндашув” деганда илмий билиш ва ижтимоий амалиёт методологиясининг йўналиши тушунилади. Унинг негизида объектларни тизимлар, деб кўриш фикри ётади.

“Тизим” тушунчаси қомусий луғатларда умумий шаклда келтирилади ва “бир-бири билан ўзаро муносабатда ва алоқада бўлган, муайян яхлитлик ва бутунликни ҳосил қилувчи элементлар мажмуаси” сифатида талқин қилинади. Қайд этиш жоиз, тизим элементлари куйидаги зарур белгилар билан

тавсифланади: уларнинг йиғиндиси атроф-муҳитдан чегараланган; элементлар ўзаро алоқадор, ўзаро таъсирлашади ва фақат бир бутунлик борлиги учун ҳам алоҳида мавжуд бўлади; яхлит ҳолида йиғинди хоссалари унинг таркибий элементлари хоссалари суммасига умумлашмайди ва улардан ажралиб чиқмайди; йиғиндининг ишлаши алоҳида элементларнинг ишлаб туришига тааллуқли эмас; юқорида санаб ўтилган хоссалар тизим ҳосил қилувчи омиллар орқали таъминланади.

Бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий-коммуникативликни ривожлантириш жараёнини ўрганишга тизимли ёндашувни қўллаш қуйидаги имкониятларни беради:

тарбияни педагогик йўналишдаги олий ўқув юртида касбий тайёргарликнинг махсус компоненти сифатида қўриб чиқиш;

ишлаб чиқиётган тизимнинг хоссаларини белгилаб олиш – бир бутунлик, бошқарувчанлик, интегративлик, мослашувчанлик, шаффофлик;

“ижодий-коммуникативлик” феноменининг компонентли таркибини аниқлаштириш; эмоционал (юмор ҳисси, ижодий мотивация, суҳбатдошни эмпатик идрок этиш, эмоционал мослашувчанлик ва лабиллик), когнитив (психологик кизиқувчанлик, интеллектуал ташаббускорлик, коммуникатив алоқаларни ўрнатишга устомонлик, суҳбатга мослашувчанлик ва оригиналлик), конатив (коммуникатив фаоллик, импровизация қилишга кодирлик, реакция билдиришнинг мустақиллиги ва адекватлиги) компонентлар;

тизим элементларини ажратиш – педагогик масалани ўртага қўйиш ва ҳал этиш учун шароит яратувчи педагогик вазият;

ташки омилини белгилаб олиш – тарбиядан мақсад, ички омил – ўз-ўзини ривожлантириш.

Шундай қилиб, тизимли ёндашув тадқиқ этилаётган феноменни ривожлантириш тизимини барпо қилиш учун мўлжалларни таъминлаб беради ва унинг умумий тузилиш хусусиятларини тақдим этади. Муаллифлик тизимини мазмунан бойитишни тавсифлаш учун тизимли ёндашувни партисипатив ёндашув билан тўлдиримиз.

**Таҳлил ва натижалар.** Бизнинг Мақоламызда партисипативлик ўрганилаётган педагогик ҳодисанинг хоссаси сифатида намоён бўлади. Ушбу сўзнинг маънолари типологик таҳлилга таянарканмиз, “партисипативлик” тушунчасидаги фарқ ва ўхшашликларни қўриб чиқамиз. Шу тариқа, инглизча «participate» сўзи қуйидаги маънони англатади: 1) умумий ҳолда – иштирок этиш; тақсимлаш; анжуманда қатнашиш; 2) спортда – мусобақаларда қатнашиш; шуғулланиш. Мазкур сўз француз тилидан ўзлаштирилган. Француз тилига эса лотин тилидан муомалага кирган: лотинчада participatio – «иштирок этишга жалб қилиш, ундаш», participare феълидан ясалган – «иштирок этмок», ўзак эса pars сўзидан ташкил топган – яъни «қисм». Аниқроқ айтганда, бевосита фаолиятнинг акценти, уни қўзғовчи мотив фаолиятнинг ўзидан ташқарида ётибди. Келтирилган этимологиядан келиб чиқиб, шундай хулоса қилиш мумкинки, «participate» этимологик сўзи «being capable of taking» – «бирор нимани қабул қилишга кодир бўлиш» деган маъноини беради.

“Партисипативлик” тушунчаси аввал бошдан бошқарув назариясида, кейинроқ эса ижтимоий фанларда қўлланган. Бошқарув назариясида у қуйидагича талқин этилади: 1) ташкилот ишчи-ходимларини уларнинг фаолият самарадорлигини ошириш мақсадида турли масалаларни ҳал этишга жалб қилиш, йўналтириш; 2) фуқаронинг барча ишларда максимал даражада иштирок

этиши мафкураси (Л.Б.Волков); 3) ишчи-ходимларни бошқарувга, муаммоларни ҳал этишга жалб қилиш (Э.А.Локке). Социал ва психологик контекст нуқтаи назаридан келиб чиқсак, партисипативлик қуйидагиларни назарда тутати: 1) шахсларнинг умумий мақсадлар, қадриятлар ва тушунча ёки дунёқарашлар асосидаги ўзаро жиқслиги, ҳамжиҳатлиги; 2) ягона атамалар ёки умумий дунёқарашни жорий қилувчи восита бўлиб, шу билан бирга умумий жиҳатни топиш ва индивидуал жиҳатни баҳолашга, турфа жиҳатга сабр билан муносабатда бўлишга қўйиб беради. Шундай қилиб, бошқарув назариясида жалб этишлик, дахлдорлик, иштирок, ҳамжиҳатлик, ўзаролик “партисипативлик” тушунчасининг муҳим характеристикалари ҳисобланади.

Таълим соҳасида “партисипативлик” ва “иштирок этиш”, “биргаликда қатнашиш”, “дахлдорлик” тушунчалари ўртасидаги тафовутга нисбатан турли нуқтаи назарлар мавжуд: улар баъзан уюшқ маъноли, баъзан тенг бўйсундирилган нуқтаи назар сифатида кўрилади. Мисол учун, Е.Б.Быстрой партисипативликни “ҳар бир талабанинг фаол иштироки”, “бошқарув жараёнида одамларнинг қатнашиши” [5], ташкилий муаммоларни ҳал этишда одамларни уюштириш усули сифатида талқин қилади. Ушбу усул “ҳар бир кишининг фаол иштироки”ни, барча қатнашчиларнинг бирга иштирок этиши ва жалб этилганини ўз ичига олади ва ўз навбатида нисбий тушунчаларнинг бир хил маъноли эканини тасдиқлайди. “Дахлдорлик” атамаси ташаббускорлик кўрсатишга асосланган гуруҳда олдиндан белгилаб берилган ролнинг инсон томонидан самарали ижро этилишини кўзда тутати.

Биз “партисипативлик” тушунчасини жуда кенг тушунча сифатида талқин қиламиз, негаки иштирок этиш бу жамоавий жавобгарлик, ҳамкорликка асосланган жамоани ташкил этиш методидир, шу билан бир вақтда партисипативлик бошқарув тамойили, мотивациялаш методи ва бошқарувга оид қарорларни таҳлил қилиш ва қабул қилиш сифатини ошириш воситаси ҳисобланади ҳамда фаолият субъектларининг фаол иштироки ва ўзини ижодий юзага чиқаришига асосланади.

Талабаларда ижодий-коммуникативликни ривожлантириш тизимини қуришга нисбатан партисипатив ёндашувни қўллаш қуйидагиларга имкон беради:

ижодий-коммуникатив тарбиясини таълим жараёни субъектларининг биргаликдаги иштироки, ўзаро хатти-ҳаракати сифатида асослаб беради;

ижодий-коммуникатив қобилиятларини ривожлантириш жараёнида бўлажак педагогларнинг фаол субъектив позициясини, яъни ўз-ўзини тарбия қилиш усулларини фаол қўллаш имконият ва заруратини белгилайди;

талабаларда коммуникатив ижодкорликни ривожлантириш тизими мазмунида тарбиянинг фаол ва интерфаол шакллари устуворлик касб этишини уқтиради.

Ҳозирги вақтда дискурсив ёндашув атропология, лингвистик, психологик, социологик, тарихий, адабиётшуносликка оид, гендерга оид ва бошқа тадқиқот ишларида фаол ишлатилмокда. Замонавий педагогика фанида эса дискурсив таҳлил, дискурс-контент методларига жуда тез-тез мурожаат қилинади. “Дискурс” ушбу ёндашувнинг бош тушунчаси саналади.

Агар кенгрок тушунтирадиган бўлсак, дискурс бу нутқ, мулоҳаза, тақдирот, матн. Т.А. ван Дейк [6] дискурсни нутқ оқими сифатида талқин қилишни тақлиф қилган. Бу оқим жамоатчилик муносабатларининг ўзига хосликлари, унинг иштирокчилар сифатларини ўз ичига олади. Булар иштирокчиларнинг индивидуал сифатларини, муҳитида оқим айланаётган коммуникатив

вазят билан алоқаларни акс эттиради. Ҳатто айтиш мумкин, дискурс ўзагига унинг иштирокчилари маданияти, шу билан биргаликда миллий маданият ва менталитетни ўзида намоён этади.

М.Стаббс дискурсниг уч асосий тавсифини аниқлаб берган:

1) дискурс ўз ҳажмига кўра гапдан устун турувчи тил бирлиги ҳисобланади;

2) мазмунли жиҳатдан дискурс социал контекстда тилни қўллаш билан бевосита боғлиқ; 3) ташкилий томондан дискурс суҳбатсиз амалга ошмайди.

**Хулоса ва таклифлар.** Шундай қилиб, дискурс анча мураккаб ва таърифлаш қийин бўлган тушунчалардан бири ҳисобланади, дискурсниг ўзини тушуниш тадқиқотчи ишлаётган муҳитдан келиб чиқиб, бир қадар ўзгаради. Мақоламизда дискурсив ёндашувдан фойдаланиш куйидагиларга имкон беради:

педагогик жараёнлар кўринишларини матнлар кўринишлари сифатида кўриб чиқиш;

матн (суҳбат)ни нутқий муносабат ҳақидаги назарий ва таҳлилий тасаввурларни ривожлантириш учун асос сифатида очиб бериш;

контекстдан келиб чиқиб ўзгарувчан (глобал, локал, ижтимоий, маданий контекст) ва табиий матн (оғзаки мулоқот)ни ҳисобга олиш;

таълим жараёни субъектлари хулқ-атворидаги дискурсларни (олам қиёфаси сифатида) ҳисобга олиш.

Бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий-коммуникатив қобилиятларини ривожлантириш тизимини ишлаб чиқишни ўз олдимизга вазифа қилиб кўяр эканмиз, биз ушбу муаммонинг турли жиҳатларига бағишланган тадқиқот ишларини таҳлил қилдик.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования / Доклады 4-й Всероссийской дистанционной августовской педагогической конференции «Обновление российской школы» (26 августа - 10 сентября 2002 г.). - <http://www.eidos.ru/conf/>
2. Хуторской А.В. Личностная ориентация образования как педагогическая инновация // Школьные технологии. 2006. - № 1. - С. 6-12
3. Хаитова Ю.С. Ижодий-коммуникативликни ривожлантиришнинг психо-педагогик аҳамияти // Мактабгача таълим: тажриба, изланиш ва истиқбол // Республика микёсида илмий-амалий конференция. – Қарши, 2020. –Б. 180-181.
4. [Хайдаров Я.Х.](#), Ш.С.Шарипов. Изобретательское творчество как фактор формирования профессионализма будущих специалистов / Приложение к журналу СПО. – 2004. № 8.
5. Ҳошимов К., Иномова М., Нишонова С., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 448 б.
6. Цукерман Г.А. Мастеров Б.М. Психология саморазвития. - М.,1995, 288 с.
В обществе воспитатель рассматривается не только как человек, обладающий навыками обеспечения эффективности образования, но и как регулятор и менеджер образовательного процесса. Как воспитатели, ответственные за воспитание гармонично развитого поколения, воспитатели могут быть примером не только своей духовно-нравственной культуры, но и демонстрировать свое педагогическое мастерство, вносить достойный вклад в воспитание гармонично развитого поколения как зрелый воспитатель. «Опухоль необходима. Тот факт, что модель педагога имеет свои навыки в обществе, не только повышает эффективность педагога, но и повышает его авторитет в обществе, а учащиеся приобретают к нему уважение.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, практические основы, интегративный подход, исследования, инновационные достижения, психологические проблемы, педагоги, воспитатели, профессиональные качества.

#### JAMIYATDA TARBIYACHI MODELINI YARATISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK ASOSLARI

Jamiyatda tarbiyachi modeli o'z mahoratiga ega bo'lgan tarbiya samaradorligini ta'minlovchi shaxs bo'libgina qolmasdan, ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi va uni boshqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachilar barkamol avlod ta'lim tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib nafaqat ma'naviy – axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi shu bilan birga pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk tarbiyachi sifatida barkamol avlod tarbiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Jamiyatda tarbiyachi modeli o'z mahoratiga ega bo'lishi tarbiya samaradorligini ta'minlovchi shaxs bo'libgina qolmasdan ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro' e'tiborini ham oshiradi, tarbiyalanuvchilarga unga nisbatan hurmat yuzga keladi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlik, amaliy asoslari, integrativ yondashuv, ilmiy-tadqiqot, innovatsion yutuqlar, psixologik masalalar, pedagog, tarbiyachilar, kasbiy sifatlar.

**Kirish.** Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili ta'lim tizimida tarbiyachilar kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida tarbiyachilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi.

Respublikamizda bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga taktik va strategik yo'nalganlikni tarbiyalash, affiliatsiya motivi asosida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish"[3] kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, integrativ yondashuv

asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiyachilarini kasbga tayyorlash, ularda zaruriy kasbiy sifatlar va ko'nikmalarini shakllantirish masalalari E.Zeer, H.Abdukarimov, A.Mamajonov, N.Muslimov, B.Rahimov, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, Sh.Sharipov, N.Shodiev, Ya.Haydarov, O.Haydarova, F.Yuzlikaevlar tomonidan tadqiq etilgan. Tarbiyachilarda pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirishning psixologik xususiyatlari Dj.Gilford, Ye.Torrens, A.Leontev, M.Davletshin, Epgash G'ozievlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda kreativ jarayon, kreativ mahsulot, kreativ shaxs va kreativ muhit kabi tushunchalarning o'ziga xos qiyosiy tahlili orqali shaxs kreativligi va ijodkorligining ijtimoiy-psixologik masalalari va psixodiagnostikasi, intellekt va pedagogik o'rtasidagi aloqadorlik masalalari o'rganilgan. Pedagog olimlardan N.Shodiev, O.Musurmonova, X.Ibragimov, Sh.Sharipov, N.Egamberdieva, Sh.Shodmonova, V.Juklina, Ye.Bezniskolarning ilmiy izlanishlarida tarbiyachilarda pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirish, kasbiy-innovatsion tayyorgarlikni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari,


pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, ijtimoiy faollik, shuningdek, tarbiyachilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni rivojlantirish yo'llari, pedagogik shart-sharoitlari, shuningdek aksiologik-pedagogik mazmuni yoritib berilgan. Respublikamiz olimlaridan N.N.Azizxo'jaeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Jo'raev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, O.M.Musurmanova, E.A.Seytxalilov, N.M.Egamberdieva, F.R.Yuzlikaev, Z.E.Azimovalarning ilmiy izlanishlarida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlari tadqiq etilgan[8].

Ma'lumki, Pedagogik mahorat tizimida tarbiyachiining pedagogik nazokati (odobi) muhim o'rin tutadi. tarbiyachi nazoksiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilarsari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai – nazardan yondoshilganda, professor M. Ochilovning so'zlari, tarbiyachi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir. Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning tarbiyachi shaxsi va kasbiy fazilatlarining o'zaro bog'liqligidir. tarbiyachi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik. Shuningdek, pedagog-tarbiyachi ixtisosligining ko'pgina xususiyatlari M. Kuronov, B. Muranov va M.Ochilovlar tomonidan ishlab chiqilgan tarbiyachi profессиogrammasida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, M.Kuronov, B. Muranovlarning tarbiyachi profессиogrammasi asosan, tarbiyachini shaxsiy va kasbiy sifatleri, uning insoniy fazilatleri, bilimi, tashkilotchiligi, konstruktiv, gnostik, kasbiy malakalari, amaliy ko'nikmalari integratsiyasi tarzida izohlab berilgan[4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qitish jarayoniga integrativ yondashuvni tatbiq etish imkoniyatining aniqlanganligi, integrativ yondashuvga asoslangan mualliflik maxsus kurs dasturlari, volontyorlik faoliyatini tashkil etishga doir trening mashg'ulotlari majmuining ishlab chiqilganligi bilan izoxlanadi. Tarbiyachilar barkamol avlod ta'lim tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib nafaqat ma'naviy – axloqiy madaniyati bilan atrofda qilarga o'rnatq bo'lishi shu bilan birga pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk tarbiyachi sifatida barkamol avlod tarbiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Jamiyatda tarbiyachi modeli o'z mahoratiga ega bo'lishi tarbiya samaradorligini ta'minlovchi shaxs bo'libgina qolmasdan ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro' e'tiborini ham oshiradi, tarbiyalanuvchilarga unga nisbatan hurmat yuzga keladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksining didaktik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachilarda pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish darajasining pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish, baholash mezonlari va mexanizmlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksining didaktik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi[7]. Darhaqiqat, jamiyatda tarbiyachining obro' e'tiborini taminlaydigan ilk vosita uning tarbiyalanganlik darajasidir. Jamiyatda tarbiyachi ma'naviy jihatdan sag'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatleri, urf –odatleri va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishleri kerak. Ayniqsa, o'zi tanlagan mutaxassislik sohasida izlanishar olib borqa allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu tarbiyachining jamiyatda pedagogik shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachilik kasbining shakllanishi davomida pedagogik mahorati takomillashib boradi. U turli

pisixologik hususiyatlarga ega bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ta'lim – tarbiyoviy faoliyat olib boradi. U o'z navbatida tarbiyachining jamiyatda tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib moxirona qo'llashga majbur etadi. Tarbiya natijasida belgilangan maqsadga erishish uchun tarbiyachilar yillar dvomida yig'ilgan tajriba va malakalarga tayanib ishlaydi[10].

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliliigi, goyaviy e'tiqodliliigi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat tarbiyachi – tarbiyachi boshqa kasb egalardan ajratib turiladi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muxim fazilatlaridan talablaridan biri bolalarni sevish ularning xayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi bo'la oladi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka xayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak. Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, bigalikkdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlerini, qobiliyatlerini bilishi, Pedagog-tarbiyachilik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtda yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, [ularning mehnatsevarligi](#), mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishleri uchun imkoniyat yaratishi kerak. Tarbiyachi jamiyatda o'z o'rni va ahamiyatini rivojlantirishda uning o'z faoliyati davomida egallagan bilim ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg tarbiyachining jamiyatda o'z o'rni egallash uchun doimiy ravishda fanlarni mutola qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "Tarbiyachi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday tarbiyachidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi." Tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi o'zi yashab turgan tabiat va jamiyatning qonuniyatlerini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va Oliy ta'lim tashkilotigacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fizalogiyasini egallashi va bolalarning yosh hususiyatlerini bilishi kerak. Shuningdek, pedagog tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tamonlama rivojlantirish mufaqqiyatni amalaga oshirishga imkon beradi. Tarbiyachining bolalarga munosabati so'ssiz tarbiyachi mehnati mufaqqiyatlarida hal qiluvchi ro'l o'yinashi hamda pedagogik mahoratning muhim tamoni bo'lib hisoblanishini takidlagan edi. Uning fikricha tarbiyachi bilan bolalarning o'zaro munosabati ko'p jihatdan aynan mana shu jarayon harakteriga bog'liqdir. Muolifning takidlashicha o'zaro munosabatni tarbiyachi shaxsining faolliigi va jamoadagi tasirlashuvi nuqtayi nazaridan o'rganishi ham mumkin. Hozirgi zamon va fan texnika jadal suratda rivojlanayotgan, zamonviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda tarbiyachi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda tarbiyachi o'z o'rni shakllanishida hozirgi kunda faqat o'z fani bo'icha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni bilishi talab etiladi. Tarbiyachi o'z ishining ustasi – bu yuqori madaniyatli, o'z fanini chuqur egallagan va so'z sanatidan yaxshi xabardor bo'lgan ta'lim – tarbiya metodikasini a'lo darajada o'zlashtirganbo'lishi lozim. Bu tushunchlarni chuqurroq anglashga harkat qilsak quydagilarni aniqlashimiz mumkin. 1-rasm[5].



I-rasm. Tarbiyachilik kasbi tushunishga oid bo'lgan tushunchalar.

V.A.Slastelin ta'rifichi pedagogik qobiliyat shaxsining kasbiy yo'nalishidagi yuqori ko'rinishi bilan har qanday faoliyat qobiliyatning asosiy ko'rsatkichi uning fikricha, maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir. Tarbiyachilik kasbiy bilimlarining xususan, pedagogik psixologik bilimlarining yetishmasligi yoki uning rad etilishi va hatti – harakati unga yetarlicha e'tibor bermaslik ko'pgina xollarda tarbiyachi tayyor materiallardan foydalanib o'z ustida izlanishlarni to'xtatib qo'yadi. Bu esa tarbiyachi shaxsiga nisbatan bilimsizlik darajasini olib keladi[9].

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi bosqichda Oliy ta'lim tashkilotlari yetuk shaxslarni tarbiyalash va barkamol avlodni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'g'in sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, uning mahsul nafaqat yangi bilimlarni, yangi maqsadlarni, yangi qadriyatlarni va shaxsiy ma'no-larni egallash, balki o'qituvchining muhim kuchlarini ochib berish

va rivojlanti-rishdir, uning intellektual, axloqiy va ijodiy salohiyatini ko'rsatib berishdan iborat. Tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkilotigacha milliy tarbiya pedagogikasi va psixologiya, fiziologiya fanlarining asoslarini bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kasbiylik layoqatiga ega bo'lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olish lozim. Tarbiyachi bolalarni ko'zata oladigan, ularni xulqi,xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Oliy ta'lim tashkilotigacha ta'lim tizimini takomillashtirishga karatilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida. 08.08.2018 y. PQ-3904.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”. – 2017.– 102b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni,O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
4. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / Toshkent: <<O'zbekistan milliy ensiklopediyasi>> Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - 317 bet. 198 b
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. - T.: Fan, 2007. - 160 b.
6. Inoyatov U.I. Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish g'g' Kasb- hunar ta'limi.- 2004.- №1.-B. 3-4.
7. Mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b.
8. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782
9. М.Усмонова . Ўқувчи шахсига йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
10. Усмонова М..Педагогик жараён лойихаси – машгулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конференция. Тошкент. 25 май, 2017 йил



*Mamlakat XONNAZAROVA,*  
TDPU o'qituvchisi  
E-mail: [xonnazarova@mail.ru](mailto:xonnazarova@mail.ru)

*P.f.f.d. G' Otamurodov taqrizi asosida*

## DIDACTIC SUPPORT OF TEACHING ZOOLOGICAL SCIENCES ON THE BASIS OF MEDIA TECHNOLOGY

Annotation

The article describes the legal and regulatory framework for the quality organization of educational processes in the country, the main requirements for teaching methods, the use of media technology to ensure the implementation of these requirements. Also, the factors of teaching the class of bony fishes in zoology on the basis of media technologies and the positive opportunities created in this process were discussed.

**Keywords:** educational processes, zoology, media technology, bony fish class, electronic information educational resources, teaching methods, cognitive processes.

## ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЗООЛОГИЧЕСКИХ НАУК НА ОСНОВЕ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В статье описаны нормативно-правовая база качественной организации образовательных процессов в стране, основные требования к методике обучения, использование медиатехнологий для обеспечения реализации этих требований. Также обсуждались факторы преподавания класса костных рыб в зоологии на основе медиатехнологий и позитивные возможности, создаваемые в этом процессе.

**Ключевые слова:** образовательные процессы, зоология, медиатехнологии, класс костистых рыб, электронные информационные образовательные ресурсы, методика обучения, познавательные процессы.

## MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ZOOLOGIYA FANLARINI O'QITISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

Annotatsiya

Maqolada respublikamizda ta'lim jarayonlarini sifatli tashkil etishning xuquqiy-me'yoriy asoslari, ta'lim metodlari oldidagi asosiy talablar, ushbu talablar ijrosini ta'minlashda mediatexnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarga zoologiya fanidan suyakli baliqlar sinfini mediatexnologiyalar asosida o'qitish omillari va bu jarayonda yaratiladigan ijobiy imkoniyatlarga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayonlari, zoologiya fani, mediatexnologiyalar, suyakli baliqlar sinfi, elektron axborot ta'lim resurslari, ta'lim metodlari, bilish jarayonlari.

**Kirish.** Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimizning erkin, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, ularning bilim salohiyatlarini jahon andazalariga mos ravishda oshirish hamda kelajakda xalqimizga astoyidil xizmat qiladigan kasb egasi bo'lib etishishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi.

Bu borada 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish vazifasi qo'yilgan [1]. Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarimizni hayotda o'z o'millarini topishlari uchun ularga chuqur bilim, fan materiallari bo'yicha ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish lozim bo'ladi. Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta'lim tizimi oldiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Ta'lim jarayonlarining sifat-samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadga erishishda ta'lim jarayonlarida innovatsion, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan

foydalanish dolzarb hisoblanadi. Bu o'rinda ta'lim jarayonlarida mediatexnologiyalardan foydalanish muhim o'rinni egallaydi.

Bizga ma'lumki, didaktika butun dunyo ta'lim nazariyasi sifatida o'quv jarayonini, ta'lim sifati, ta'lim jarayonining nazariy qismlari, dars mashg'ulotlarining ta'lim jarayonidagi didaktik vositalarini o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab munosib ravishda quyidagi bir nechta metodlar qo'llaniladi: og'zaki bayon qilish metodi, og'zaki metod, ko'rgazmali metod, amaliy metod, laboratoriya ishlari metodi, muammoli va evristik modellashtirish metodi, mustaqil ishlash metodi, ilmiy-tadqiqot metodlari, o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi, o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi kunda ta'lim metodlari oldida turgan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

1. O'quv materialini o'rganish faqatgina nazariy bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ta'limning amaliy imkoniyatlarini ishga solishga ham yordam berishi kerak.

2. Ta'lim metodlari ilmiy dalillar bilan aniq asoslangan bo'lishi lozim. Metodning ilmiyligi talabalarning aniq fikr yuritishini, zoologiya faniga oid materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi aniq ta'limiy maqsadini, vositalarni, usullarni asoslaydi.

3. Zoologiya faniga oid o'quv materialini o'rganish jarayonida foydalaniladigan har kaday ta'lim metodlarining tizimligi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.

4. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan yana bir talab ularning tushunarli bo'lishidir. O'qitish yo'li talabalarga tushunarli va maqbul bo'lishi, geografik o'quv materialini o'rganish metodlari esa uning bilimlarini o'zlashtirishdagi sohaga muvofiq kelishi lozim.

5. Talabalarni bilish jarayoni orqali o'quv jarayonida ko'rsatmali texnologiyalardan ko'proq foydalanish zarurligi ta'lim metodlari oldiga qo'yilgan muhim talabdir. Ta'limni ongli va faol shaklda olib borish bilimlarni o'zlashtirish usullariga ham bog'liq.

6. Ta'lim beruvchining ilmiy-nazariy bilimlarni tushuntirishi talabalarining o'zlashtirishida samarali va sifatli natija berish kerak.

Yuqorida bayon etilgan didaktik fikrlarga tayangan holda ta'lim nazariyasi zoologiya fanini o'qitishda metodik omil, didaktik omil, psixologik omillarga asoslanishi kerak. Yuqoridagilarning barchasi mediatexnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhitida ijobiy hal etilishi mumkin.

Demak, talabalarni zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy-metodik ta'minoti ushbu omillar asosida takomillashtirishi mumkin.

Mediatexnologiyalar o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: audiovizual texnologiyalar (magnitofon, kino,televizor, video uskunalar); multimedia texnologiyalari (kompyuter, videokuz, proektor, dinamiklar, multimedia texnologiyalari); gipermatnli texnologiyalar (internet saytlari, elektron darsliklar, elektron kutubxonalaridagi ko'rsatkichli va izohli lug'atlar, ensiklopediyalar); xolografik texnologiyalar (volumetrik va chuqur aks ettiruvchi). Mediatexnologiyalarning bu guruhi murakkab usulda ko'pgina boshqa texnologiyalar guruhlariga kirib boradi [8].

Multimediali elektron axborot ta'lim resurslarigaiga ma'lum o'quv fani mavzusi (masalan, zoologiya, suyakli baliqlar sinfi bo'yicha amaliy ish namoyishi, suyakli baliqlar sinfining morfo-fiziologik xususiyatlari, baliqlarning ekologiyasi, xalq xo'jaligida ahamiyati va x.k.)ga doir videolavhalar misol bo'lishi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Mediatexnologiyani takomillashtirish bosqichi bevosita mediata'lim bilan bog'liqdir. Respublikamizda N.I.Taylakov, H.A.Saidakbarov, Sh.N.Taylakova, J.G.Yo'ldoshev S.K.Tursunov, D.E.Toshtemirov, O.X.To'raqulov, R.R.Boqiev, B.A.Begalov, kabi olimlar ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish, zamonaviy pedagogik ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etishga doir tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar, ammo adabiyotlar va mualliflar tajribalarini o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini, xususan, "Suyakli baliqlar" sinfini mediatexnologiyalar asosida o'qitish muammosi metodik nuqtai nazardan kam o'rganilgan.

J.Gonne mediatexnologiyalarni taxlil qilar ekan butunlay yangicha fikrlarni olg'a suradi. Uning fikricha, o'quv jarayoniga axborot vositalarini samarali joriy etishda o'quv muassasalari pedagoglariga yordam beruvchi mediatexnologiyalar markazini tashkil etib, unda o'qituvchi o'z ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishda 5 turdagi metodik tavsiyani birlashtirgan, ya'ni turli axborot manbalarini taqqoslash, tinglay olish, fikrlar xilma-xilligi va ularning nisbiyligi turli mediaaxborotlardan foydalana olish mahoratini o'z ichiga olsa (Axborot zaxiralari haqidagi bilimi, ularni izlab topish, tanlash, mavzuga oid testlarni ma'lum manbal bilan solishtirish), boshqa tomondan esa fanning turli sohalarni tashkil etish tamoyillari haqidagi ta'lim mazmunini anikdash mahorati hamda turli hodisalardagi o'xshashliklarni aniqlash, tashxislash kabi bilimlar nazarda tutiladi [9].

Demak, talabalarining mediasavodxonlik darajalarini oshirishda ta'lim tushunchalarining yangi qirralarini, ya'ni o'qish va o'qitish jarayonida voqeliklarning yangi ko'rinishlari va qo'shimcha materialni yuzaga keltiradi. O'qish jarayoni asosan mustaqil ta'lim bilan bogliq. Sababi, talabalar aynan mustaqil ta'lim jaryonida mediatexnologiyalardan foydalanish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida didaktik mediatexnologiyalardan foydalanish bo'yicha eksperimentni tashkil etishda hisobga olingan bu holat zamonaviy mediatexnologik ta'limning eng muhim yunalishi - tabiiy va texnik madaniyatlarining zamonaviy tendensiyasi doirasida amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi..

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Zoologiya fanidan suyakli baliqlar sinfini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanish orqali quyidagi ijobiy imkoniyatlarga erishiladi:

1. Suyakli baliqlar sinfi bo'yicha yaratilgan elektron axborot resurslari (elektron darsliklar, videodarslar, elektron nazorat testlari, mobil ilovalar, multimedia texnologiyalari va b.) ushbu kurs bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda kompyuterlashgan texnologiyalarni qo'llanilishini ta'minlashga sharoit yaratadi.


2. Suyakli baliklar sinfi bo'yicha ishlab chiqilgan mediasavodxonlik talabalarida zamonaviy, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatadi, mustaqil holda o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

3. Zoologiya fani (Suyakli baliqlar sinfi)ni o'qitishning ijodiy muhiti yaratiladi.

4. Mediatexnologiyalar asosida talaba sifatli o'quv materiallari bilan ta'minlanadi;

5. Zoologiya fani bo'yicha yangiliklar, ilg'or tajribalar, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning eng so'ngi yutuqlaridan xabardor bo'ladi.


Mediatexnologiyalar asosida o'qitish strukturasi asosiy omillari quyidagilar hisoblanadi:



## 1-rasm. Mediatexnologiyalar asosida o'qitish omillari

Demak, zoologiya fanidan suyakli baliqlar sinfi bo'yicha o'quv materiallarini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanilganda talabalarga suyakli baliqlarning o'ziga xos xususiyatlari (kelib chiqishi, ularning tashqi tuzilishi, oziqlanishi, harakat sistemasi va skeleti, hazm

qilish va nafas olish organlari, qon aylanish sistemasi, nerv sistemasi va sezgi organlari, ko'payishi va rivojlanishi, ayirish organlari) bo'yicha aniqroq va tushunarliroq ma'lumotlar berish mumkin. (2-rasm).




2-rasm. Zog'ora baliqning skeleti

1-bosh; 2-jabra qopqog'i; 3-yelka suzgich; 4-umurtqa poganasi; 5-anal suzgich; 6-qorin suzgich; 7-ko'krak suzgich; 8-dum suzgich.

**Tahlil va natijalar.** Darsliklarda keltirilishicha, suyakli baliqlar skeleti tog'ayli baliqlar skeletidan farq qilib asosan suyakdan tashkil topgan. Suyaklar kelib chiqishiga qarab tog'ay (xondral) suyaklar va teri, ya'ni qoplag'ich suyaklarga bo'linadi. Xondral suyaklar tog'ay to'qimasining sekin-asta suyak to'qimasiga almashinishidan hosil bo'ladi [2]. Suyakli baliqlarning shu kabi xususiyatlarini talabalarga tushuntirishda aynan mediarekurslar (videodarslar, animatsiyalar, mulmtimedia ilovalari va h.k.)dan foydalanilsa talabalarda suyakli baliqlar haqida keng tasavvur paydo bo'ladi.

Bizga ma'lumki, shaxs manbani o'qiganda – 10%, ma'lumotni, eshitganida – 20%, jarayonni ko'rganda – 30%, jarayonni ko'rib, ular to'g'risida ma'lumot eshitganda – 50% hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlab qoladi. Demak suyakli baliqlar sinfi bo'yicha yaratilgan elektron axborot ta'lim resurslari orqali talabalarda baliqlar bo'yicha to'liqroq va tushunarliroq bilimlar beriladi, hamda yuqori o'zlashtirish darajasiga erishiladi. Jumladan, baliqning ovqat hazm qilish va ayirish organlari bo'yicha ma'lumotlar berilayotgan matnli ma'lumotlardan ko'ra shu bo'yicha videroliklarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. (3-rasm).



3-rasm. Baliqning ovqat hazm qilish va ayirish organlari

1-jabra yoriqlari; 2-suzgich pufagi; 3-halqum; 4-til; 5-qizilo'ngach; 6-jigar; 7-o't pufagi; 8-oshqozon; 9-ichak; 10-anal teshik; 11-siydik pufagi; 12-buyrak

Talabalar videroliklarni ko'rish orqali ushbu ma'lumotlar ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ma'lumki, suyakli baliqlar kishilarning oqsil moddaga bo'lgan talabini qondirish uchun oziq-ovqatda keng ko'lamda qo'llaniladi. Yiliga dunyo bo'yicha 50 mln. tonnagacha baliq ovlanadi, ularning asosiy qismini dengiz baliqlari tashkil qiladi [7]. Talabalarda baliqlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini ongli ravishda anglashlarida ham mediatexnologiyalarning o'rni va ahamiyati katta.

**Xulosa va takliflar.** Ta'lim jarayonlarida mediarekurslardan foydalanish talabalarda o'quv-bilish

faolligini oshirish, ularda o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, bir-birini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan fikr-mulohazalar orasidan eng maqbul yechimini tanlab olish ko'nikmalarini shakllantirilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish malakalarini shakllantirish bilan birga o'quv materialini tez va qulay usulda, ya'ni ko'rish, eshitish orqali chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Dadaev S., Saparov K. Zoologiya (xordalilar) OO'Yu talabalari uchun darslik. "Turon-iqbol", T. 2018.
3. Рупперг Э.Е., Фокс Р.С., Барнс Р.Д. Зоология беспозвоночных. В 4-х томах, перевод с англ., "Академия", Москва – 2008 г.
4. Вестхайде В., Ригер Р. Зоология беспозвоночных. В 2-х томах, перевод с немес., КМК, Москва – 2008 г.
5. Dadaev S., To'ychiev S., Haydarova P. Umurtqalilar zoologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. T. "O'zbekiston". 2006.
6. Laxanov J.A. Umurtqalilar zoologiyasi. OO'Yu talabalari uchun darslik. T. 2005.
7. Naumov S.P. Umurtqali hayvonlar zoologiyasi (A.Abdullaev tarjimai), Toshkent. 1995 yil. "O'qituvchi" nashriyoti. 260 b.

8. Змановская Н.В. Формирование медиа образованности будущих учителей: дис. .... канд. пед. наук. – Иркутск, 2004.– С.150.
9. Gonnet, J. (1997).Educationetmedias.Paris: Pressuniversitairede France.



УДК:36;37.0;7.0 X-85

*Азаматжон ХУДАЙНАЗАРОВ,*  
Ўзбекистон Миллий университети тадқиқотчиси  
E-mail: [azamat\\_200992@mail.ru](mailto:azamat_200992@mail.ru)

ЎзМУ профессори, с.ф.д. И. Эргашев тарқизи асосида

## MAIN OBJECTIVES OF INCREASING YOUTH ACTIVITY IN SOCIAL AND SPIRITUAL LIFE

Abstract

The article discusses some priorities for increasing the activity of the youth of Uzbekistan in social and spiritual life as a guarantee of the country's development. The article also provides a socio-political analysis, increasing the effective participation and activity of young people in socio-political processes through socio-political transformations in the socio-spiritual life of the country, effective solutions, priorities and conclusions of some problems in the socio-spiritual life.

**Key words:** youth, youth spirituality, social and political reforms, social and spiritual life, five important initiatives, spiritual potential, intellectual potential, education, books, reading, reading culture, theater, museum.

## ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В СОЦИАЛЬНОЙ И ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация

В статье рассматриваются некоторые приоритеты повышения активности молодежи Узбекистана в общественно-духовной жизни как залог развития страны. В статье также приводится социально-политический анализ, повышение эффективного участия и активности молодежи в общественно-политических процессах путем социально-политических преобразований в социально-духовной жизни страны, эффективные решения, приоритеты и выводы некоторых проблем в социально-духовной жизни.

**Ключевые слова:** молодежь, молодежная духовность, общественно-политические реформы, общественно-духовная жизнь, пять важных инициатив, духовный потенциал, интеллектуальный потенциал, образование, книги, чтение, читательская культура, театр, музей.

## ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ-МАЪНАВИЙ ҲАЁТДА ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ

Аннотация

Мақолада Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий-маънавий ҳаётда фаоллигини оширишнинг айрим устувор вазифалари мамлакат тараққиётининг гарови эканлиги ўрганилган. Шунингдек, мақолада мамлакатимиз ижтимоий-маънавий ҳаётида олиб борилаётган ижтимоий-сиёсий ислохотлар орқали ёшларнинг ижтимоий-сиёсий жараёнларда иштирокини ва фаоллигини юксалтириш, ижтимоий-маънавий ҳаётда юзага келаётган айрим муаммоларга самарали ечимлар, устувор вазифалар ва хулосалар берилган ҳамда ижтимоий-сиёсий таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** ёшлар, ёшлар маънавияти, ижтимоий-сиёсий ислохотлар, ижтимоий-маънавий ҳаёт, бешта муҳим ташаббус, маънавий салоҳият, интеллектуал салоҳият, таълим, китоб, китобхонлик, китобхонлик маданияти, театр, музей

**Кириш.** Ҳар бир мамлакатнинг тарихий ривожланиш жараёнида маълумки, давлатнинг жадал ривожланиши, халқнинг фаровон яшаши, олдинга қўйилган стратегик мақсадларга эришишида ёшларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатлари кафолатланлиги, ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаоллик даражаси, ярагиб берилган шарт-шароитлари, таълим-тарбияси ва келажагига бериладиган эътиборига чамбарчас боғлиқ. Шу маънода, Ўзбекистон ёшларини ижтимоий-маънавий ҳаётда фаоллигини юксалтириш мамлакатнинг тараққиёт даражасини белгилаб беради. Ёшларнинг ижтимоий-маънавий ҳаётда фаоллик даражаси ошмас экан мамлакат ҳеч қачон ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, маънавий ва маърифий соҳаларда ривожланиши амри маҳолдир. Ёшларнинг ижтимоий ҳаёт соҳалардаги айрим муаммоларга ечим топмас экан, Ўзбекистоннинг ривожланган давлатлар орасида, нуфузли ташкилотлар ва халқаро рейтинглардаги ўрни пастлаши мумкин, юқорилашиши жудаям қийиндир.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг “Ёшлар ўртасида китобхонликни, мутулаа маданиятини ривожлантириш доимий эътиборимиз марказида бўлиши лозим. Фарзандларимизга

мўлжалланган бадиий адабиётларни кўпайтириш ва уларнинг муаллифларини рағбатлантириш мақсадида “Болалар ва ёшлар учун энг яхши китоб” танловини ўтказиш йўлга қўйилади. Бунда муаллифларга биринчи ўрин учун - 100 миллион сўм, иккинчи ўрин учун - 75 миллион сўм, учинчи ўрин учун - 50 миллион сўм мукофот берилади”[1] деган фикрларини ўринли деб ўйлайман.

Ўзбекистонда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлашни янги босқичга олиб чиқиш, ёшларни китобхонликка жалб қилиш, китобхонлик билан боғлиқ муаммоларга самарали ечимлар ишлаб чиқиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутулааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги ПҚ-3271-сон Қарори[2], Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги “Ўзбекистон Республикаси аҳолисига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-4354-сон Қарори[3], “2019-2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида

ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш Концепцияси"[4], Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 декабрдаги "2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида"ги 781-сон Қарори[5] ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган.

Янги Ўзбекистон жамияти ҳаётида ёшларнинг маънавий-интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарабини юксалтиришда, она Ватани ва халқига муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган стратегик ресурсни тарбиялашда китобхонлик маданиятини ошириш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Ёшларни китоб ўқиш кўникмаси шаклланса, уларнинг келажаги йўлида қолган барча амалларни китобнинг ўзи ўргатади.

Ахлоқ-одоб борасида буюк асарлар яратган Муҳаммад Жабалрудий китоб ҳақида шундай дейди: Китоб олимлар фикрининг паноҳгоҳи, доно кишилар бўстонининг чамани, оддий кишиларнинг тамошоғидир. У кимсасиз кишиларга дил очувчи боғ, кўнгли шикасталарга раҳнамодир. У барча ерда барча билан ошно, дарди кишилар дилига даводир[6].

Шу ўринда Президентимиз томонидан 2019 йил 19 март куни ёшларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, ёшларда ахборот технологияларидан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш, улар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини оширишга қаратилган бешта муҳим ташаббус илгари сурилди. Ушбу бешта ташаббуснинг тўртинчиси, яъни аҳоли, айниқса, ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш ёшларнинг интеллектуал ва маънавий салоҳиятини оширишга хизмат қилади.

Статистик таҳлил ва натижалар. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси маълумотларига кўра, мамлакатимизда 2021 йил 1 январь ҳолатига ахборот-ресурс ва ахборот кутубхона марказлари сони 400 тани ташкил қилиб, шундан 361 таси шаҳарда, 39 таси қишлоқларда жойлашган. Ҳар бир ахборот-ресурс ва ахборот кутубхона марказга ўртача 107410 та китоб ва журналлар тўғри келади. Умумий олганда барча ахборот-ресурс ва ахборот кутубхона марказларда 43 миллион китоб ва журналлар мавжуд. Мазкур марказлардан фойдаланувчилар сони 3.1 миллионни ташкил қилмоқда.

2021 йил 1 январь ҳолатига кўра, 1450 та китоб ва брошюралар 13.7 миллион тиражда чоп қилинган. Умумий маълумотларга кўра, 2000-2020 йилларда 33711 та китоб ва брошюралар 405.7 миллион тиражда чоп қилинган. Китоблар ва брошюралар умумий сонидан адабий-бадий нашрлар 429 тани ташкил қилиб, 1.3 миллион тиражда чоп қилинди. Ушбу адабий-бадий нашрлар 2014-2020 йиллар давомида эса 3332 тани ташкил қилиб, 9.9 миллион тиражда чоп қилинган. Ундан ташқари юртимизда 366 та газета мавжуд бўлиб, 57.8 миллион тиражда чоп қилинган.

Мазкур бешта ташаббуснинг биринчи ташаббуси, яъни, ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини ошириш хизмат қилади. Шу ташаббусдан келиб чиқиб, статистик маълумотларга таянадиган бўлсак, 2021 йил 1 январь ҳолатига кўра, Ўзбекистонда 49 та театр мавжуд бўлиб, 1090.5 минг киши томоша қилишган. Пандемия сабабли аҳоли театрларга кам киришган. 2020 йил 1 январь ҳолатига эса, 2646,7 минг киши томоша қилишган.

Ундан ташқари, юртимизда 105 та музей ташкил қилинган бўлиб, музейларга ташриф буюрувчилар сони 1515.8 кишини ташкил қилган. Шулардан 798.6 минг мактаб ўқувчилари, талабалар, академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари ташриф буюришган. 2020

йил 1 январь ҳолатига кўра эса, 100 та музей мавжуд бўлиб, 7777.8 минг нафар томошабин ташкил қилган. Шулардан 3497.4 минг нафари эса мактаб ўқувчилари, талабалар, академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари ташкил қилган[7].

Мамлакатимизда ёшларнинг ижтимоий-маънавий ҳаётда фаоллигини ошириш омили ҳамда ёшлар фаоллик кўрсатишида юзага келаётган айрим муаммолар ҳақида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Ёшларнинг ижтимоий-маънавий ҳаёт соҳасидаги фаоллиги бўйича муаммо ва ечимларни топиш учун Ю-Репорт ва Ёшлар ишлари агентлиги билан ҳамкорликда "Ёшларга қандай ижтимоий лойиҳалар керак?" мавзусида социологик сўров ўтказилди. Ижтимоий лойиҳалар бўйича ўтказилган сўровда 7525 та Ю-Репорт фойдаланувчиси иштирок этди. Сўровда кўпроқ Тошкент шаҳри (13%), Фарғона (12%) ва Самарқанд (10%) вилоятларидан респондентлар қатнашдилар. Сирдарё, Навоий ва Жиззах вилоятларидан эса камроқ респондентлар сўровда иштирок этдилар (ҳар бир вилоятдан 4%дан).

Респондентларнинг 86%и 30 ёшгача бўлган шахсларни ташкил этди. Аммо сўровда энг фаол бўлган ёш қатлами бу – 20-29 ёшдаги респондентлар бўлиб, улар умумий респондентларнинг 59%ини ташкил этди. 13-19 ёшдаги респондентларнинг улуши эса 27%ни ташкил этди.

Социологик сўровнома натижаларига кўра:

Ёшлар ишлари агентлигининг энг танилган лойиҳаси "Ёш китобхон" танлови бўлиб, 24% респондентлар бу лойиҳани билишини таъкидлади. 13 ёшгача бўлган респондентлар орасида ушбу лойиҳани танийдиганлар улуши 42%ини ташкил этди.

Модул5 лойиҳаси ҳам оммабоп лойиҳалардан бўлиб, 13-18 ёшдаги респондентларнинг 7%и ва 18 ёшдан катта бўлганларнинг 5%и ушбу лойиҳани билишини айтди.

Респондентларнинг 32%и Агентликнинг санаб ўтилган ҳеч бир лойиҳаси ҳақида эшитмаган. Бундай жавоб берганлар улуши айниқса Тошкент шаҳрида юқори бўлди (51%).

62% респондентлар ижтимоий лойиҳаларни ривожлантиришнинг энг устувор йўналишлари қаторида фан ва таълимни кўради. Иккинчи ўринни икки йўналиш эгаллади: "ИТ-технологиялар" ва "Тадбиркорлик ва бандлик" – ҳар бири 17%дан овоз йиғди.

Респондентларнинг 65%и ижтимоий лойиҳаларда волонтер сифатида иштирок этишни истади.

Волонтерликка қизиқиш айниқса мактаб (59%), шунингдек, коллеж ва лицей (57%) ўқувчилари орасида юқори. Иш билан банд бўлган респондентларнинг кўпчилигида хоҳиш бўлсада, вақт етишмаслиги волонтер бўлишга тўсик сифатида айтилди.

Худудлар кесимида, ижтимоий лойиҳаларда волонтер сифатида иштирок этиш иштиёқи Навоий, Наманган ва Андижон вилоятларида юқорироқ (ўрта ҳисобда 56%). Энг кам қизиқиш даражаси (43%) Тошкент шаҳридаги респондентлар орасида кузатилди [8].

Бутун дунёга назар соладиган бўлсак, барча халқларнинг фаровонлиги ва тараққиётининг асосий таркибий қисми таълимдир. Ҳар бир давлатда сифатли таълимга эътибор кучайган сари иқтисодиётининг барқарорлиги, барча соҳаларда ривожланган давлатлар билан рақобатлаша олиши, ундан ташқари халқаро меҳнат бозори кадрлар тайёрлашда етакчилик қилишига стратегик замин яратиб беради. Дунё мамлакатларида олиб борилаётган сифатли таълим сиёсатининг қай даражада самара бераётганлигини халқаро рейтингларда ўз аксини топади. Таълим соҳаси бўйича мамлакатларнинг стратегик ўрнини баҳолашда Таълим индекси (Education

Index)[9] катта рол ўйнайди. Таълим индекси асосан дунё иқтисодий тараққиёти ва ҳаёт сифатини ўлчашда қўлланилади. Таълим индекси ҳар йили Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Тараққиёт Дастури томонидан нашр этиладиган Инсон тараққиёти индексининг таркибий қисmidир. У ЯИМ индекси ва умр кўриш давомийлиги кўрсаткичи билан бир қаторда, таълим даражаси, аҳоли жон бошига ЯИМ ва мамлакатларнинг умр кўриш давомийлигини ўлчашга ёрдам беради. Дунё миқёсидаги таълим кўрсаткичлари БМТ Тараққиёт дастурининг ЮНЕСКО статистика институти ва бошқа манбалардан олинган Инсон тараққиёти тўғрисидаги ҳисоботида келтирилади. Таълим индексига Ўзбекистон 2000 йилда бошлаб киритила бошланган. Ўзбекистоннинг сўнгги 4 йиллик статистик натижалари қуйидагилардан иборат:

- 0.709 (2016);
- 0.724(2017);
- 0.726(2018);
- 0.729(2019).

Таълим индексининг 2019 йилги дунё мамлакатларининг статистик маълумотларига қарайдиган бўлсак, қуйидаги натижаларни кўриш мумкин:1. Германия - 0.943;

- 2. Норвегия - 0.930;
- 3. Буюк Британия - 0.928;
- 4. Финляндия - 0.927;
- 5. Исландия - 0.926;
- 35. Қозоғистон - 0.830;
- 39. Россия - 0.823;
- 70. Қирғизистон - 0.730;
- 71. Ўзбекистон - 0.729;
- 96. Тожикистон - 0.682;
- 110. Хитой - 0.657;
- 111. Туркменистон - 0.653;
- 189. Нигер - 0.249 [10]

долзарб масалалардан биридир. Мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-сиёсий ислохотларнинг асосий мақсади ёшларнинг ижтимоий-сиёсий жараёнларга бўлган ишончи, эртанги келажаги учун юксак мақсадлар ва марралар қўя олиши, ижтимоий ҳаёт соҳаларига дипломатик киришувчанлик ва новаторлик салоҳиятини юксалтиришига хизмат қилиши керак ва зарур. Ёшларни маънавий ва интеллектуал салоҳиятини юксалтира олмасак ва давлат бошқаруви ҳамда ижтимоий-сиёсий тизимларга ишончини ошира олмасак, Янги жаҳмиёт қурашми деб бонг уриб, атрофимиздаги муаммоларга кўз юмаверсак, охир оқибатда Янги Ўзбекистон жаҳмиётини қуриш пуч гоёларга айланиб бораверади.

Ёшларни онгида миллий ва умуминсоний қадриятлар ва инсон ҳаётини қадрлашни китоб, театр ва музейлар орқали сингдириш омилларини яна ошириш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Ёшларни китоб ўқишга бўлган қизиқишини ошириш, бўш вақтларини мазмунли ташкил қилиш бўйича кенг қўламли ишлар олиб борилмоқда. Шу ўринда китоб мутолаа қилиш, уни нашр қилиш, унинг савдоси

бўйича юзага келаётган айрим муаммоларни келтириб ўтиш мақсадга мувофиқ деб ўйлайман. Таълим муассасаларнинг ахборот ресурс маркази базаларида дипломатик киришувчанлик, креатив ва новаторлик потенциалларини оширувчи, коммерция жараёнларда фаоллашуви, нутқ ва имло маданиятини юксалтирувчи, сиёсий жараёнларга бўлган муносабатларини ижобий томонга ўзгиртирувчи, халқаро илмий-фалсафий китоблар сони ошириб борилмаётганлиги, мазкур китоблар дарс жараёнларида фойдаланил-маётганлиги, таълим муассасаларнинг айрим раҳбарлари томонидан ўқитувчиларга камида йилда бир марта китоб чоп қилиш мажбурият сифатида қаралаётганлиги, чоп қилинаётган илмий мақолалар, ўқув қўлланмалар, дарсликлар фақат таълим муассаса рейтингини оширишга қаратилаётганлиги, ўқув қўлланмалар, дарсликлар ва илмий мақолаларга ихтибос олиниши суний равишда оширилаётганлиги, айрим китобларнинг маънавий савияси паст даражада эканлиги, паст савияли китобларни айрим нашриётлар томонидан нашр қилиш орқали катта даромад олиш бизнесига айлантираётганлиги кўриш мумкин.

Бизнингча, ёшларни китобга меҳр уйғотиш, дипломатик киришувчанлик, новатор ва креатив салоҳиятини юксалтириш, мустақил фикр ва кенг дунёқарашини мустаҳкамлаш орқали уларнинг ижтимоий-маънавий ҳаёт йўлларида ўз ўрнини топишда қуйидаги омилларни киритиш мумкин:

талаба-ёшларнинг дипломатик киришувчанлик, креатив ва новаторлик салоҳиятини юксалтирадиган илмий китобларни сонини ошириш ҳамда ушбу илмий китобларни дарс жараёнларида фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқиш;

ёшлар онгида илмий, бадий, тарихий асарларда акс этган юксак инсоний фазилатларни янада мустаҳкамлаш;

ёшларни мустақил, ижодий ва креатив фикрлаш, ахборотларни саралаш, таҳлил этиш малакасини шакллантириш;

мамлакатимизда ижтимоий-маънавий ҳаёт соҳаларини ривожлан-тиришда виртуал кутубхона ва музейлар ташкил этиш механизмларини ишлаб чиқиш;

китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш, янги асарларни яратиш, таржима қилиш ва муаллифларни рағбатлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш;

ижтимоий аҳамиятга эга бўлган китобларни, айниқса, болаларга мўлжалланган адабиётлар, кўзи ожизлар учун брайл алифбосига асосланган адабиётлар чоп этилиши механизмларини ишлаб чиқиш;

Ўзбекистонда “Миллий кутубхона концепцияси”ни ишналб чиқиш;

аҳоли орасидан кўнгилчиларни жалб қилиб, жамоатчилик босма нашрларини рақамлаштириш;

букинист дўкон тармоқларини яратиш ва ривожлантириш лойиҳасини яратиш;

онлайн майдончалар, энциклопедиялар ва музейлар орқали мамлакатимиз образини яратиш ва обрўсини ошириш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқилса мақсадга мувофиқдир.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2021 й. - Б 256.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолаа ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги ПҚ-3271-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/3338600>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги “Ўзбекистон Республикаси аҳолисига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-4354-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/4372449>.
4. 2019-2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш Концепцияси. <https://lex.uz/docs/4372449>.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 декабрдаги “2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 781-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/5160827#5162595>.
6. Машриқзамин ҳикмат бўстони. "Шарқ" нашриётматбаа концерни, Тошкент: 1997, - б 18-19.
7. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти. <https://www.stat.uz/uz/>.
8. Yoshlarga qanday ijtimoiy loyihalar kerak? <https://uzbekistan.ureport.in/story/801/>.
9. [https://en.wikipedia.org/wiki/Education\\_Index](https://en.wikipedia.org/wiki/Education_Index).
10. Рейтинг стран мира по уровню образования / Гуманитарный портал: Исследования [Электронный ресурс] // Центр гуманитарных технологий, 2006–2021 (последняя редакция: 22.03.2021). URL:<https://gtmarket.ru/ratings/education-index>.
11. Худайназаров.А.Ў. Ўзбекистон ёшларининг фаоллигини юксалтиришда ижтимоий-сиёсий ислохотларнинг ўрни. ЎзМУ хабарлари. 2021 й, № 1/4. - б. 175-177.
12. Khudaynazarov.A.U. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education. Middle East Journal of Applied Science & Technology, Vol.5, Iss.1, Pages 33-37, January-March 2022.



UO'K: 34:327(575.171)

Sa'nat XUDAYBERGANOV,  
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: [xudayberganov.sanat@bk.ru](mailto:xudayberganov.sanat@bk.ru)

TTA Urganch filali kafedra mudiri, tarix fanlari doktori(PhD) Z.Q.Abidova taqrizi asosida

### LEGAL FUNDAMENTALS OF FOREIGN COOPERATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (On the example of Khorezm region)

Abstract

This article discusses the historical significance of the development of a new system of international economic and social relations in our country, the normative legal acts adopted in 1991-2021 to ensure the sustainable development of our socio-economic life. The article also discusses the history and peculiarities of foreign cooperation in the socio-economic development of Khorezm region.

**Keywords:** international law, foreign policy, cooperation, socio-economic, development, trade relations, Khorezm region, investments, normative legal acts.

### ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВНЕШНЕГО СОТРУДНИЧЕСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (На примере Хорезмской области)

Аннотация

В данной статье рассматривается историческое значение развития новой системы международных экономических и социальных отношений в нашей стране, нормативно-правовых актов, принятых в 1991-2021 годах для обеспечения устойчивого развития нашей социально-экономической жизни. В статье также рассматриваются история и особенности зарубежного сотрудничества в социально-экономическом развитии Хорезмской области.

**Ключевые слова:** международное право, внешняя политика, сотрудничество, социально-экономическое развитие, торговые отношения, Хорезмская область, инвестиции, нормативно-правовые акты.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARI (Xorazm viloyati misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning yangi tizimining rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha 1991-2021-yillarda qabul qilingan normativ huquqiy xujjatlarning tarixiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada Xorazm viloyatida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida xorijiy hamkorlik tarixi va o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro huquq, tashqi siyosat, hamkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy, taraqqiyot, savdo munosabatlari, Xorazm viloyati, investitsiyalar, normativ huquqiy xujjatlar.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga qabul qilinishi davlatimizni xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida maqomini belgiladi. Bu xalqaro maqom mamlakat Konstitutsiyasida belgilangan respublika tashqi siyosatining fundamental prinsiplarini mustaqil amalga oshirishga mustahkam asos yaratdi.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jahon hamjamiyati bilan teng huquqli hamkorlik qilib, qisqa tarixiy davrda xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan davlatga aylandi. Bugungi kunda O'zbekiston jahonning rivojlangan mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda hamda uning geografiyasi yanada kengayib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini va mavqeiga ega. Biz dunyodagi barcha davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilish va amaliy muloqot uchun ochiqmiz.[1]

O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari Markaziy Osiyo mintaqasi bilan uzviy bog'liqdir. Markaziy Osiyo - O'zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'nalishidir. Chunki, "Markaziy Osiyo - bu haqiqatdan ham noyob imkoniyatlar va hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan mintaqadir".[2] Jumladan, tarixiy jarayonlarni metodologik nuqtai nazardan tahlil etgan A.Toynbining fikricha, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi

makon tabiiy sharoitlarga ko'ra muhim yo'llar kesishadigan xalqaro chorrahada joylashganligi bilan ahamiyatlidir.[3] 2017-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonni 180 ga yaqin davlat tan olgan. Ushbu davlatlarning 134 tasi bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatilgan.[4] "Bunday hamkorlik rishtalari ham yurtimizda, ham mintaqamizda tinchlik va taraqqiyotni mustahkamlashga xizmat qilishi" ga alohida ehtibor qaratilgan.[5] Oliy darajada qabul qilingan bitimlar, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar hamkorlikka oid hujjatlar turli sohalarida o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, xususan, siyosat, iqtisod, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatda juda katta o'zgarishlar sodir bo'lib, mamlakatimiz aholisining azaliy orzulari amalga osha boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va

boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”, deb, mamlakatimizning tashqi siyosatining asosiy ustuvor vazifalari mustahkamlab qo'yilgan.[6]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlik va faoliyatning asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari sifatida xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik, tashqi savdo faoliyati, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyatlari huquqiy jihatdan belgilab qo'yilgan.[7]

Bugungi kunda O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori va pozitsiyasini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi faol amalga oshirilmoqda.[8]

Ta'kidlash joizki, Xorazm viloyatining xalqaro mamlakatlar bilan hamkorligining siyosiy-huquqiy asosi mustaqillik arafasida shakllana boshlangan edi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonning huquqiy tizimini shakllanishi bir tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda ijtimoiy hayot va davlat qurilishining barcha jabhalarida juda katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.[8, 16-17]

1991-yil 28-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Xorazm viloyatida savdo munosabatlarini, xo'jalik tashkilotlari faoliyatini mustahkamlashda asos bo'ldi. Ushbu sohani o'z ichiga qamrab olgan qonunchilik aktlari, boshqa rasmiy hujjatlar Xorazm viloyati xalqaro aloqalari rivojlanishini ta'minlaydi.

1992-yil 21-fevral PF-350-sonli “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni”ga[9] asosan O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari vazirligi tashkil etilib, uning asosiy vazifasi Respublikada yagona xalqaro iqtisodiy siyosatni amalga oshirishi, xalqaro bozorda umumdavlat xohish istaklarini ta'minlash, chet el davlatlari bilan iqtisodiy, texnik va savdo aloqalarini rivojlantirishni kuchaytirish, ushbu muhitda boshqaruvni kuchaytirish hamda xalqaro iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi ishtirokchilarga kerakli shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy ishimizda 1991-2021-yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va qabul qilingan qonunchilik hujjatlari davriy chegara sifatida belgilab olindi. Shundan kelib chiqqan holda maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Xorazm viloyatining xalqaro iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2005-yil 26-iyuldagi PF-3631-sonli Farmoni[10] asosida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi rahbarligida amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-sentabrda “Xorazm viloyatida turistik infratuzilmaning qo'shimcha ob'ektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 261-son qarori[11] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini, infratuzilmasi va turizm sohasini rivojlantirish, obodonchilikni va aholi suv ta'minotini tubdan yaxshilash bo'yicha kompleks dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish to'g'risida” 2012-yil 25-oktabrdagi F-3921-son farmoyishi bilan Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish, investorlar jahon standartlariga muvofiq bo'lgan, kamida uch yulduzli mehmonxona darajasida munosib xizmat

ko'rsatish sifatiga ega bo'lgan zamonaviy mehmonxonalar, shuningdek, xizmatlar sohasining boshqa obyektlarini barpo etish bo'yicha investitsiya loyihalaridan samarali foydalanish belgilangan.

2015-yilda hamda 2016-yilning birinchi choragida Xorazm viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yakunlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot 1,2 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xajmi 29,7 foizga o'shishga erishilgan. Viloyat iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar xajmi 228,4 mlrd. so'mmi, shundan chet el investitsiya va kreditlari esa 8 mln. 945 ming dollarni tashkil etgan. Xorazm viloyatini 2016-2018-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dastirga muvofiq 2016-yilning birinchi choragida 263 ta loyiha o'rniga 512 ta loyiha amalga oshirilib, 53,3 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritilgan.[12]

2016-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mevalar, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2520-son qarori qabul qilindi.[13] Ushbu qaror viloyatda mevalar, kartoshka va poliz mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish, ularni qayta ishlash, eksport qilish bo'yicha hayriy ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

2017-yildan boshlab mamlakatimizda xalqaro hamkorlik, tashqi savdo va investitsiya sohasida sifat jihatdan butunlay yangi sahifa ochilib, respublikamizning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyati yangi bosqichga chiqdi. Mamlakatimizda umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida ochiq va oshkora ruhda o'tgan Prezidentlik saylovlari 88,61 foiz ovoz bilan lavozimga kirishgan muhtaram Shavkat Mirziyoyev tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e'tibor markazida bo'lishi alohida ta'kidlagan edi. Buning uchun xorijiy sarmoyalar va ilg'or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalariga yanada faol jalb etishimiz zaruriyatini kun tartibidagi dolzarb masalasi sifatida kiritdi. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan dunyoga ochiqlik siyosati, birinchi navbatda yaqin qo'shnilarimiz, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi.

Prezidentimizning Parlamentga har yili murojaat qilish amaliyoti dunyoning ko'plab mamlakatlarida mavjud. Unda yaqin kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan strategik maqsad va vazifalar belgilab beriladi. O'zbekiston tarixida birinchi marta respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil dekabr oyida Oliy Majlisga murojaat qildi va tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi yaqin qo'shnilar bilan konstruktiv muloqot va kuchli tashqi siyosat olib borish ekanligini ta'kidladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4-yo'nalishida hududlarda yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish bo'yicha zaruriy maqsad va vazifalar belgilanib, Xorazm viloyatida ham bu bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning 6-fevralida “Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlariga davlat mulki obyektlarini sotish va kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3513-son va Vazirlar Mahkamasining “Xorazm viloyatida qo'shimcha kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida”gi 2018-yil 26-apreldagi 308-sonli qarorlari qabul qilindi. Mazkur normativ huquqiy hujjatlar asosida Urganch shahrida 2 ta, Urganch, Shovot va Hazorasp tumanlarida 1 tadan kichik sanoat zonalarini barpo

etildi. Xorazm viloyati kichik sanoat zonalarini hamda Hazorasp erkin iqtisodiy zonasidagi investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 50 mln dollar miqdorida kredit liniyasini ochilib, mablag'lar import qilinadigan asbob-uskunalar va ularga butlovchi buyumlarni xarid qilishga yo'naltirildi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi, yirik sanoat korxonalarini, transport-kommunikatsiya tizimi, kichik biznes salohiyati tufayli Xorazm viloyati mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. 2017-2021-yillarda viloyatda yangi korxonalar, kichik biznes sub'yektlari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari tashkil etildi. 2017-2020 yillar davomida viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 17 foizga oshib, 21,6 trillion so'mni tashkil etgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,8 trillion so'mdan 9,6 trillion so'mgacha (o'sish 46 foiz) oshgan. To'qimachilik, avtomobilsozlik, elektrotexnika va oziq-ovqat sanoati, sayyohlik, xizmat ko'rsatish va issiqxonalar Xorazm viloyatining asosiy «o'sish nuqtalari» sifatida belgilangan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2016-yildagi 7,7 trln so'mdan 2020-yilda 17 trln so'mgacha o'sgan. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2016-yildagi 19,4 mingdan 2021-yilda 24,1 mingga yetib, o'sish ko'rsatgichi 25 foizni qayd etmoqda. O'tgan 5 yil mobaynida Xorazm viloyatida 109 mingga yaqin ish o'rni yaratilgan.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, millatlararo

bag'rikenglik, bozor islohotlariga yo'nalish olish va shu davrning qiyinchiliklarini yengib o'tishi bilan birga, yaqin va uzoq chet el davlatlari bilan har jihatdan aloqa o'rnatilib, qabul qilinayotgan davlat dasturlari asosida viloyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqish bo'yicha xalqaro hamkorlikni o'rnatish borasida muayyan islohotlar amalga oshirildi.

Xorazm viloyatida chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarining huquqiy asosi, O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan qabul qilingan qonunchilik muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xalqaro munosabatlarning huquqiy negizi asosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, viloyatdagi mavjud korxonalarini modernizatsiyashtirish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish borasida Hukumatimiz tomonidan zaruriy chora-tadbirlar hayotga tadbir etildi.

Buning natijasida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatgichlari oshib bormoqda. Birgina misol 2010-yilda viloyatning tashqi savdo aylanmasi 209,8 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil yakunlariga kelib 516,7 mln. dollarni tashkil etdi. 2017-2021-yillarda viloyatda xorijiy sarmoya asosida 176 ta yangi qo'shma korxonalar barpo etilib, foydalanishga topshirildi. Asosiy kapitalga jalb etilgan xorijiy sarmoya 2010-yilda 416,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatgich 8 580,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2016. B.-6.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. 2017 yil 11 noyabr.
3. Тойнби А. Постигание истории / Перевод с английского Е. Д. Жаркова. – Москва. Айрис-Пресс, 2010. –С .50.
4. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti: <https://mfa.uz/uz/cooperation/> (23.07.2017)
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston. 2017.– B. 271.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-modda. lex.uz.
7. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2020-yil 26-may. 77-II-son.
8. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston, 2017. –B.-16.17
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 4-son, 202-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 10-11-son, 194-modda.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2005-yil 26-iyuldagi PF-3631-son Farmoni // <http://lex.uz/docs/814874>.
11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 39-son, 512-modda.
12. Xorazm haqiqati. 2016-yil 27-aprel. №34(19275) son.
13. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 15-son.



UDK: 372.881.

**Qunduz XO'JAAXMATOVA,**  
TTA ingliz tili o'qituvchisi  
E-mail: [xojaaxmatovaqunduz@gmail.com](mailto:xojaaxmatovaqunduz@gmail.com)

O'ZDJTU professori, pedagogika fanlari doktori, N.J. Isaqulova taqrizi asosida

### TIBBIYOT TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tezkor samarali strategiyalarni aniqlashda shuningdek, ingliz tili asosida tibbiyot talabalarning kasbiy mahoratlarini oshirish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Shu jumladan, bu maqolada turli soha vakillariga ingliz tilini o'qitishning asosiy xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tibbiy atamalar, innovatsion texnologiya, ESP, non-lingvistik soha, yondashuv, ananaviy metod, zamonaviy metod.

### THE USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH TO MEDICAL STUDENTS

Annotation

This article is devoted to find out effective strategies in using modern innovative technologies in teaching English and the methods of increasing professional skills of Medical students based on English. In this article the importance of teaching ESP and its basic characteristics are included.

**Keywords:** medical terms, innovative technology, ESP, non-linguistic field, approach, traditional method, modern method.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Аннотация

Статья посвящена выявлению эффективных стратегий использования современных инновационных технологий в обучении английскому языку и методов повышения профессиональных навыков студентов-медиков на основе английского языка. В этой статье включены важность обучения ESP и его основные характеристики.

**Ключевые слова:** медицинские термины, инновационная технология, экстрасенсорное восприятие, неязыковое поле, подход, традиционный метод, современный метод.

**Kirish.** Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab bir qator sohalarda muayyan maqsadlarga asoslangan ingliz tili sohasi o'rganilmoqda. O'tgan asrni hisobga olgan holda, ESP (English for Specific Purposes) ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishning alohida yo'nalishi sifatida birlashtirildi, ingliz tilini o'qitishning ushbu yo'nalishi sezilarli darajada rivojlangan va ingliz tilini kasbiy ta'limni oshirish maqsadida o'qitishda yetakchi o'rinni egallagan. ESP tushunchasi bilan izlanishlar olib borgan bir qancha olimlarning asosiy nazariyasi va to'g'ridan-to'g'ri nazariy qarashlari, tushunchalari bilan tanishish va ESP ning nolingvistik yoki akademik maqsadlari bilan muhim rolini muhokama qilish juda muhimdir. Uning tarixi haqida gap ketganda, talabalar va nolingvistik fanlarni o'rganayotgan boshqa o'quvchilar uchun kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish uchun hech qanday dastur yoki yondashuv mavjud emas, ingliz tilini o'rgatishning asosiy omili bu ingliz tilini o'qitishda muayyan tizimga asoslangan dastur hamda majmualar ishlab chiqishdir. So'nggi kunlarda, ekstremal innovatsiyalar tufayli, o'zgarishlar chet tillarini o'rganish jarayoniga ta'sir qilmoqda. Biroq, ingliz tilini o'rganishda grammatika, lug'at va boshqa ko'nikmalarsiz bu tilni egallash mumkin emas. Binobarin, ingliz tilini o'qitishda non-lingvistik sohaga tayangan holda chet tilini o'rgatish usullaridan foydalanish talabi o'zining maxsus grammatikasi, lug'at va darslarni tashkil etish, an'anaviy usullardan ko'ra zamonaviy usullardan foydalangan holda dars o'tish, shuningdek, dars jarayonida o'qituvchining roli bilan ajralib turadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-

son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, shuningdek, 2018-yil 5-iyundagi PF-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmonlarida chet tilini o'qitishni yo'lga qo'yish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar chet tilini tibbiyot oliygohlarida o'qitishni yo'lga qo'yish hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Non-lingvistik soha vakillariga ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va muammolarini muhokama qilishdan oldin, turli sohalarga mo'ljallangan ingliz tili haqidagi nazariyalar va fikrlarni tan olish oqilona yo'l bo'lishi mumkin. Dadly-Evans tomonidan taqdim etilgan ta'rifga Strevens (1988) kontseptsiyalari ta'sir qilgani aniq, garchi u turli sohalarga mo'ljallangan ingliz tilining "Umumiy ingliz tilidan" farqli o'laroq, mutlaq xarakteristikani olib tashlash orqali uni sezilarli darajada boyitdi va o'zgaruvchilar sonini ko'rib chiqdi va tadbir etdi. Turli sohalarga asoslangan ingliz tilining mutlaq va o'zgaruvchan xususiyatlarga bo'linishi, xususan, maxsus soha vakillariga qaratilgan Ingliz tili nima ekanligi haqidagi argumentlarni hal qilishda juda foydali [2, 45]. Ta'rifdan shuni ko'rishimiz mumkinki, Ingliz tilini o'qitishda o'rgatilayotgan til ma'lum bir soha bilan bog'liq bo'lishi kerak, lekin u ma'lum bir yoshga qaratilgan bo'lishi shart emas. ESPni o'qitishga "yondashuv" yoki Dadly-Evans "til o'rganish salohiyati" deb ta'riflagan narsa sifatida qarash kerak. Bunday nuqtai nazar Xatchinsonning fikriga mos keladi, u shunday deb ta'kidlaydi: "ESP - bu til

o'qitishda yondashuv bo'lib, unda mazmun va uslub bo'yicha barcha talablar o'quvchining o'rganish madsadiga asoslanadi". Bundan tashqari, Xatchinson va Uoters "ESP til o'rganishda yondashuvdir va u o'quvchilarning ehtiyojlariga asoslanadi" deb ta'kidlaydi. Ularning ma'nosi shundaki, ESP ma'lum bir til, o'quv materiali yoki metodologiyasini o'z ichiga olmaydi. [3, 89]. Ularning fikriga ko'ra, ESP asosi o'quvchilarni, talab qilinadigan tilni va ESPga bo'lgan ehtiyojning ahamiyatiga asoslangan o'rganish kontekstlarini o'z ichiga oladi. Boshqa nuqtai nazardan, Strevens to'rtta mutlaq xususiyat va ikkita o'zgaruvchan xususiyat o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan ESP ta'rifini tushuntiradi. Shuningdek, Robinson ESPni aniqlashda ehtiyojlarni tahlil qilish muhimligini ta'kidlaydi. Uning ta'rifidan iboratki, ESPni o'qitishda odatda ma'lum bir vaqt oralig'ida o'z maqsadlariga erishish kerak bo'ladi va o'quvchilarning mutaxassislik nuqtai nazaridan ular bir hil sinflarda o'qitiladi. Robinson ta'kidlaganidek, ESP ta'lim, tayyorgarlik va amaliyotni o'z ichiga olgan va uchta asosiy bilim sohasiga asoslangan tizim sifatida: til, pedagogika va talabalarning ixtisoslashgan qiziqish sohalari bo'yicha tashkil etiladi.

ESPni o'qitishning zamonaviy uslublari va usullari

ESPni o'rgatishning muhim tarkibiy qismi bu o'qituvchining auditoriyada haqiqiy muloqot va samarali bahs uchun muhit yaratish qobiliyatidir. Talabalar qo'llab-quvvatlanadigan kommunikativ kompetensiyalarga ega bo'ladilar, shunda ular boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shubhasiz, o'qituvchining dars davomida ingliz tilini o'qitishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatiladi. Bunday hollarda kerakli material va vaqtni taqsimlash asosiy o'rinni egallaydi [4,34]. Bilamizki, bitta guruhda ingliz tilini bilish darajasi har xil bo'lgan bo'lgan talabalarni o'qitish hamda o'qitishning non-lingvistik xususiyatiga tayangan holda dars o'tish uchun tarqatma materiallar tayyorlash bu masalaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda [5, 30]. Bunday holda o'qituvchi o'qitishning innovatsion hamda interaktiv yondashuvlariga asoslangan holda dars jarayonini tashkil qiladi, albatta. Bunday innovatsion metodlar o'z ichiga talabalarning o'z guruhlarida ingliz tilida muloqot qila olish qobiliyatlarini amalga oshirish va o'rganish jarayonida boshqa manbalardan, shu jumladan Internetning onlayn resurslaridan yoki turli xil til o'rgatish dasturlarini sinfdan tashqarida ham muloqot qilish uchun foydalana olish kabilar kiradi. Bu orqali talabalar til ko'nikmalarini rivojlantira oladi, chunki ular o'z bilim va ko'nikmalarini o'zlari tushunadigan va qiziqitradigan mavzularni ingliz tili muhitida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar [6, 142].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talabalar o'z kasbiy faoliyati davomida yoki keyingi o'qishlarida foydalanishlari mumkin bo'lgan materiallar bilan ishlashda ingliz tilining muhimligini tushuna oladilar. Shuni hisobga olish kerakki, talabalarning ingliz tilida tinglab o'rganish mashqlari, so'z bilish darajasi yoki o'qigan manbalarida qanchalik ko'p muloqot qilshi, ularning amaliy jarayonida shunchalik muvaffaqiyatli bo'lishini ko'rsatadi [7, 4]. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda ingliz tilini o'qitishda ko'pgina qulayliklar hamda afzalliklarni ko'rishimiz mumkin:

1) muhim ma'lumotlarni tarjima asosida bilib olish, kompyuterda taqdimotlar bilan ingliz tilini oson o'rganish, veb-saytlar, flesh videolar orqali sohaga oid muammolarga yechim topa olish; 2) ingliz tilida mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirish; 3) ingliz tilida tinglab tushuna olish, o'qib tarjima qila olish yoki matnni tushuna olish, yoza olish hamda muloqot qila oilsh; 4) omma oldida nutq so'zlash qobiliyati, muhokamalarda qatnasha olish kabi. Aynan tibbiyot sohasida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyasini ayni shunday innovatsion texnologiyalar asosida oshirish mumkin. Bunga misol qilib, hozirgi kunda barcha til o'rganuvchilar uchun foydali bo'lib kelayotgan Podcast dasturlarini olsak bo'ladi. Bu dasturlar orqali tibbiyot talabalarining kasbiy mahorati hamda til bilish ko'nikmalari shakllanadi. Yuqoridagi masalani hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash joizki, ESP o'qituvchilari yangi texnologiyalardan foydalanish bo'yicha doimiy yordam va ko'rsatmalarga muhtojligini tushunish juda muhimdir. Bunda hozirgi kunda ingliz tilini o'qitishning zamonaviy yondashuvi, birgalikda o'qitish juda muhimdir. Yosh o'qituvchilar ko'pincha yangi texnologiyalarning eng yaxshi namoyishchilari bo'lishlari ajablanarli emas, shuning uchun ular o'z sinflarida ushbu yangi texnologiyalarni joriy etishga harakat qilayotgan kattaroq o'qituvchilar uchun instruktor bo'lishlari mumkin. Guruh muhokamalari va darsni tashkil etish ham ESP talabalar bilan ishlash bo'yicha o'qitishning samarali shakllari hisoblanadi. Kasbiy ko'nikmalarni oshirish uchun ingliz tilini o'rgatishning eng zamonaviy tendentsiyasi - bu munozara olib borishdir. Bahsga tayyorgarlik bosqichida talabalar chet tilida so'zlash bo'yicha barcha bilim va imkoniyatlarini tizimlashtirishlari, tanqidiy fikrlash qobiliyatidan foydalanishlari va so'zma-so'z (ijodiy) tafakkurni rivojlantirishlari kerak. Binobarin, bahs-munozaralar jarayonida talabalar o'zlarining til va kasbiy malakalarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Xulosa va takliflar.** Bu usullarning barchasi mustaqil o'rganish uchun talabalarni ilmiy va tadqiqot salohiyatini shakllantirish, talabalarga motivatsiya bera olishning muhimligi, va talabalarning jamoaviy ishlay olish qobiliyatini oshirish uchun foydalidir. Agar o'qituvchi o'quvchilar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsa, multimedia ta'lim vositalari va raqamli dunyo texnologiyalari, onlayn resurslar va mobil ilovalardan foydalangan holda an'anaviy yo'nalishlarga ega avlodni shakllantirish uchun ingliz tilini o'rganishda yangi texnologiyalarni yo'lga qo'yishi zarur. Shunday qilib, ESPni o'qitish ingliz tilini o'qitishning boshqa har qanday jihati sifatida amaliy, kasbiy yo'naltirilgan soha bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, u tilning tabiatini bilish, o'qitish va o'rganishning asosiy usullari va shakllarini bilishga asoslanadi. An'anaviy o'qitish usullari va yangi texnologiyalarning kombinatsiyasi, shu jumladan o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun virtual muhitdan foydalanish bugungi kunda ESPni o'qitishning eng samarali usullaridan biriga aylanmoqda. Bir so'z bilan aytganda, ESP talabalarning kasbiy rivojlanishida yangi tendentsiyalardan foydalanish nuqtai nazaridan barcha ko'rilgan omillar va ma'lumotlar, muammolar va natijalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan manba bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг камровли илохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги фармони // [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)
2. Барышников Н.В. Особенности межкультурной коммуникации при несовершенном владении иностранным языком // Обучение межкультурной коммуникации в различных условиях: Сб. науч. статей. - Пятигорск, 2000.
3. Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2012. – Б.430.
4. Sagdullayev.P.K. Чет тиллари о'қитишда kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati -Tashkent, 2013-B.34.
5. G. Iamartino” Teaching Medical English : Methods and Models”. University of Milan, 2014, p.30.

- A. Baldry "ESP syllabus design in the age of mediacy: How do readership, viewership and sharing ship interact? ", Monza-Italy, p.142.
6. R. Sallam "Medical Education And The Language ", January, 2021, p.4. [https://amj.journals.ekb.eg/article\\_139881.html](https://amj.journals.ekb.eg/article_139881.html)



*Allayor XO'JAYEV,*  
JDPI "Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail: [Xojayev@mail.ru](mailto:Xojayev@mail.ru)  
*Alisher RAXMATOV,*  
JDPI "Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail: [Raxmatov.a.@bk.ru](mailto:Raxmatov.a.@bk.ru)

O'zMU Jizzax filiali p.f.n., dotsent N.Alimov taqrizi asosida.

## THE ROLE OF MOBILE APPLICATIONS IN TEACHING MATHEMATICS

Abstract

The article discusses the role and importance of mobile applications in teaching mathematics. In today's fast-paced world of science, the use of information technology in the teaching of the exact sciences and their promotion in practice is one of the most important demands of the globalized world. The article explains the advantages and importance of using mobile applications in teaching mathematics to students in grades 5-8 based on data from the scientific literature.

**Keywords:** math, mobile app, lesson, audience, information and communication.

## РОЛЬ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение мобильных приложений в обучении математике. В современном быстро меняющемся мире науки использование информационных технологий в преподавании точных наук и их продвижение на практике является одним из важнейших требований глобализации. В статье на основе данных научной литературы объясняются преимущества и важность использования мобильных приложений в обучении математике учащихся 5-8 классов.

**Ключевые слова:** математика, мобильное приложение, урок, аудитория, информация и общение.

## MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.

Annotatsiya

Maqolada matematika fanlarini o'qitishda mobil ilovalarning o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Xozirgi kunda rivojlanib boryotgan ilm-fan taraqqiyoti davrida aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish va ularni amaliyotga targ'ib qilish globallashtirgan zamonning muhim talablaridan biridir. Maqolada aynan 5-8 sinfdagi maktab o'quvchilariga matematika fanini o'qitishda mobil ilovalardan foydalanishning afzalliklari va ahamiyati ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, mobil ilova, dars, auditoriya, axborot-kommunikatsiya.

**Kirish.** Matematik ta'lim maktabning barcha bosqichlarida umumiy ta'limning majburiy va ajralmas qismidir. Asosiy matematik tayyorgarlik yuqori darajadagi ta'limga erishish mumkin emas, chunki tobora ko'proq mutaxassisliklar matematikani bevosita qo'llash bilan bog'liq. Binobarin, matematika kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan maktab o'quvchilari doirasi kengayib bormoqda. Matematikani o'qitishda o'quvchilar o'quv materialini o'zlashtirishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi va ularni engish uchun har doim ham etarli motivatsiya bo'lmaydi. Matematika sinfdan sinfga o'tishda jiddiy e'tiborni talab qiladi, o'rganilayotgan materialning hajmi oshadi va murakkablashadi va darsda ajratilgan vaqt matematik ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash uchun har doim ham etarli bo'lmaydi. Dars va auditoriyadan tashqari ishlarda talabalarining mustaqil ishlari ulushini oshirish zarur. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida o'quvchilarni o'quv faoliyatiga jalb etgan holda mustaqil ishlarni tashkil etish vazifasi turibdi.

Adabiyot muhokamasi. O'quv jarayonida talabalarining mustaqil ishlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan o'qituvchilar Yu.K. Babanskiy, I.Ya. Lerner, P.I. Pidkasti, L.S. Vygodskiy, D.B. Elkonin, V.A. Slastenin va boshqalar. Bunday sharoitlarda ta'lim metodlariga yangi texnika va vositalarni kiritish dolzarb bo'lib qoladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ustuvor vazifalardan biridir. Asosiy umumiy ta'lim bo'yicha Federal

davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, birinchi navbatda, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning yangi bilimlarni olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va jarayonni tezlashtirishga qaratilgan. bilimlarni o'zlashtirish. Tadqiqotchilar va pedagoglar M.P. Lapchik, B.E. Starichenko, I.N. Semenova, A.V., Slepuxin. Ta'lim natijasi muvaffaqiyatini oshirish uchun xorijiy va mahalliy mualliflar J. Keller, K. Suzuki, A.G. Asmolov, A.L. Semenov, A.Yu. Uvarov axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini talabalarining motivatsiyasini oshirish vositasi deb biladi. Uzoq vaqt davomida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari stasionar kompyuterlar va noutbuklar bilan bog'liq bo'lib kelgan, ammo texnologiyaning rivojlanishi o'quv jarayonida yangi texnik vositalar - mobil texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi. I.N. Golitsyna, N.L. Plotnikova, B.E. Starichenko mobil texnologiyalarni istiqbolli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari deb biladi. Ular o'zlarining pedagogik amaliyotlarida informatika va matematika darslarida mobil ilovalar va xizmatlardan M.Yu. Novikov, I.I. Roganova, I.I. Raskin, N.A. Kurganova va boshqalar. Lekin shu bilan birga adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 5-8-sinflarda matematika o'qitish jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etishda mobil ilovalar va xizmatlardan foydalanish masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Mobil texnologiyalar qatoriga smartfonlar, planshetlar va boshqalar kiradi, ular nafaqat qolishmaydi, balki ba'zan o'z xususiyatlariga ko'ra

ulardan oshib ketadi va talabalar uchun qulayroq bo'ladi. Mobil ilovalarning imkoniyatlari o'quv ma'lumotlari taqdimotini kengaytirish imkonini beradi va undan darsning barcha bosqichlarida va turli mashg'ulotlarda, jumladan, sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etishda foydalanish imkonini beradi. Mustaqil ishda mobil ilovalar va xizmatlar tufayli siz o'quv fonlari sonini ko'paytirishingiz, har bir talabaning ishi uchun optimal mavzularga erishishingiz, vazifalarni diversifikatsiya qilish va farqlash, matematikani o'rganishga qiziqishni saqlab qolishingiz mumkin.

Ilmiy, pedagogik, uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish bir qator qarama-qarshiliklarni aniqlash imkonini beradi:

- ilmiy-pedagogik darajada – matematikani o'rganish jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etishda mobil ilovalar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va nazariy asoslarning yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida;

- ilmiy-uslubiy darajada – matematika fanini o'rganishda mustaqil ishlarni tashkil etishda mobil ilovalar va xizmatlarning didaktik imkoniyatlari va tegishli metodlarning yo'qligi o'rtasida.

Tegishli va yuqoridagi qarama-qarshiliklardan tadqiqot muammosi kelib chiqadi: didaktik topshiriqlarni bajarish jarayonida 5-8-sinf o'quvchilariga mobil ilovalar va xizmatlardan foydalangan holda matematika fanini o'qitishni qanday tashkil qilish kerak?

Tadqiqot metodologiyalari. Umumta'lim maktabining 5-8-sinflarida matematika fanini o'qitish jarayonida mobil ilovalar va xizmatlardan foydalangan holda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi sifatida bir necha metodikalarni ko'rish mumkin. Quyida ushbu metodikalar tahlili berilgan.

Maqola tadqiqotining maqsadi sifatida mobil ilovalar va xizmatlardan foydalangan holda mustaqil ishlarni tashkil etishda matematikani o'qitish metodlarini nazariy asoslash va ishlab chiqish deya olish mumkin. Ushbu maqsadga erishishda quyidagi farazlarga amal qilish mumkin:

5-8-sinf o'quvchilarining matematika kursini mobil ilovalardan foydalanish kontekstida muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, agar:

- ulanishlarni umumlashtiruvchi model ishlab chiqiladi mobil ilova - o'qitish usuli - didaktik vazifalar;

- ishlab chiqilgan modelga muvofiq, mobil ilovalar yordamida matematikani o'qitishning ba'zi usullari tavsiflanadi;

- matematikani o'rganish jarayonida o'quvchilarning faoliyati mobil ilovalar yordamida amalga oshiriladi.

Tadqiqot maqsadi va ishchi gipoteza asosida quyidagi tadqiqot maqsadlari shakllantirish mumkin:

- 1) Boshlang'ich sinflarda zamonaviy matematik ta'lim muammolari va ularni yechish yo'llarini aniqlash maqsadida me'yoriy va ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlilini o'tkazish.

- 2) Umumta'lim maktabining 5-8-sinflarida matematika fanini o'qitish jarayonida mobil ilovalar va xizmatlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy-metodik adabiyotlar tahlilini o'tkazish.

- 3) Mobil ilovalar va xizmatlardan foydalangan holda didaktik vazifalar va o'qitish usullarini tizimlashtirish va mustaqil ishlarni tashkil etishda o'qitish usullarini tanlash tamoyillarini taklif qilish.

- 4) Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda mobil ilovalar va xizmatlar asosida matematika fanini o'qitish metodikasini loyihalashtirishni amalga oshirish.

- 5) Talabalarning mustaqil ishlarida mobil ilovalar va xizmatlardan foydalangan holda matematika o'qitish usullarini qo'llashning maqsadga muvofiqligini tekshirish bo'yicha tajriba-qidiruv ishlarini olib borish. Mavzu doirasidagi tadqiqotlarning nazariy va uslubiy asosini quyidagi ishlar tashkil etdi:

Tadqiqot usullari:

tadqiqot muammosi bo'yicha ilmiy, uslubiy va maxsus adabiyotlarni o'rganish;

davlat ta'lim standartlari, dasturlari, o'quv

qo'llanmalar va o'quv-metodik qo'llanmalarini tahlil qilish;

o'qituvchilar tajribasini o'rganish va umumlashtirish;

pedagogik loyihalash va modellashtirish;

so'roq qilish.

Zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri matematik ta'limni rivojlantirish bo'lib, zamonaviy sharoitlarda matematika asoslarini o'rganish yosh avlodni tayyorlashning tobora ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Jahon tajribasini tahlil qilish ushbu yo'nalishdagi uchta muhim tendentsiyani aniqlash imkonini beradi: barcha maktab o'quvchilari uchun matematik ta'limga bo'lgan ehtiyojni tushunish va tegishli tadqiqotlarni keng shakllantirish; ta'limning barcha bosqichlarida o'quv rejalariga matematika bo'yicha umumiy ta'lim kurslarini kiritish istagi; maktabning yuqori bosqichlarida matematik tayyorgarlikni chuqur farqlash [4].

Mamlakatimizda matematika ta'limini rivojlantirishning asosiy tamoyillari, maqsadlari, vazifalari va asosiy yo'nalishlari bo'yicha qarashlar tizimi borasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ilmiy-tadqiqot ishlarida matematika ta'limi va fanini rivojlantirishda zamonaviy maktabda dolzarb bo'lgan uch guruh muammolari belgilangan.

Birinchi guruh maktab o'quvchilarining past motivatsiyasini o'z ichiga oladi, bu matematik ta'limning ahamiyatini jamoatchilik tomonidan yetarlicha baholanmaslik, o'quv dasturlarini ortiqcha yuklash, shuningdek, texnik elementlar va eskirgan tarkibga ega baholash va uslubiy materiallar bilan bog'liq.

Ikkinchi guruh talabalarning turli guruhlar uchun oraliq va davlat yakuniy attestatsiyasi talablarida o'quv dasturlari, baholash va uslubiy materiallarda aslida hech qanday farq bo'lmagan mazmunli xarakterdagi muammolarni o'z ichiga oladi, bu esa o'quv jarayoni samaradorligining pastligiga olib keladi.

Uchinchi guruhga esa turli guruhlardagi o'quvchilarning ta'lim va hayotiy manfaatlarini hisobga olgan holda, rivojlantiruvchi va shakllantiruvchi matematikani sifatli o'rgatadigan kadrlarning yetishmasligi kiradi [4].

Amaliyotda matematikani o'rganish va o'quv jarayonini tashkil etish jarayonida 5-8-sinf o'quvchilari turli xarakterdagi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Matematika kursini o'rganishning barcha bosqichlarida talabalarda hisoblash madaniyati shakllanadi, lekin uning poydevori o'qishning birinchi besh yilida qo'yiladi. Bu davrda matematik amallar qonuniyatlaridan ongli ravishda foydalana olish qobiliyati shakllanadi, kelgusida esa egallangan ko'nikma va malakalar mustahkamlanadi va takomillashtiriladi. Shunday qilib, 5-8-sinflarda sinfda og'zaki ish har qachongidan ham dolzarbdir, lekin ko'pincha, ayniqsa 5-6-sinflarda, eng oddiy arifmetik amallarni bajarish 11 o'quvchi uchun qiyinchilik tug'diradi va kalkulyatoridan foydalanish istagi paydo bo'ladi. [1]. Bu esa o'z-o'zidan maktablardagi o'quvchilarning intellektual qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Tadqiqot va natijalar.** So'nggi yillarda o'quvchilar tafakkurining mantiqiy komponentini rivojlantirish bo'yicha maxsus o'qituvchi ishining zarurati masalasi ayniqsa keskinlashdi. Maktab darslari bolalar tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi jarayonida, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muammosi paydo bo'ladi [3]. Geometriyani o'rganishda o'quvchilarning geometrik materialni o'zlashtirish darajasini pasaytirish tendentsiyasi kuzatiladi. Matematika bo'yicha diagnostika ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, geometrik muammolarni hal qilishda fazoviy fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq qiyinchiliklar

mavjud [1]. Geometriyadan farqli o'laroq, algebra darslarida matematik tushunchalarga kamroq e'tibor beriladi. Geometriyada hamma narsa tushunchalar asosida qurilgan, algebrada bo'lgani kabi o'qituvchilar esa amaliy materialni bilish yetarli deb hisoblab, tushunchalarni o'rganishdan qochishga harakat qiladilar [3]. Yuqorida aytilganlar matematikani o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga quyidagilar bog'liq degan xulosaga kelishga imkon beradi: hisoblash madaniyati, mantiqiy fikrlash, geometrik materialni o'zlashtirish, matematik tushunchalarni shakllantirish, modellashtirish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, bilimlardagi bo'shliqlar, bilimlarning mohiyatini noto'g'ri tushunish. matematik qoidalar va boshqalar. Matematika ta'limini rivojlantirishda matematikani o'qitishdagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator vazifalar ko'rsatilgan:

